

Hayot Muallimi

Mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziy nomini eshitmagan, uning jahon so'z san'ati durdonalari qatoridan o'rin olgan "Bo'ston" va "Guliston" asarlaridan bahramand bo'lmagan adabiyot muxlisi topilmasa kerak. Sharq xalqlari orasida Shayx Sa'diy nomi bilan shuhrat qozongan bu donishmand inson 1203 yili Sheroz shahrida tug'ilgan. Otasi Sheroz otabegi Sa'd binni Zangiyning mulozimlaridan bo'lgan. Lekin u 1086 yil yoshlarida otadan yetim qoladi. Saroy tomonidan nafaqa tayinlangan bo'lsa-da, oilaning moddiy ahvoli og'ir edi. Mayda savdogarchilik bilan shug'ullangan akasining ham bozori tezda kasod bo'ladi. Shunga qaramay, bilimga chanqoq Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahri Sherozda olgach, tahsilni davom ettirish uchun xalifalik poytaxti, o'sha davrning eng yirik ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodga boradi. Dongdor "Nizomiya" va "Mustansiriya" madrasalarida kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarfu nahfi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib xamda boshqa tabiiy va aniq fanlarni o'rganadi. Taniqli tasavvuf olimi va faylasuf adib Shahobiddin Suhravardiy hamda yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziy qo'lida tahsil oladi. XI asrda saljuqiylar sultonlardan bir nechtasiga vazirlik qilgan mashhur davlat va jamoat arbobi Nizomulmulk asos solgan "Nizomiya" madrasasi 6 ming talabani o'z bag'riga olsa, "Mustansiriya" kutubxonasida 70 ming jildidan ortiq kitob bo'lgan. Bu ikki ulkan madrasaning musulmon Sharqidagi nufuzini shundan ham bilsa bo'ladi. Talabalar orasida, ayniqsa, zabardast arab shoiri Mutanabbiy she'rlariga qiziqish kuchli edi. Bu mutolaalar keyinchalik Sa'diy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U bu yerdagi ilmiy-adabiy davralarda faol ishtirok etib, bilimining keng va chuqurligi, dalillarining o'tkir va asosliliigi, voizlik iqtidori tufayli hammaning e'tiborini o'ziga jalb qilar va bahsu munozaralarda hamisha g'olib chiqar edi. Madrasani tutatgan Sa'diy olgan bilimlarini amaliyotga qo'llash o'rniga, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatga o'tlanadi. Buni ikki sabab bilan asoslash mumkin: birinchisi shoirning sayohatga o'chligi, ikkinchisi - mo'g'ullar tasarrufidagi ulkan hududda ilmu ijod uchun osoyishta shart-sharoitning yuqligi. U goh olim va voiz, goh so'fiy va darvesh suratida Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston kabi mamlakatlarni ba'zida otu eshak, ba'zan esa poyi piyoda kezib chiqadi. Bu sayohatlar 20 yildan ortiq davom etgan. Sayohat davrida Sa'diyga karvonni qaroqchilardan himoya qilib, muhorabaga kirishiga ham, turli joylardagi madrasa va qozixonalarda va'z o'qishiga ham, shayxu so'fiylar bilan mubohasa qilishiga ham to'g'ri kelgan. U Hindistonda ham bo'lib, bir muddat butxonada istiqomat qilgan, salibchilarga asir tushib, ularning qal'alarini tuzatish ishlarida qatnashishga majbur bo'lgan. Bu sayohatlar davomida Sa'diy hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi bilan anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib yetishadi. XIII asrning o'rtalarida Sherozga qaytib kelgan shoir dunyo tashvishlaridan o'zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx Abu Abdulloh Hafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi va 1292 yili vafot etadi. U dafn etilgan bog' va maqbara she'riyat ixlosmandlarining ziyoratgohlaridan biri bo'lib, undan kecha-kunduz shoir muxlislarining qadami arimaydi. Barcha mashhur kishilar kabi Sa'diy hayoti ham afsona va rivoyatlarga ko'milib kettan. Chunonchi, turli manbalarda shoirning Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohati 20 yildan 50 yilgacha davom etgani naql qilinadi. Yoki u juda uzoq 102, 108, hatto 120 yil umr ko'rgani aytiladi. Go'yo u o'z umrini uch qismga taqsim qilib, 30 yilini ilm tahsili, 30 yilini sayohat, 30 yilini ijodga bag'ishlagan emish. (Ba'zi manbalarda 30 o'rniga, 40 raqami tilga olinadi.) Bu taxminlarning barchasi Sa'diyning tarjimai holi haqida yetarli ma'lumot saqlanib qolmaganligidan. Shuning uchun ham shoir ijodining tadqiqotchilari uning tarjimai holini asarlari asosida tiklashga harakat qilganlar. Jumladan, "Bo'ston" va "Guliston" asarlaridagi ba'zi hikoyatlardan kelib chiqib, uning yomon xotinga uchragani, undan bir o'g'il ko'rib, Yamanda bo'lgan vaqtida yolg'iz jigarbandi ham vafot etgani xususida ma'lumot berishadi. Bu haqda "Guliston"da shunday hikoyat keltiriladi: "Damashqdagi do'stlarimning suhbatini jonimga tegib, shahardan bosh olib, Quddusi sharif biyoboniga jo'nadim-da, hayvonlar bilan ulfatlashib, to'faranglar qo'lga asir tushgunimcha o'sha yerda yashadim. Meni yahudiylar bilan birga qo'shib, Taroblis xandaqini qazishga olib borib ishlatdilar. Halablik sardorlardan biri men bilan oshna edi, yonimizdan o'ta turib, meni tanib qoldi-da, xitob qildi: "Iye, bu qanday hol?" Men unga: "Nima ham deyman?" deb javob berdim. Ahvolimga achinib, o'n dinor to'lab, asirlikdan xalos etdi va o'zi bilan Halabga olib ketdi. U yerda yuz dinorlik qalin puli bilan qizini menga nikohlab berdi. Oradan sal vaqt o'tgach bilsam, qizi badfe'l, shallaqlari va o'jar ekan, tilini zahar qilib, jonimdan bezor eta boshladi. Oxiri bir kun basharamga tik boqib, ta'na-malomatlar bilan dedi: "Sen otam o'n dinor barobariga faranglardan xalos etgan odam emasmisan?" Men javob berdim: "Ha, otang o'n dinor barobariga faranglardan ozod etib, yuz dinor barobariga changalingga topshirgan odam men bo'laman!" "Bo'ston"ning shoir hayoti tafsilotlariga bag'ishlangan qismida esa quyidagi ishoraga duch kelamiz:

Ba San'oduram, tifle andar guzasht,
Chi go'yam k-az onam, chi bar sar guzasht..

Mazmuni: "San'oda musofirligimda bolam dunyodan o'tdi. Boshimdan kechgan hodisalarning qaysi birini aytay?" Mo'g'ullar istilosidan tashqari, Yevropa mamlakatlarining Sharqqa uyushtirgan salib yurishlari ham Sa'diy davriga to'g'ri keladi. Bu hodisalar shoir yashagan zamonning qanchalik murakkab va og'ir bo'lganligini ko'rsatadi. Uning sayohatlari cho'zilishi, xususan, Arabistonda ko'proq qolib ketishi o'z yurtidagi huddi shu notinchlik, ilmu ijod uchun shart-sharoitning yo'qligidan bo'lsa kerak.

Fors tojik adabiyotida Sa'diyning maqomi juda yuksak. Xususan, boy hayotiy tajriba asosida yaratgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi.

"Bo'ston" o'n qismdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: hamd; na't; kitobning yozilish sababi; Abu Bakr bin Sa'd bin Zangiy madhi; Sa'd bin Abu Bakr bin Sa'd madhi; birinchi bob - odilligini tadbiri andisha zikrida; ikkinchi bob - ehson zikrida; uchinchi bob - ishqu oshiqligi mastlik zikrida; to'rtinchi bob - tavoze' zikrida; beshinchi bob - rizo zikrida; oltinchi bob - qanoat zikrida; yettinchi bob tarbiyat olami zikrida; sakkizinchi bob - shukru omonlik zikrida; to'qqizinchi bob - tavba va savob yo'li zikrida; o'ninchi bob - munojot va kitob xotimasi zikrida.

"Bo'ston" kitobiylikdan uzoq bo'lib, u bevosita qaynoq ijtimoiy-siyosiy hayotdan, jonli xalq tilidan suv ichgan, oziqlangan va shuning uchun ham jamiyatning hamma tabaqalariga tushunarli bo'lgan" (A.Hayitmetov).

"Guliston" sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob - podshohlar siyrati zikrida;

1 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

ikkinchi bob - darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob - qanoat fazilati zikrida; to'rtinchi bob sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob - ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob - qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob - tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob - suhbat odobi zikrida.

"Guliston" - fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblaiadi. U "pandu nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan... Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millatu elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan musajja' nasriy jumlar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlari ham, yengil hazil-mutoyiba, lutfu nuqtadonligi ham, his-tuyg'ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Shu sababli har xil toifadagi, turli tab'li odamlar "Guliston"dan bahra ola biladilar" (N.Komilov).

Sa'diyni g'azal janrining kashshofi va ustodi sifatida ham ulug'lashadi, chunki ungacha forsiy she'riyatning yetakchi janrlari qasida, doston, masnaviy, qit'a va ruboiy edi. Rudakiy, Sanoiy, Xoqoniy, Jamoddin va Kamoliddin Isfahoniylar ko'plab g'azallar yozgan bo'lsalar-da, ular qasida va qit'a xarakteriga ega bo'lib, o'zaro mustaqil alohida baytlardan g'azal yaratish an'anasini Sa'diy boshlab berdi. U g'azalchilikdagi o'zigacha olib borilgan izlanish va tajribalarni rivojlantirib, g'azalni takomilga yetkazdi, keyin Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Xoju Kirmoniy kabi zabardast shoirlar uni yanada taraqqiy ettirib, Hofiz Sheroziyga yetkazdilar, Hofiz esa uni yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Sa'diy g'azallari 4 devondan iborat bo'lib, ular "Tayyibot" ("Latif g'azallar").

"Badoye" ("Yangi g'azallar"), "Xavotim" ("Xotima g'azallar") va "G'azaliyoti qadim") ("Eski g'azallar")dan iborat.

Sa'diy ikki tilda yoziladigan she'r turi - mulamma' (shiru shakar)ning ham asoschisi hisoblanadi. Arab tilini yaxshi bilganligidan u arabcha misra va baytlarni forsiy bilan uyg'unlashtirib, ushbu shaklni ixtiro qilgan. Keyinchalik forsiy-turkiy ibora va misralar vositasida shiru shakar yozish an'anasi paydo bo'ldi.

Sa'diy tarje'band janrini ham rivojlantirib, baland poyaga ko'tardi. Undan keyin o'tgan shoirlar, hatto Hofiz va Jomiy kabi she'r ustodlari ham bu borada unga ergashdilar.

Sa'diy fors-tojik badiiy nasrining ham asoschisi hisoblanadi. Ungacha faqat maktublar, hujjatlar, ilmiy va tasavvufiy asarlar, adabiy xarakterdagi tarixiy lavhalariga nasrda yozilgan. Bundan tashqari, shoirming hayot va inson haqidagi fikrlarining qaymog'ini o'zida jamlagan "Sohibiya" asari, arabcha va forsha qasidalar, qit'a, ruboiy va fardlari ham mashhur.

Sa'diy Sheroziyning Eronda Muhammadali Furo'g'iy tomonidan tartib berilgan kulliyotp 18 qismdai iborat: 1. Guliston. 2. Bo'ston. 3. G'azaliyot (G'azallar). 4. Tarje'ot (Tarje'bandlar). 5. Qit'aot (Qit'alar). 6. Ruboiyot (Ruboiylar). 7. Mulhaqot (Payvasta she'rlar). 8. Mufradot (Fardlar). 9. Mavoiz (Pand-nasihatlar). 10. Marosiy (Marsiyalar). 11. Qasoidi arabiy (Arabcha qasidalar). 12. G'azaliyoti mushtamil bar pandu nasihat (Pand-nasihah mavzuidagi g'azallar). 13. Musallasot (Musallaslar - har bandi uch misradai iborat she'r turi: dastlabki ikki misrasi o'zaro qofiyadosh bo'lib, uchinchi misra keyingi bandlarning oxirgi misrasi bilan hamqofiya bo'ladi). 14. Qit'aot. 15. Ruboiyot dar axloqu mav'iza (Axloq va pand-nasihah mavzuidagi ruboiylar). 16. Masnaviyot (Masnaviylar). 17. Mufradot. 18. Rasoyili nasr (Nasriy risolalar).

Sa'diyga qadar alifbo asosida devon tartib berish an'anasi bo'lmagan. Sa'diy ham devonini alifbo asosida tartibga solmagan. Bu ishni shoir vafotidan keyin 1326 yili Besuton taxallusli Ali binni Ahmad ibni Abu Bakr degan kishi amalga oshirgan. Shundan so'ng barcha shoirlar she'rlarini ularning oxirgi harfi bo'yicha tartibga sola boshladilar.

Bir umr xalq ichida yashagani, hayotning butun achchiq-chuchugini totgani uchun ham Sa'diy asarlari boshqa Sharq shoirlarinikidan hayratlanarli darajada hayotiyiligi bilan alohida ajralib turadi. Uni Sharq adabiyotshunoslari vuqu'go'y, ya'ni hayotni bor bo'yicha tasvirlaydigan adib deyishadi. Hozirgi termin bilan ifodalaganda, bu realist yozuvchi degani bo'ladi.

"Bo'ston" va "Guliston" hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirming bu hikoyatlar so'ngida qissadan hissa tarzida keltirgan she'rlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi bilan ham jahon ilmu adab ahlini birday o'ziga tortib kelmoqda.

"Guliston"ga ergashib ko'plab asarlar yozilgan, lekin ulardan faqat 3 tasi: Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"i, Majiddin Xofiyning "Xoriston"i, Habib Qooniyning "Parishon"i shuhrat qozongan.

Sa'diy ham kitoblar, ham odamlardan bir umr ta'lim oldi - Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatlari uni dunyoda ko'pni ko'rgan, katta hayotiy tajriba to'plagan, o'z davrining barcha ilmlarini egallagan donishmand kishiga aylantirdi. Bu haqda uning o'zi "Bo'ston"ning muqaddimasida yozadi:

Dar yaqson olam bigashtam base,
Basar burdam ayyom bo har kase.
Tamatto" ba har go'shaye yoftam,
Zi har xirman xo'shaye yoftam.

Mazmuni: "Dunyoning eng chekka joylarigacha safar qildim, turli toifadagi odamlar bilan hamsuhbat bo'ldim. Har go'shadan bir manfaat topdim, har xirmondan bir boshqo oldim".

XIX asrda yashagan taniqli turk tanqidchisi Ziyoposho "Xarobot" asarida Firdavsiy va Sa'diyni o'zaro qiyoslab, jumladan shunday degan edi:

"... Firdavsiy "Shohnoma"ni vujudga keltirish uchun o'ttiz yil mashaqqat tortdi. Haqiqatan ham, o'lmas bir asar yaratdi. Quyosh chiqishini bir yuz yigirma yerda bir-biriga o'xshamaydigan bir yuz yigirma xil rang bilan tasvir qilgan. Ammo shunga qaramasdan, "Shohnoma" ommaga Sa'diyning "Bo'ston"i bergan foydani bera olmaydi. Sa'diy "Bo'ston"da dunyoni, yashab turgan dunyoni tasvirlagan. Agar badiiy ijoddan maqsad ommaga foyda yetkazish bo'lsa, "Bo'ston"ning har bir so'zi topilmas bir dur, - bir gavhardir va har bir bayti bir xazina".

Shu tariqa, u badiiy asar to'g'risida ommaga manfaati tegishi va ifoda tarzining ochiqligi nuqtai nazaridan muhokama yuritib, Sa'diyni fors-tojik mumtoz shoirlaringshg barchasidan afzal qo'yadi.

Sadriddin Ayniy ham Sa'diyning "asarlaridan aqlga sig'maydigan, o'xshashi tiriklik olamida bo'lmagan yoki bo'lib o'tmagan biror narsani topolmaysiz", - deb lutf etgan edi. U shoir ijodini tekshirish davomida: "Sa'diy, shubhasiz, fors-tojik klassik adabiyotining juda ulug' siymalaridan bo'lib, bundaqasi bo'lmagan", - degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, mumtoz fors-tojik adabiyotida biror-bir adib ijodi Sa'diy asarlarichalik hayotiyiligi bilan ajralib turmaydi. U ilhomni, mavzuni, mazmunni, so'z va obrazli iboralarni xalqdan olib, xalqqa qaytardi. Shoir asarlarinipg xalqchil asosi shunda.

Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" asarida e'tirof etishicha, Sa'diyning "so'zlari hamma toifalarga ma'qul tushdi. Uning haqida bir shoir quyidagi misralarni yozmish va haqiqatan insof gavharini tizmish:

She'r olamida payg'ambar uchta.
Garchandki, "lo nabiya ba'diy".
Dostonu qasidayu g'azalda
Firdavsiyu Anvariyo Sa'diy".

Eron adabiyotshunosi Ali Dashtiy shunday lutf etadi:

"Sa'diy kitobi toabad fors tilining o'lchovi bo'lib qoladi: har so'zki, unga to'g'ri kelsa - to'g'ri, har so'zki, unga to'g'ri kelmasa noto'g'ridir".

Sa'diyshunos Muhammadali Furo'iyning yozishicha: "... fors adabiyoti to'rt ustunga suyanadi, bular - Firdavsiy "Shohnoma"si, Shayx Sa'diy "Kulliyot"i, Mavlaviy "Masnaviy"si va Xoja Hofiz "Devon"i".

Sa'diy o'zidan keyingi fors tojik adabiyotiga eng kuchli ta'sir ko'rsatgan zabardast so'z san'atkoridir. "Umuman, butun Sharqda Sa'diy nomi juda ko'p tilga olinib turadi. Shoirilar, faylasuflar va olimlarga emas, oddiy xalq namoyandalari ham o'z fikrlarining to'g'riligini isbotlash uchun bu so'z ustodining ajoyib asarlaridan dalil keltiradilar. Dono shoirning purhikmat jumalari sakkiz asrdan beri majlislarga, kishilar nutqiga oro berib, ongiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda" (Sh.Shomuhamedov).

Xalq hayotini yaxshi bilgan Sa'diy ko'plab xalq maqol-matallari, obrazli iboralarini asarlariga olib kiradi. O'z navbatida, bu donishmand insonning o'zi ham ko'plab hikmatlar ijod etganki, ular xalq og'zaki ijodi tarkibiga singib ketgan: ulardan qaysi biri xalqqa tegishli-yu, qaysi biri Sa'diydan o'zlashtirilganligini ajratib bo'lmaydi:

Kimki befoyda umrin o'tkazdi,
Hech narsa olmasdan oltin ketkazdi.
Sevinma dushmanim olmish deb ajal,
Bir kuni senga ham gal keladi, gal.
Birlashsa chumoli ittifoq bo'lib,
Arslon teriyeini olajak shilib.

(Sh. Shomuhamedov tarjimalari)

Sa'diyni hayot muallimi deydilar. Chunki shoirning pandu nasihatlari, maqol va hikmatga aylanib ketgan chuqur mazmunli fikrlari, falsafiy xulosalari hayotiy: u dunyo kezib, hayotni har tomonlama o'rganib, inson umrining mohiyati, fe'l-atvorining turfa qirralarini uzoq yillar mobaynida teran nigoh bilan kuzatib, ohorli va chuqur mazmunli badiiy umumlashmalar qiladi - ularning xalq maqollariday, hikmatli so'zlarday jaranglashining sababi shunda:

To mard suxan nagufta boshad,
Aybu xunarash nuhufta boshad.
Har besha gumon mabar, ki xolist,
Shoyad, ki palang xufta boshad!

Mazmuni: "To kishi so'zga og'iz ochmay turib, uning nuqsonin) fazilatini bilib bo'lmaydi. Shunga o'xshab, to'qayni sokin ko'rib, uni tinch deb o'ilama, ajab emaski, bir ovloqda yo'lbars uxlab yotgan bo'lsa!"
Yoki:

Gurbai miskin agar par doshti,
Tuxmi gunjishk az jahon bardoshti.
In du shoxi gov agar xar doshti,
Hech kasro peshi xud nagzoshti.

Mazmuni: "Bechora mushukning agar qanoti bo'lsa, dunyoda chumchuqning urug'ini quritar, ho'kizdagi ikki shox eshakda bo'lganpda hech kimni yaqiniga yo'latmas edi".

Pand-nasihat, hikmat Sa'diy asarlarining qat-qatiga singib ketgan. U hayotiy voqea-hodisalarni turli shakllarda ifodalab, ko'rgan-kechirganlari yuzasidan xulosa chiqaradi va kishilarni insoniy kamolotta da'vat etadi, umr yo'llaridan qoqilmaslik, adashmaslikka, o'tkinchi hayotning qadriga yetishga, bir-birini avaylashga chaqiradi, halol mehnat qilib, osoyishta yashashning ahamiyatini tushuntiradi, ilmu hunarning afzalliklarini uqtiradi.

Xech narsa hayotning o'rmini bosolmagani singari, hayot haqqoniyatiga asoslangan asarlarning umri ham boqiy bo'ladi. Ayni jihatdan, shoir she'rlarining har bir hujayrasidan hayot nafasi ufurib turadi. Bu she'rlarning qon tomiri turmushning qaynoq vujudiga ulangan.

Hayotning o'zi ustozlik qilgan kishi chinakam donishmand bo'ladi. Chunki hayot saboqlari hamisha jonli va aniq bo'ladi. Buning ustiga, hayot degan ustoznig dunyoning jild-jild kitoblariga kirmay qolgan usul va tajribalari ham ko'p. Yillar davomida jild-jild kitoblardan ololmagan sabog'ingni hayot bir lahzada miyangga joylab qo'yishi mumkin. Kitobiy ilmlar xotiradan o'chib ketishi mumkin, lekin hayot saboqlari sira esdan chiqmaydi. Sa'diy hikmatlari hayotdan olingani uchun ham asrlar davomida o'z qimmatini yo'qotmay kelayapti va to yer yuzida inson avlodi yashar ekan, ularning ahamiyati zarracha kamaymaydi, bil'aks, ortib boraveradi. Zero, insonning tabiiy va ma'naviy intilishlari hamma davrlar va jamiyatlarda ham deyarli bir xil.

Bu she'rlar o'z zamonining barcha ilmlarini egallagan alloma, dunyo kezgan donishmand, olam va odam mohiyati ustida bir umr

tafakkur yuritgan mutafakkirning o'y-fikrlari, falsafiy umumlashmalari, hayotiy xulosalari. Dunyoni mukammal, hayotni to'kis, insonni barkamol ko'rishni istagan bani bashar taqdiri uchun mas'ul zotning orzu-armonlari, umid-iztiroblari. Sa'diy asarlarining tili sodda, uslubi lo'nda, xalqona so'zlar va obrazli ifodalarga boy, tashbehu timsollari hayotiy, shs'riy san'atlarni mahorat bilan qo'llaydi, shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy yuksak bu asarlarga o'xshatib yozishga uringanlar ko'p, lekin hech kim Sa'diy darajasiga ko'tarilmagan. Shuning uchun ham fors-tojik adabiyotshunoslari uning uslubini "sahli mumtane", ya'ni "oson u, imkoni yo'q" deb ta'riflaganlar.

"Guliston" XVII asrning birinchi yarmidayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, tarqala boshlagan. U ilk bor fransuz diplomati Andre Ris tomonidan fransuz tiliga o'girilib, 1634 yili Parijda nashr etilgan. Bu tarjima juda erkin bajarilgan va mukammal bo'lmasa-da, ko'pchiliknng e'tiborini tortadi. 1635 yili asar fransuzchadan nemis tiliga tarjima qilingan. Shundan keyin boshqa g'arb tillari, shuningdek, rus tiliga ham o'girilgan. Rus tilida "Guliston" (1957. 1959) va "Bo'ston" (1963) asarlarining mukammal tarjimalari bosilib chiqqan.

"Sa'diy yolg'iz Eron emas, balki Osiyoning, Afriqoning hamma yerida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovatini va ifodasining qimmatini Ovrupo ilmu adab ahli ham ko'pdan beri tan olganlar", - deb yozadi mashhur major olimi Xerman Vamberi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I. V. Hyote Sa'diyni "juda mahsuldor va fayzlp", "hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir" deb hisoblagan.

Mashhur fransuz faylasufi va adibi Vol'ter "Guliston"dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlarida undan foydalangan. Taniqli fransuz masalchisi Lafonten ham "Guliston"dagi hikoyat va naqlardan o'z masallarida istifoda etgan. Ulug' rus shoiri A. S. Pushkin:

"Sa'diy va Hofiz asarlarining pinhoniy asroriga yetgunimcha she'rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo'stlik kam uchrardi", - degan edi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga "Guliston"dan olingan quyidagi misralarning darj etilgani ham Sa'diyning insoniyat shoiriga aylanib ketganligidan dalolat beradi:

Bani odam a'zoi yakdigarand,
Ki dar ofarinish zi yak gavharand.
Chu uzve ba dard ovarad ro'zgor,
Digar uzvhoru namonad qaror.

Mazmuni: "Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo'lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabi dirlar. Binobarin, zamon uning bir a'zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a'zolari ham o'z tinchini yo'qotadi".

1958 yili Butun Jahon Tinchlik Qo'mitasining qarori bilan "Guliston"ning 700 yilligi jahon miqyosida keng tantana qilingan. Sa'diy asarlari qadimdan o'abek xalqi orasida ham mashhur. "Bo'ston" va "Guliston" asarlari madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o'qitilib kelgan. Mumtoz shoirlarimiz bu ulug' so'z san'atkoridan o'rganganlar, ta'sirlanganlar. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Xojaning "Gulzor", Abdulla Avloniyning "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" asarlari bevosita Sa'diy "Guliston"i ta'sirida yaratilgan. "Devoni Foni"da Sa'diy g'azaliga 22 ga tatabbu', uning tavrida 4 ta g'azal mavjud. Chunonchi, Navoiyniig Sa'diy g'azaliga yozgan bir tatabbu'sida o'qiymiz:

Foni, ba rahi Sa'diy agar zad qadame chand,
Bo o' suxanash bin, ki chu shiru shakar aftod.

Mazmuni: "Foni Sa'diy yo'lida bir necha qadam urgani uchun ham so'zlari sut va shakar ko'shilganidek shirin bo'ldi". Albatga, tasavvuf adabiyoti namoyandasi sifatida Sa'diy so'fiyona she'rlar ham yozgan ("Guliston"ning ikkinchi bobida nyuir bolaligida otasi bilan so'fiylar majlisida bo'lganligi to'g'risida hikoya qiladp). Lekin ularda ham, Navoiy ta'biri bilan aytganda, haqiqiy va majoziy muhabbatni mahorat bilan omuxta qilib yuborgan. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida keltirilishicha, Sa'diy Sheroziyga Xizr nazar qilgan. Mashhur tariqat piri Nizomiddin Avliyoga qo'l berib, uning rahbarligida riyoziat bosqichlarini bosib o'tayotgan Amir Xusrav Dehlaviy bir kecha tushida Xizr alayhissalomni ko'rib, undan o'z og'ziga muborak tupugipp solib qo'yishini o'tinadi. Lekin Xizr aytadiki: "Bu davlat sendan avval Sa'diyga muyassar bo'ldi!"

Sharq mumtoz so'z san'ati muxlislari e'tiboriga havola qilinayotgan Sa'diy Sheroziy ijodidan dastalangan ushbu to'plamga zabardast fors-tojik shoiri asarlarining o'zbekcha tarjimalari ichidan eng yaxshilari tanlab olindi. Ma'lumki, nasr va nazm aralash xalqona uyelubda yozilgani, rivoyat, naql, hikmatga boyligi bilan katta shuhrat qozongan "Guliston" asari o'zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu asarni birinchi marta 1390B.T. 1391 yillarda XIV asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi "Guliston bit-turkiy" nomi bilan Misrda tarjima qilgan.

Sayfi Saroyi do'stlari va maslakdoshlarining da'vatiga ko'ra, "Guliston"ni o'zbek tilining qinchoq shevasida o'giradi. U asarning aslini aytarli saqlab qolgan, ayni paytda, asliyatdan bir qadar chekingan. Bu davr omili bilan ham bog'liq: o'rta asrlarda tarjimaga birmuncha erkin yondashilgan - tarjimonning asarni qisqartirish, o'zgartirish, hatto unga qo'shimcha qilishi mumkin bo'lgan. Sayfi Saroyi ham tarjima jarayonida "Guliston"dagn ayrim parchalarni tushirib qoldiradi, ba'zi she'rlarni ijodiy qayta ishlaydi, o'zining va zamondosh shoirlarning ba'zi she'rlarini kiritadi, ayrimlarini tarjima qilmay, o'zicha qoldiradi. Shunga qaramay, tarjima muvaffaqiyatli chiqqan hamda asrlar mobaynida turkiy xalqlarni Sa'diy ijodn bilan tanishtirish va donishmand shoirning ma'naviy-axloqiy qarashlarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan.

XIX asrda "Guliston" Xiva xoni Muhammad Rahimxon II - Feruz topshirig'i bilan zabardast shoir va mohir mugarjim Muhammadrizo Ogahiy tomonidan ikkinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Asarni birmuncha qisqartirib tarjima qilgani, chunonchi, 187 hikoyatdan 25 tasini qoldirib ketgani, 1000 ga yaqin she'riy parchalardan 522 baytini she'r bilan o'girib, qolganini nasrlashtirgani, bir qancha arabiy matnlarni o'zbekchalashtirmaganiga qaramay, "Ogahiy Sa'diy Sheroziy hikoyatlarining badiiy tarovati, ruhini o'quvchiga yetkazadi. Sa'diy saj'lari, ixcham, lekin lo'nda aforistik jumlalarda tuzilgan nasri, qit'a va ruboiylari, serohang, jarangdor ifodalari Ogahiy tarjimasida o'zbekcha nafosat bilan aks etgan" (N.Komilov).

"Guliston"ning uchinchi tarjimasi toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li qalamiga mansub bo'lib, u "Shavqi Guliston" deb atalgan. "Murodxo'ja madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so'z va iboratlarini

sharhlagan va forsiy originalini ham qo'shib, "G'ulomiya" matbaasida nashr ettiradi" (1909). Lekin so'zma-so'z tarjima prinsipi ustunligi va badiiy saviyasi baland bo'lmaganligi tufayli bu tarjima uncha shuhrat qozonmagan.

1968 yili "Guliston"ning to'rtinchi tarjimasini bosilib chiqdi. Asardagi she'rlarni G'afur G'ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o'zbekchalashtirishgan. Bu "Guliston"ni hozirgi davr o'quvchisiga tanishtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

"Bo'ston" asari avval Chustiy, keyin Sh. Shomuhamedov tomonidan tarjima qilingan bo'lsa-da, bu tarjimalarning har ikkalasi ham to'liq emas. Asar qisqartirilib, zamonga moslab. diniy-tasavvufiy ruhdagi qismlardan xoli qilingan holda o'zbekchaga o'girilgan. Lekin bir-biridan go'zal va mazmunli hikoyatlar, xalq maqol-matallari darajasidagi teran hikmatlar asar haqida to'liq tasavvur beradi va har qanday o'quvchini o'zpga jalb qiladi.

Biz mazkur to'plamni tartib berishda bu tarjimalarni barchasidan foydalanishga harakat qildik. Tabiiyki, Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalari ichidan bugungi o'quvchiga nisbatan tushunarliroqlar shis tanladik, Chunki tarjima harchand yaxshi chiqqan bo'lmasin, unda qadimiy turkiy so'zlar yoki arab-fors so'zlari nisbati ko'p bo'lsa, hozirgi o'quvchi uni tushunishda qiynaladi.

Albatta, Sa'diy Sheroziyga o'xshagan jahon adabiyoti zabardast namoyandalari dardona asarlariga har bir davrning o'z talabi, har bir o'quvchining o'z ehtiyoji bo'ladi. Bu yangi tarjimalar va nashrlarni zarur qilib qo'yadi. Qo'lingizdagi to'plam ana shu talab va ehtiyoj natijasi o'laroq maydonga keldi. Agar u ta'bingizga muvofiq tushib, qalbingizda aks sado bersa, biz o'z vazifamizni uddalagan bo'lamiz.

Ergash Ochilov

G'azallar

Shoislom Shomuhamedov tarjimalari

Ey sorbon, ohista yur, oromi jonim boradur,
Tandin dilu jonim olib, ul dilsitonim boradur.
Qolurmumen olis bo'lib, bechorayu ma'yus bo'lib,
Qalbim firoq tig'i tilib, to ustuxonim boradur.
Derdim qilib nayrang-fusun, sirrim etay pinhop bu kun,
Pinhon bo'lolmas chunki xunh dildan nihonim boradur.
Sarkash nigorimdan judo, ayshu qarorim bebaqo.
Manqalda otashdek qaro dud birla qonim boradur.
Cheksam-da zulm bedodini, ham va'dalar barbodini,
Ko'ksimda tutgum yodini, toki zabonim boradur.
To'xtat bir oz, ey sorbon, karvonni qilma tez chunon,
Sarvi ravon ishqida jon - ruhi ravonim boradur.
Qayt, ko'zlarimga qo'y oyoq, ey dildirib, ketma yiroq,
Ey nozanin, ko'kka bu choq ohu fig'onim boradur!
To subhki, uyqu bilmadim, nosihni ko'zga ilmadim,
Ammo ataylab qilmadim - qo'ldan inonim boradur.
Sabr ayla, der, menga jaras, yor vaslini qilma havas,
Bu menga loyiq ish emas, chun xonumonim boradur.
Unday chiqar jonu bu tan, sabil qolur deb ko'p suxan,
Tinglagan erdim, endi man ko'rdimki jonim boradur.
Qilma fig'on, ey Sa'diyo, hech arzimas ul bevafo,
Toqatni qo'ymas bu jafu, aqlu imonim boradur.

* * *

Senmisan, yo bog'ima sarvi ravonim keldimu?
Yo malak odamsifat bo'lgan zamonim keldimu?
Ud tutatmoq bo'ldimu bo'ston aro do'stlar ishi,
Yoki yorim keldi, yo mushk korvonim keldimu?
Sorbon, solgil nazar zebo nigorim husniga,
Gar haridor bo'lsa, tutdim qo'lda jonim, keldimu?
Endi hech dardu alam birla o'tirmam uyda man,
Keldimu bozorga gul, javlonli onim keldimu?
Garchi sen oning sanam tarzini inkor aylasang,
Men hamon ko'zim nigoron - jonajonim keldimu?
Ko'zlarim gar qayta ko'rmoqda nigorim chehrasin,
Vah, magarkim murda tanga qayta jonim keldimu?!
Harnakim, mendan ketishga hozir erdi bog'ladi,
Barcha hayrat etdi yo oromijonim keldimu?
Nay agar ozodalar majlisi ichra nolavash,
Zaxmidindur nolasi, ul jon fig'onim keldimu?
Uyqudek xummor ko'zingdan ajragach bir lahza, ayt,
Uyqusiz ko'zlarga xobi nogahonim keldimu?
Nola qilma, Sa'diyo, jabr etsa yoring, himmat et,
Yor jabri yorga o'tgay, soyabonim keldimu?!

* * *

Do'stlarimning suhbatini xuddi olam jannati,
Yo jahannamning o'ti nomunosib suhbatini.
Gar azizlar suhbatini birla o'tsa bir nafas,
Shul nafasni bil hayot hosili ham sharbatini.
Ko'z, quloq, til bo'lsa ham, barcha odam bo'lmagay,
Qancha ko'rdim devu jin - misli odam surati.
Xush chiroydan ham bashar husnn ortar-ku, faqat -
Odam o'lg'ay shul kishi bo'lsa go'zal siyrati.
Men hasadni bilmasam, hasratini bilmas edim,
Hasad o'tin soladi yor qo'shilgan fursati.
Kim bahorni ko'rmasa ko'kalamzorga chiqib,
Robia' oyida ham bor muharram qimmatini.
Ko'zi doimo go'zal chehrada dil bo'lsa tosh,
Nasihatga ko'nmagay, dil to'liq jaholati.

Kezdim olam yuzini, topmay orom asarin,
Bo'lsa faqat sevgili yor quchog'in rohati.
Ahli dillar tomiridan toza xun oqsa agar,
Do'st visoli malhami, dori topgan illati.
Molu duiyo yaxshidur, tan sharifu jon aziz,
Barchasidan ham baland yori vafodor hurmati!
Mumsik odam kulfati - molu dunyo tashvishi,
Do'st-la shodon o'tadi Sa'diyni har soati.

* * *

Kumush, zar bo'lsa sochgum, xonumonim,
Bo'sang orzusiga qurbon bu jonim.
Agar ertan meni zindon eturlar,
Bu naqd oltin daqiqa bo'stonim.
Jahon o'tkinchidir - yo'q e'tiqodim,
Dilim komi o'zing, jonu jahonim.
Etaging gulga to'lg'uzgum bu bog'da,
Agar lutf etsa menga bog'bonim.
Humoyun baxtini qaydan bilay men,
Uzoq Simurg' inidin oshiyonim.
Sen ishq darsini berding shahrimizga,
Eshit sharhin, kel, aytay, nuqtadonim.
G'anim ko'p dilda-yu, dastingdan ammo,
Huzuringda tutilgay til-zabonim.
Men aytay, mayli, bilsin dushmanu do'st,
Bo'lib mast, oshkor barcha nihonim.
Agar istar esang, ey sarvi siymin,
To'karsan, roziman ming bora, qonim.
Dema: Sa'diy, murodingdan ko'ngil uz,
Bo'libsan toshbag'ir, ey mehribonim!
Tirikman to xayoling dilda doim,
Agar o'tsam, o'zing oromi jonim.

* * *

Kim labing tishlab ketibdir, ey sanam?
Kim ko'ribdir bog'i lutfingdin karam?
Umrin ichra ne totibman eng laziz,
Eng shirin hosilni uzmish qay odam?
Obi hayvon chashmasi senga halol,
Chekmish Iskandar nechuk mehnat, alam.
Bu qizil may yoki inson qonidir,
Yo siyoh tomgan kishi chakmoni nam?
Jumlaga ulfatsan-u, mendan judo,
Na gunoh senda, dahr kori bu ham.
Ko'p turib qolmas yetilgan meva hech,
Xalq qo'yar pishgan shirin sori qadam.
Ming shukr, bir bor qulab tushmish devol,
Qayta bu bog'ni birov ko'rmas shinam.

Gul u hafta ochmagandi og'zini,
Pardasin yel yirtidi bul kun subhidam.
Qilmam endi sharbatin ichmak havas
Bul idishdan sharbat ichmish o'zga ham.
Sa'diy, o'zga ishq eshigin qoq, bu bog' -
Ichra o'tlabdir suruv qo'yilar bu dam.

* * *

Yuzlaring mendin o'girma oftob,
Begunoh qatl etmog'ingda yo'q savob.
Tunda tushda sen quchog'imga kirib,
Kelganingda ne xush erdi uyqu - xob.
Ichda otash ko'zlarimda suv bilan,
Nisfi ho'l, nisfi quruqman, ne azob.
Kipriging paykoniga jonim nishon,
Tirnog'ing pardozi qonim xizob.
U so'z aytar bo'lsa, dillardir asir,
U separ tuz - odam ahlidir kabob.
Kim kirib kelsa, u deb qildim gumon,
Tashna miskin suv debon ko'rgay sarob.
Hayf-ku bunday badan uzra libos,
Zulm-ku bunday go'zal yuzga niqob!
Subhdin to tonggacha yuz berkitib,
Aylama oy birla oftobni itob.
Sa'diyo, yoring barin tutmak esang,
Top chidam, bursa qulog'ing naq rubob.

* * *

Zamon g'amidan desam hikayat,
Qissam cho'zilardi benihoyat.
Ming yillik umr kerak bo'lardi,
Mingdan birini demakka albat.
Ahvolim aytar ko'zimning o'zi,
O'zimga so'zlash emasdir odat.
Holimga majlis dili kuyardi,
Yor firoqidan boshlasam suhbat.
Chaman bulbuli boshlaydi fig'on,
Aytsam yor boshga solganin furqat.
Tongda icharlar qayda qolishdi,
Xumorim aytib, qilay ziyofat.
Sa'diy beqaror dilin dardini,
Beqaror dilga aytsin oqibat.
Hech kim qayrilib boqmas men tomon,
Ayyom g'amida desam shikoyat.

* * *

Do'stsiz yotmoq badanda,
Misli murda kafanda.
Sensiz bo'lurmi shodlik,
Ruh bo'lmasa badanda?
Sabo bo'stonda ko'rmas,
Sen kabi sarv chamanda.
Kun chiqqandek yaqodan
Yashnar yuz pirahanda.
Sochlaring halqa-halqa,
Balo bor har shikanda.
Ishq ko'yi bozorida
Qiyatsız jon bu tanda.
Yeti iqlim yasholmas
Sa'diysiz anjumanda.
Yo diling xora toshdir,
Yo men uzoq ekan-da.

Ergash Ochilov tarjimalari

* * *

Bu go'zal yuzlarga boqmaslik juda mushkil emish,
Kim nasihat qilsa menga, pandi behosil emish.
Husn shohidan agarchi dilda ming qo'rquv yashar,
Tongda yorni ko'rgan oshiq baxtga vosil emish.
Kulgichi chohidagi bechoralarning holati
Ul malaklardekki, Bobul chohida manzil emish.
Bundan avval zuhdu taqvoni da'vo qilgan edim,
Endi bildim: neki da'vo ayladim, botil emish.
Barchaning nazdida garchi o'lim elchisi zahar,
Yor zahar bersa ham, ammo, daf'i dardi dil emish.
Yor ko'nidan oyoq tortib ketolmayman sira,
Do'stlar, ma'zur tuting, ko'nglim shunga moyil emish.
Sabr qil, devona deb hukm etsa oqillar seni,
Bermasa kim jonni jononga, nechuk oqil emish?
Kufr deb bilsa go'zallar yuziga boqmoqni kim,
Ul faqat suvratga mastu ma'nidan g'ofil emish.
Sorbon, ohista yur, karvon ila jonim borar,
Yor mahofa ustida, ostida go'yo dil emish.
Tushsa hijron o'rtamizga garchi yuz manzilda ham,
U shirin jon ichra tushgan bir ajib manzil emish.
Do'st bo'ling, Sa'diy, qiyinmas har nechuk inson bilan,
Bog'lanib qolsang va lekin, dil uzish mushkil emish.

* * *

Biz ushbu shaqarda xoru bu elda faqir,
Bandingga giriftormiz-u, domingga asir.
Olam eshigi elga ochiq, bizga yopiq,
Zulfing seni bo'ynimizdagi zanjir, axir!
Men sendan uzolmagayman-ey asti ko'zim,
Sen ham nazaringni uzma, ey qomati hur!
Nazdingda oshiqlar ichida yaxshisi yo'q,
Ammo men uchun jahonda yo'q senga nazir!
Orzum edi: bir kun senga jonim beraman!
Bildim: ko'rasan hattoki jonni-da haqir.
Men barcha bu so'zlarni dedim dard zo'ridan,
Chiqmas hidi o'tga solmasa chunki abir.
Har qancha yashirmasin parishonligini,
Oshiq yuzi fosh etar sirini baribir.
Bu keksashshg ishqiq seni hayratga solar,
Bu kekxa dil o'gidan bo'l, ey yosh, hazir!
Ko'z Ka'basi qoshinshi kamonxonasidir,
Uzmaydi nigoh tig' urib, etsang-da basir.
Nodon kishilar menga nasihat qilishar.
Oshiqqa nasihat sira bo'lmaydi zarur.
Husn ahli yaralmishdir azal ko'rmoq uchun,
Gar ko'rmasa, Sa'diy, ne kerak ko'zga nur?!

* * *

Go'zal yor zulfi domiga giriftormanmi men tanho?
Kim oshiq bir diloromga - uning boshida shu savdo!
Go'zal yor vasliga yetgan chamanga qilmagay parvo,
Go'zal yor qaddiga shaydo chamanning sarvi ham hatto!
Meni oshig'u shaydo deb bilarmish ul paripaykar,
Qayerdan bilsnn oshiq qolini o'z husniga shaydo?
Bilarman: ohu faryodim yetar, lekin qachon qilgay -
Bu ishq iqlimi quliga u husn eli shohi parvo?
Shirinning vasli Farhodga muyassar bo'lmadi garchand,
Shirin ishqida shirin jonini topshirdi-ku ammo?
Aql istarki, ishq ustidan o'z hukmini o'tkazsin
Va lekin teng kelolmas kuchliga ojiz kishi aslo.
Menga avval odamlar ta'nasi botardi ko'p og'ir,
Cho'chitmas endi yomg'ir, chunki bo'ldi manzilim daryo.
Agar xohla vafo ayla, jafo qilsang da zorim yo'q,
Men uchun sendan o'zga narsada qolgan emas ma'no.
Ishonmayman, sinab Sa'diyni shuncha, tashlasang-ketsang,

Yetishgach soyai lutfing, kerakmas menga bu dunyo!
Vafo suvi bilan xoknmni qorgan erdilar asli,
Sabo qayga olib borsa, vafo hidi bo'lar paydo.

* * *

Dilim to bo'ldi oshiq - bir nafas beg'am topolmasman,
Bu olamda dili g'amsiz biror odam topolmasman.
Yonimda hamdamim yo'q - bir nafas xurram nafas olmam,
Nafas jonim bilan chiqsin, agar hamdam topolmasman.
Dilimda bir sirim bordir ko'zim qoni aro o'sgan,
Bu sirni kimga aytay men - biror mahram topolmasman?
Qanoat ayladim dardiga - bir darmon ko'rinmaydir,
Chidarman zaxmiga, chunki biror malxam topolmasman.
Agar kim bo'lmasa oshiq, xushu xursand u olamda,
Men oshiq bo'ldim-u, ko'nglimni hech xurram topolmasman.
To'kilgan ko'z yoshim birlan to'kildi obro'yim ham,
Ko'zim yoshidan o'zga yig'labon shabnam topolmasman.
Yetar, Sa'diy, damingni ichga yut, qo'ldan ketibdir ish,
Bo'lishga yor bilan birga biror dam ham topolmasman.

* * *

Zamon g'amigami chiday yo yor firog'ini chekay?
Dilimda sabr qolmadi-ku: qaysi dog'ini chekay?
Na quvvatim yetar ketay desam ko'ngil uzib uzoq,
Na qudratim bir o'pibon bo'sa titrog'ini chekay.
Na qo'li bor toqatning-u, aql yengiga tiqay desam,
Na aqlning oyog'i - bir qaror yarog'ini chekay.
Jahonda do'st jafosidan qoniga tashna kimsa yo'q,
Bir umr do'stning men-ey jafosi tog'ini chekay.
G'anim jafosiga chidar chidamli bo'lsa kim agar,
Chidamli bo'la-yu, mudom shu yor firog'ini chekay.

* * *

Tong yeli, o'tarsan sanam ostonasidan,
O'tgan kabi jannat bog'i - koshonasidan!
Ishq dardi yengibdi seni - yo'q o'zga sabab,
Bezor tog'u dasht sen kabi devonasidan!
Bir bor nazaring yor yuziga tushsa agar,
Dunyo to'lar erdi bu ishq afsonasidan!
Qo'ldan-ku chiqarmagayman yor etagini,
Mehrini darig' tutsa-da parvonasidan.
Dildan seni yoding sira ketmaydi, sanam,
Bilsang-da meni dahr eli begonasidan.
Yozilmasa ko'nglingni g'ubori, na qilay?
Bo'lsam bexabar murodi pinhonasidan.
O'tsang-da yonimdan qiyo boqmading-ey,
Qildingmi ibo dilimni vayronasidan?
Sen sho'xu pshrinso'zu huru sarvu suman,
Hayratda o'zi sen kabi jononasidan!
To'r tashlama kimga - o'sha tushdi to'ringga,
Ursang qilich, ichdi ajal paymonasidan.
Fursat to'foni o'chirolmaydi sira,
Sa'diy so'zi she'r mulkini durdonasidan.

* * *

Ishqbozlikni, axir, dunyoga men keltirmadim,
Bu gunohga yoki men ilk martaba qo'l urmadim.
Bexabardirsan mudom oshufta ko'nglim holidap,
Men-da ko'nglimning g'amini senga hech bildirmadim.
Man' etib menga muhabbatni, malomat qilma ko'p,
Men muhabbat jomini ichganda seni ko'rmadim.
Qo'y meni-yu, o'z g'aming tashvishini qil, chunki men -
Yorga dil bergan kunimdan jon g'amida yurmadim.
Ahd qildimki, etay jonimni yo'lingga fido,

Ahdim ustidan chiqarman - bexuda so'z bermadim.
Men jahondan yuz o'girdim - bog'ladim vaslingga dil,
Ko'z tugib lutfingga, ummid gulini so'ldirmadim.
Sen meni borgan sari husningga aylaysan asir,
Izlaring izlab jahonda qancha men charx urmadim!
To'tiyo bo'lsin oyog'ingning g'ubori ko'zima,
Bu jahonda to vujudim gardini qoldirmadim.
Qo'llarim Mahsharda ham qo'yib yubormas etaging,
To degaysan ko'nglini Sa'diyni nega so'rmadim?

* * *

Bu alif qadni ko'ringkim, nima raftor qiladi?
Bu shakar labni ko'ringkim, nima guftor qiladi?
Ixtiyorini olib, telba qilar xush ahlini,
Har qachonkim iltifot ul pariruxsor qiladi.
Mastu xummor ko'zlari sho'xligu dilbarlik etib,
Barcha hushyor kishilar qasdiga ozor qiladi.
Biz jahondai yuz o'girdik shu go'zal orzusida,
Bevafo yor bo'lsa, qahriga giriftor qiladi.
Bexabar ishq ahlining holidan zuhd ahli azal,
Qayda gofil bo'lsa, oqildan o'sha or qiladi.
Olishar sabru qarorimni mudom oy yuzlilar,
Bu jihatdan Sa'diy o'z aybini iqror qiladi.
Endi boqmayman go'zallar yuziga aslo deya
Qilsa da yuz bora tavba, yana bekor qiladi.

* * *

Men tushdim-u bandingga qachon, ozodman!
Gar shohman-u, senga qulligimdan shodman!
Bor dardi jahonning menga qilmas ta'sir,
Chehrangni ko'rish bilan dili obodman!
Xurram o'sha kun - jonni senga topshirsam,
Farhod ila Majnunga, axir, avlodman!
Qoshingda makon tutdim-u, berdim ko'ngil,
Do'stlik uyini qilolmadim bunyod man.
Bilsang, nima xohishim mening vaslingdan:
O'zlikni qilolsam seni deb barbod man!
Qay kunki, dilim olding-u, mahbub bo'lding,
Ushshoqqa vafo bobida men ustodman!
Qaddingni xayoli toki ko'zim ichra,
Sarv bo'lsa xaloyiq, men sarvi ozodman!
Bu tashbeh agar mosmas: shirinso'zsankim,
Bu borada Shirinsan-u, men Farhodman!
Davlat qani - to'ksam qadamingga qumdek?
Men do'mbiradek ichi havoyu bodman.
Bu charxu falak bo'ldi mudom qasdimda,
Tortmas qo'lini to bo'lmasam barbod man.
Sheroz siqiltirdi ko'nglimni juda,
Qilsam bo'lar endi safari Bag'dod man.
Ko'kka yetar, ammo Sohibi devonga -
Yetmas sira ursam-da necha faryod man!
Sa'diy, vatanni sevish iymoidandir,
Lek o'lma ochingdan deya: "Men zuryodman!"

* * *

Bu banda mudom fidoi joning.
Oson menga ushbu imtihoning.
Joningga qasamkim, yega olmas
Bir tola sochingga nigaroning.
Bir kimsaga yo'q agarchi mehring,
Barcha bu jahonda mehriboning.
Boshim qadamingga, ey sitamgar,
Bo'lsin fido istagan zamoning!
Ming jahd ila senga yeta olmam,
Qo'l yetmas - uzoqdadir makoning.

Har lahza xayoling menga hamroh,
Yet o'zga g'amu unut gumoning.
Nodon kishilar qadingni sarvga
Tashbeh etib oshirar fig'oning.
Bu kiprigu qoshki, senda mavjud,
Dil ovida ne kerak kamoning?
Sa'diy vujudi zaifligidan
Qildek belicha emish, ishoning!
So'z degali ochmasang og'izni,
Pinhon edi barchadan dahoning.
Bundan-da shirin so'z bo'lmagaydir,
So'zlar uni shu shirin zaboning.

* * *

Saboda bo'lsa zulfining hidi nozli nigorimni,
Quvonchu rohati u xasta ko'nglim - beqarorimni.
Umidim borki, umrim baxti yotmas uyquda mangu,
O'ngimda bo'lmasa, tushimda quchgayman-ku yorimni.
Agar bilsam, sitamgar mahbuba jonimga qasd etgay,
Fido yo'liga qilgayman shu joni bemadorimni.
Bilarman: arzimas tuhfa unga mening aziz jonim,
Nachora, baxsh etarman men qo'limda har na borimni!
Bu xil muomala hech ham emasdir ixtiyorimda,
Azaldan yor rizosi aylamish band ixtiyorimni.
Jafosidan agar ko'nglimda bo'lsa yuz jarohat ham
Va lekin bandasiman to hanuz shul g'amgusorimni.
O'rin yo'q ko'nglim ichra o'zganing ishq uchun zarra,
O'zingdan o'zga aslo jalb etolmas e'tiborimni!
Ko'ngilda na guliston zavqiyu na lolazor shavqi,
Ko'rarman yor yuzida har nafas turfa bahorimni!
Sening ishqingda kuydi, ey sitamgar, ko'ngli Sa'diyning,
Muruvvat etmadnng bir bor ko'ray deb intizorimni.
Murodimning ushalmasligi bo'lsa gar murod senga,
Murodi sen bilan bir xil ekan ko'zi xumorimni.

* * *

Qo'limdan kelmas aslo to sening yodingsiz o'ltirsam,
Hushim yo'qdir yuzingdan o'zganing ham yuzini ko'rsam.
Azaldan, angladim, rosti, talashdim Shirin ustida,
Ajab yo'q, misli Farhod yorga shirin jonni topshirsam.
Seni har narsadan ortiq sevarman ushbu olamda,
Agar aqlimda nuqson-u, dinimda bir ziyon ko'rsam!
Kumushdek oq, latif qo'ling meni shamshirsiz o'ldirdi,
Ajab yo'q, qo'lga shamshir olsang-u, taslimga yuz bursam.
Ot, ey tong, senga mushtoqman, hademay kun yalov tikkay,
Hilol oldi Surayyodan bu yaldo tunini so'rsam.
Azal keldim-u borliqdan bu yo'qlik sahrosiga,
Umidim bor - kechirgaysan, bechoraman - dilim yorsam.
Bu ko'ngil misli sham' bo'lsin, tarahhum aylasnn menga.
Yonimda sham' kabi yongan kishi yo'q - sizga bildirsam.
Labing bir-biriga qovushmagay kulganda misli gum,
Ravomi unda men - bulbul butimor yanglig' o'ltirsam?
Raqib barmog'ini tishlaydi, Sa'diy, ko'zlaringni yum,
Guling hidlayman-u, bog'bon, lek uzmam, bog'ingga kirsam.

* * *

O'tar erdi hayotim xurramu xush,
Suyukli mahbubamni aylab og'ush.
Bo'lib mast ishqidan-u, vaslidan shod,
Dinu dunyoni qilgandim faromush.
Emas shirin labi ta'rifga muhtoj,
Zahar tutsa, qilardim bol kabi no'sh.
Adashtirdi meni lutfiyu husni:
Sadafmi yoki u yor ko'ksi emish?
Go'zal ruxsoru jonparvar so'zi deb,

Qulog'u ko'z bo'lishdir menga xohish.
Bu tun qanday qilib aylandi tongga?
Edim xushdan judo ko'rgan kabi tush.
Xato qildi azonida muazzin,
U ham mendek edimi mastu behush?
Bu ishqni sir tutishga yetmadi sabr,
Kuchaydi do'stu dushman ichra mish-mish.
Agar ko'rgan esang, Sa'diy, tushingda,
Kecha o'tdi, bugun chiqarma tovush!
Agar qashshoq ko'rib qolsa xazina,
Qilar hirs vasvasa, turmaydi xomush.

Ruboiylar
- Ergash Ochilov tarjimalari -

Ko'nglim o'tidan ichimdagi qon qaynar,
Shundan meni el telba debon gap o'ynar.
Kim ko'rsa edi Layli yuzini bir bor,
Bilgay edi: Majnunni nima dard qiynar?

* * *

Vah-vah, na qiyomat bu kelishgan qomat!
Yo'q sarvda hatto qomatingga nisbat!
Boshlandi qiyomat, demasin, marhumlar,
Hech o'tma mozor qoshidan, ey mohtal'at!

* * *

Buzgancha vafo shartini ul jonona,
Tark ayladi - ko'nglimni qilib vayrona.
Dedi: "Meni uyqungda ko'rarsan endi!"
Dedim: "Menga sensiz uyqudir begona!"

* * *

Shohdir o'sha bevafo ko'ngil taxtimda,
Sham' elga, biroq alangadir raxtimda.
Ul barcha bilan o'ng-u, faqat men ila ters,
Yo'q aybi uning, gunoh bu sho'r baxtimda!

* * *

Tunlar o'tadi - uyqu qochib ko'zimdan,
Ko'nglimni uzolmagum dilafro'zimdan.
O'z qo'li bilan to'ksa edi qonimni,
O'lsam edi rozi bo'lib o'z-o'zimdan.

* * *

Sabrim tugadi - qildi ko'ngil yorni havas,
Jonimni oyog'i ostiga tashla-yu, bas,
Ming ont ichay el oldida boshimni urib:
To'kkan kishi qonimni gunohkor emas!

* * *

Yor ishq ko'ngilni bir nafas tark etmas,
Dardini ko'tarmoqqa-da sabri yetmas.
Yo gulni tikoniga sabr aylamas-u.
Yo guldan umidini uzib-da ketmas.

* * *

Kelganda bahor havosi olam na go'zal!
Qush nag'masi, gul g'unchasi, shabnam na go'zal!

Nay nolasiga chang esa hamdam na go'zal!
Yor bo'lsa yoningda yana mahram na go'zal!

* * *

Yor bo'lsa quchog'imda kechamdir kunduz.
Yor birla o'tar kunim misoli Navro'z!
O'tdi kecha, indinni kutib o'ltirma,
Har qancha bugunni zavqini sursang oz!

* * *

Mehmon bu kecha menga o'shal dilafro'z,
Baxtinga raqiblar arzigay qilsa ko'z.
Sham' o'chsin-u, oy botsin - o'shal nozli sanam
Ko'ynimda ekan, kecham misoli kunduz!

* * *

Sarv olgan uning qomatidan andoza,
Og'zidan o'g'irlagan bahr durri toza.
Har qayda binafshani ko'rib ayturman:
Sochi kabi ko'p buralma, qilma noz-a!

* * *

Tun yo'qki, ko'zim yuzingga orzumand emas,
Jonim-da kelib labimga senga band emas.
Sen o'zgaga dil bersang ham, men sendan
Uzmasman umid - hech kim senga monand emas!

* * *

Umrinning umid qushi meni tark etdi,
Sarxush kechalar oxiri boshga yetdi.
Har lahzasi jonga teng bo'lgan umrim,
Afsuski, behuda qo'limdan ketdi...

* * *

"Bir kecha qilay, - degan eding, - ko'ngling shod,
Bu barcha g'amu azoblarimdan ozod".
O'tdi o'sha kundan beri qancha tunlar,
Lekin o'sha va'dangni hech etmaysan yod!

* * *

Sen har nima kiysang, o'sha zebo bo'ladi!
Bo'z bo'lsa-da u, atlasu kimxo bo'ladi!
Bir marta yuzingni ko'rsa har kimsa agar,
U endi qiyomatgacha shaydo bo'ladi!

* * *

Ko'ngliga zamona har necha ursa tikan,
Hamma ham urib oh, sochini yulmas ekan.
Ko'plarni dili xuddi momoqaldiroq
Yig'laydi-yu, ammo yengadi kulgi bilan.

* * *

Har qanchaki sarv bo'lsa agar olamda,
Yor qomati qoshida o'shal mulzam-da.
Mahliyo bo'lma ko'p baland qadlarga,
Bo'y qancha uzun, aql o'shancha kam-da!

* * *

Ko'zdan yashirin, dilda ayon - holing ne?
Lab uzra tabassum, dili qon - qoling ne?
Bir marta vido' aylamay oshiqclariga,
Ey tutguchi yuksakda makon - holing ne?

* * *

Har qanday orzu bo'lsa, bir kun yetasan!
Bas, behuda g'am chekmaki, qarib ketasan.
Dushman-ku jafo qilsa, bo'lishgay do'sting,
Do'stim deganing dushman chiqsa, netasan?!

* * *

Har bir tosh agar la'li Badaxshon bo'ladi,
Bas, la'l ila tosh bahosi yakson bo'ladi.
Gar barcha quduqda obi hayvon bo'ladi,
Topmoqlik uni hammaga oson bo'ladi.

* * *

Cholg'uvchi, o'shal yordan payg'om bergil!
Oshiqqa bir ishva bilan orom bergil!
Soqiy, vafo mayi to'la jom bergil!
Rashk etsa hasadgo'y, degil: "Jon bergil!"

* * *

Gul rangli sharob tila agar odam esang!
Tursin taralib nolai nay, nag'may chang!
Ko'knori ichib, bir yerda tosh qotgandan,
Toshni qo'shib ich ko'knoriga, ey holi tang!

* * *

Sen, yaxshisi, dil zaxmiga bir malham qo'y!
G'amxo'rliqi elni behuda, erkam, qo'y!
O'ldir meni o'z qo'ling bilan - o'ldirsang.
Dushman qo'lga topshirma hech ham, qo'y!

* * *

Bu dunyo muhabbatini dildan yulaman!
Ming ne'matini bir arpaga teng bilaman!
Xar qanchaki bunda yangiman, zavq bilan
Bu ko'hna jahonda yangi guldek kulaman!

* * *

Men bandasi ul kimsanikim, dil olgay,
Yo boshqa birovni o'zi sevib qolgay.
Kim o'zganing oshig'i yo ma'shug'i emas,
Ko'ziga uning, yaxshisi, tuproq to'lgay...

* * *

Yo'q o'zga iloj - tikka boray xonasiga!
Xoh shamshiru xoh tig' ursin devonasiga!
Tutsa qo'lini - mangu vafodori bo'lay
Quvsa - o'layin bosh qo'yib ostonasiga!

* * *

Bu kecha cho'zildi ko'p - oqarmay ketdi,
Qushlar-da ovozi chiqarmay ketdi.
Men tun bo'yi qoqmay mija toqqa boqaman:
Tog' tongni quchog'idan chiqarmay ketdi...

* * *

Yuzing qoshida dunyo gulistonlari mot!
Baxsh etgusi vasling kishiga mangu hayot!
Bir qatra tomiz ikki labingdan yerga,
O'lik tabiatga jon kirsin shu zahot!

* * *

Dushman eli jabrini oshirsa g'oyat,
Diltang bo'lma, bor bu sinovda hikmat:
Har kimki chekar ta'na-malomat behad,
Yor shafqatpga bo'lsa sazovor shoyad...

* * *

Ming ta'na-malomat qilishar ortimdan,
Yolg'on ila tuhmat qilishar ortimdan.
Dushman so'zi deb kechib bo'larmi do'stdan?
Mayli, necha g'iybat qilishar ortimdan.

* * *

Hayhot! Ochilib ulgurmay gul so'lsa!
Koshki ochilib, tamom surguga to'lsa!
Ko'nglida umidi ko'p edi sho'rlikning,
Ne foyda: umid ko'p-u, umr oz bo'lsa!

* * *

Ey tong yeli, sen uzoq safar aylagasen,
Ul yor eshigidan-da guzar aylagasen.
Bizdan unga sen duoyu xizmat yetkaz.
So'r: "Do'stlardan qachon xabar aylagasen?"

* * *

Mard aylar-u may kishini, shodlikka to'liq,
Ko'knori mijozi-chi, sovuq hamda quruq.
(y yuzli sanamni top-u, ich alvon may.
Kim ko'p ko'k yesa, rangi bo'lar sap-sariq.

* * *

Bechora kishilar senga maftun bo'ladi,
Vaslingga yetolmay zoru dilxun bo'ladi.
Bir lahza seningsiz toqati toq kishining
Har lahza seningsiz ahvoli chun bo'ladi?

* * *

Gar to'kkali qonimni sanam aylasa ahd,
Qilmam sira jonimni xalos etgali jahd.
"Mendan ne gunoh o'tdiki, yor bo'ldi xafa?"
Qiyinar meni shu tuyg'u, shu qayg'u hama vaqt...

* * *

Har kimsaga kimki e'tibor etgusidir,
Orif nazarida o'sha nast ketgusidir.
Qozi ikki shohid oldida fatvo berar,
Ishq yo'lida bir shohid o'zi yetgusidir.

* * *

Ko'nglim yorishar faqat shu yor tufayli,
Chiroyli emas, der uni dushman xayli.
Yotlar ko'ziga xunuk ko'rinsin, mayli,

Tengi yo'q uning menga misoli Layli.

* * *

Ishq ahli tabibi, bir nafas o'ltirsang,
Ishqingda bu xastalarni holin so'rsang.
Farhodsifat senga agar oshiqman,
Sen chunki Shiripsan - sababini so'rsang.

* * *

Yer davlatu baxtu kulsa taqdir bir zum,
Boshimni ostingga fpdo qilsaydim.
Oson menga bo'lmoq qadaming tuprog'i,
Lskin sen oyog'ingni qo'yarsanmi, gulim?

* * *

Qildik necha limmo-lim qadahni xoli,
Bo'lsaydi nasib, koshki, labingning boli.
Bosmish meni zo'r qayg'u: labingga yetmay,
O'lsam netaman? Asli shu oshiq holi...
Kiprik-la supurgum yor ostonasini.
Gap-so'z qilar el men kabi devonasini.
Ming hayda - oyog'ini ololmas tortib.
Ko'r holini pashshani - bol parvonasini!

* * *

Ko'zga boqib, surma emas, ko'rsa tikan,
Chaqmoq-da chaqib, o't ichra qolsa xirman,
Yov etsa asir, ursa yana qo'lga kishan.
Do'st o'rniga yaxshi ko'rganingdan dushman!

* * *

Bu lutfu karam sohibi go'zalga qara!
Pista kabi xandon bu labi la'lga qara!
Senga bu ilohiy husn sari yo'l yo'qdir,
Ko'zimdagi suv, suvrati yal-yalga qara!

* * *

Ko'r johu jalolu husnu rangni birga!
Odam dilini mengzama tosh, temirga.
Kim oshiq emas birovga yo unga birov,
Hech qilma havas bema'ni bu taqdirga!

* * *

Bir kuni qilib azmi sahro senu men,
Chiqsak bu shahardan asta tanho senu men.
Atrofda kishi bo'lmasa uchrashganda,
Shod bo'lamiz o'shanda, illo, senu men.

* * *

Ey yor, qayerdasan - quchog'im bo'm-bo'sh?
O'tgan kechagi lutfu karaming qani, xo'sh?
Har qancha ko'zimdan yashirin bo'lsang ham,
Ishqing yuragimda tunu kun urgusi jo'sh!

* * *

Odam degani shuncha bo'larmi zebo?
Yo sarv degan shuncha balandu barno?
Ko'ngli cho'kadi - kimni u tark etsa agar,
Ko'ngli o'sadi - kimga agar boqsa qiyo!

* * *

Ey, koshki, odamlar bu sanamni ko'rsa
Ham yonida o'ltirsa-yu, suhbat qursa,
Shaydosi bo'lib, atrofida charx ursa,
Oshiq holiga zora kulmay yursa.

* * *

Oshiqlik ishidan, istadim, tavba qilay.
Shoyad, bu ishq azobidan chetda bo'lay.
Har lahza biroq sabru qarorimni olib,
Borgan sari yaxshiroq ko'rinsang, ne qilay?!

* * *

Do'st aybini do'st yuziga kim solmasa, bas,
Bu chin do'stlik odati-yu rasmi emas.
Do'stlik shuki, do'sti to'g'ri yo'ldan toysa,
Do'stlik yuzidan do'stini do'stim demas.

* * *

Ey bulbuli xushlaxja, ovozing mumtoz,
Sarxushsan-u sevgidan, havasga xamroz.
Xavfim shuki, yetmaysan aziz yoringga,
Solmish seni to'rga chunki yoqimli ovoz.

* * *

Eldan uzilib, chetda nihon yig'layman,
To ko'kka yetar nola-fig'on yig'layman.
Qush orqasidan yig'lab qolgan boladek
O'tgan umrim uchun chunon yig'layman...

* * *

Ul do'stki, husnidan bo'lar paydo ko'z,
Gar qilmasa jilva husni, nopaydo ko'z.
Bir bor yuzini ko'rish uchun shaydo ko'z,
Ko'rishga yaramasa, nega naydo ko'z?!

* * *

Men qaddiga bandaman shu shamshodtanning!
Farhodiman-ey, shu Shirin sho'xu shangning!
Og'ziga quloq tutsa-da, so'z ma'nisiga
Yetmas faxmi la'lidan holi tangning!

* * *

Men izlamasam dilimga orom, na qilay?
Yor yo'lida menga bosh tikish kom, na qilay?
Derlar menga: "Qo'y u yorni - qoningni to'kar!"
Dil donasiga bo'lgan esa rom, na qilay?

* * *

Dedim: qaramayman yuziga dilbarni!
So'fiy kabi qilmayman kufr nshlarni!
Ko'rdimki, bu ish loyiq emas tab'imga,
Ming tavba qilib, yig'ib oldim hushlarni...

* * *

Bir lahza qarori yo'q seningsiz dilni,
Gar bo'lmasa gul yuzing, netarman gulni?

Derlarki: "Unutsang, bo'lasan xotirjam",
"Alhamdini unutsam-da, unutmam ulni!"

* * *

Ul yorki, ko'zim chashmasidan o'tg'ay yodi,
Shafqat qilishini so'rashim kutgay edi,
Dil-chi, yashirib dardini qon yutgay edi,
Bilsa go'yo sochi ila band etgay edi.

* * *

Ey yor, seningsiz menga bu dunyo tor,
Men yeen ila faxr etarman-u, sen esa or.
Do'stingman-u men, sen-chi, misoli agyor.
Bu dilmi va yo toshmi, axir, bo'l iqror?!

* * *

Gar bo'lsa muyassar menga vasl ayyomi,
Bosh ketsa-da, bas, ushalsa dilning komi.
Men bitta o'pardim u yarimta xolidan,
Rost bo'lsin, deb bitgani hijron shomi.

* * *

Gar yov mingta, senda-chi, yuz navkar bor,
O'zingni halok qilma sira, bo'l hushyor:
Gar kelsa qo'lingdan uni ayla tor-mor,
Gar ojiz esang, sulhdan uyalma zinhor.

* * *

Sen qon kabi jismimni tutibsan butkul,
Bosh ustiga, sendan nima kelsa, ey gul!
Biz yor g'amida tunni uladik tongga,
Maqtanma saharda turganingga, bulbul!

* * *

Yuv, deydi, menga hamma, yomon yordan qo'l,
Yaxshiligidai yomonligi mo'ldir, mo'l.
Har yaxshi-yomonu ranju rohat - neki bor,
Ma'qul bari kelsa nozli yordan bir yo'l...

* * *

Taqdir sira tadbir bilan o'zgarmas,
Ming intil-u-intilma - biror naf bermas.
Dedimki: borib sabr qilay birmuncha,
Sabr etgash, afsuski, men qodirmas.

* * *

Parvonadek ishqini etib ko'ksiga jo.
Ko'rsatmadi hech kim yoriga sidqu vafo.
Dushmanligidan qaychi kesar sham' boshini,
Parvona qilar do'stligidan jonni fido.

* * *

Do'st bo'lsang agar, do'stga munosib do'st bo'li!
Don bo'lsin-u do'st, sen esa unga po'st bo'li!
Dushmani agarchi yuzinn ko'rging yo'q,
Do'st ko'ngli uchun ham uni afv et, do'st bo'li!

* * *

U dushmanu do'st ko'nglini og'ritdi,
Go'yoki gunoh-la vujudin masx etdi.
Avvalda uning gami edi dillarda,
Endi bu jahonning g'ami unga yetdi...

* * *

Boshdan nimalar o'tmadi - dil bermay tob,
Ko'zim yoshidan bo'ldi etagim g'arqob.
Ko'ksimni teshib o'tgan o'qni ko'rasan,
Ko'nglinga agar qo'lingni tiqsang, mohtob!

* * *

Zolim knshining zulmi o'ziga uradi!
Odilga adolat ezgu nom keltiradi!
Shoh odil bo'lsa, taxtu mulki poydor,
Shoh zolim bo'lsa, borini boy beradi!

* * *

Qanday chidayin - bu ne g'aroyib holat:
Na vasliga, na hajriga bordnr toqat!
Ochilsa qayerda gul - azaliy odat:
Bulbulni shu yerda nolasi bilmas had.

* * *

Yo'q menda ko'yingda sabru toqat sira ham:
Sendan na uzoqlik, na yaqinlikka, sanam.
Shunga qaramay, hamisha sabr etmak ishim,
Oshiq kishiga qismat zkan sabru chidam.

* * *

Ey yor, bilasanmm, ne uchun aytdim roz?
Ko'nglim qushi ko'ksimaro qildi parvoz!
Holimdan ajablanma-yu, hovonchaga boq:
Ko'rgach yoridan jafo, chiqardi ovoq.

* * *

Gul fasli-yu, davri shodmonlik keldi,
Afsuski, boshimga notavonlnk keldi.
Umrinni(ng) bahori o'tdi ko'rmay mehring,
Umrin qishi vaqti mehribonlik keldi...

* * *

Bir ko'rsatib o'zini o'shal qomati dol,
Ko'nglimni qo'limdan oldi-yu, qildi uvol.
Ovlaydi ko'ngillarni ko'zi ovchi misol,
Boy bermayman dilni, desang, ko'r bo'la qol!

* * *

Tavba to'nini kiyay desam-da harchand,
Voizga quloq tutib mudom tinglab pand,
Qarshimda namoyon bo'ldi-yu sarv monand,
Uchdi yelga har so'zki, dedi donishmand!

* * *

Derlar mepga: "Borma ul sanamning izidan,
Andisha qil elni(ng) yaxshi-yomon so'zidan".
Tushdim domiga - endi nasihat bekor.
Sudrar meni u - bormayman o'z-o'zidan.

* * *

Jang qilgani sen bilan birov botinmas.
Chunki u tuzog'ingga tushib qolgay, bas.
Sen birla kurashmoqqa menga na dil bor.
Na sabr - uzay desam ko'ngilni, xullas.

* * *

Xusn ahliki, ko'rgan kishilar suqlanishar,
Ming hayfki, pardada ko'rib cheklanishar.
Har holda, niqob tutishlari bejiz emas:
Bozorga solishdan o'zini saqlanishar.

* * *

Hayf dilgaki, u samo'ni qilmaydi havas,
Toshdir o'sha, toshga ishq ishi loyiq emas!
Kim sevgnga begona - samo' unga harom,
Kim kuymasa o't ichra, tutun chiqmadi, bas!

* * *

Gar sevgi daraxti mevaga kon bo'lgay,
Ul yerda duru marvarid arzon bo'lgay.
Qay yerda guzallar oromijon bo'lgay,
Chin yor balo kelganda namoyon bo'lgay.

* * *

O'tgan kecha menga iqbol yor edi,
Ko'limda yanog'i olmasi bor edi.
Chog'langan ednm o'pgali, voh, uyg'ondim,
Bir bo'sa xumorida dilim zor edi.

* * *

Umr - qisqa ekan, shodlikning dodini ber!
Oy chiqsa, Surayyoni falak haydadi ko'r!
To tonggacha yot uyqu shirinlik qilsa,
Bomdod qazo bo'lsa, erursan ma'zur.

* * *

Savdosini soldi yuraginga ul sho'x,
Siymosini naqsh etdi ko'zimga - naq cho'g'.
Boshimni fido qilay oyog'iga uning,
Boshsiz yashasa bo'lar, yorsiz esa yo'q!

* * *

Husnini tomosho qildi oynada, bas,
Tomoq, lab, og'iz, tish - bari qo'zg'andi havas.
Bir so'zi qulog'imga chalindi shu nafas:
"Jon kelsa-da labga, labga hech yetgan emas!"

* * *

Ko'yingda boshimni qilmaguncha qurbon,
Qo'lim hech uzilmas etagingdan, jonon.
Sening sari yo'l uzoq va og'ir chandon,
O'lsam-da bu yo'lda, to'xtamasman bir on.

* * *

Ey tunni yuzi yoritguchi mohtal'at,
Tun-kun sen ila bo'lsa kishi, ne davlat!
Yo'q dunyoda sen kabi chiroyli xilqat.

Hech hojat emas senga bo'yoq, zeb-ziynat.

* * *

Yo silta jahonga qo'l-u, xilvat xohla!
Yo ishq uyini o'rta bir o'tlig' oh-la!
Oshiqlik ila go'shanishinlik mosmas,
Chok bo'lmayeydan parda ko'zingni bog'la!

* * *

Ishqimnn hasad ahli havasga yo'yishar,
O'tkinchi havas bandasi deb ayb qo'yishar.
Asli mening ishqimni ko'rolmay kuyishar,
Husn ahlini, chunki o'zlari ham suyishar!

* * *

Ishratda yashar kim molu davlatga ega,
Bilmas u gado ohi sababini - nega?
Jayxunu Furot to'lib zilol suv oqadi,
Sahrodagilar zor uni bir qatrasiga!

* * *

Orzum edi zulfing tuzog'i, sevarim,
Yengil qilib og'iringni, jabring chekarim.
Xoh jonu dilimni ista, xoh siymu zarim,
Har ne tilasang, qilish muhayyo hunarim.

* * *

Bedor o'tadi uzun bu tunlar, bedor,
Tong chog'i bolishga bosh qo'yarman nochor.
Ko'z uyquga ketdi bir ko'ray deb yorni,
Shunday deb o'zimni ovutaman bekor.

* * *

Har lahza yuzing guliga tushsa nazarim,
Nargis kabi yumilmasa, deyman, basarim.
Sensiz sumanu arg'uvon ichra guzarim -
Gar bo'lsa-da, yo'q binafshadek bosh urarim.

* * *

Men shunchaki kelmadimki, cho'lni ko'raman,
Yo suv bo'yida havas qilib o'ltiraman.
Sen dashtu daladan gulu lola tersang,
Men bo'lsa, sening yuzing gulini teraman!

* * *

Hurdek u sanamni(ng) qaddu bastini ko'ray!
Oydek yuzini, ko'zlari mastini ko'ray!
Ko'rmoqqa yaqindan uni yo'l bermasalar,
Mayliga, uzoqdan dilni do'stini ko'ray!

* * *

Bir kun kelar u menga qilib lutfu karam,
Jonimga yoqar bosgani har bitta qadam,
Ko'zdan yashirin bo'lsa-da harchand u sanam,
Qayga qaramay, ko'rib turarman uni ham.

* * *

Shu qoshi qalamni(ng) zulfi qotil chinakam,

Lekin cho'chitolmas qilib u jabru sitam.
La'lidan olurman ikki-uch bo'ta bu dam,
O'ldirsin-u o'ldirsa, yo'q aybim sira ham.

* * *

Men o'zga bilan qilmasman ahd-paymon,
Oshiq unutarmi sevganini oson?
Men senga beray dilimni jon rohatisan,
Dil sendan uzib, kimga berarman, jonon?!

* * *

Har kun nozu lutfing meni battar o'rtar,
Har kun to'lishar husnu jamoling, dilbar.
Qozpga olib boray, desam, qo'r qarman,
Qozini(ng) dilini-da olarsan yaksar.

* * *

Dil ketsa-da, hech ko'zni bo'larkanmi tikib,
Zuhding yo'q ekanmi, yo'q demak makru firib.
Ko'mdirgan emas bechora parvonani sham',
Kuydirgan O'zi sham' husnini afzun qilib!

Fardlar
Ergash Ochilov tarjimalari

Balolar domida qolsang, Xudo nomini tutgaysan.
Agar hal bo'lsa mushkuling, yana Haqni unutgaysan.

* * *

Shunday deyishar ,ekan bir qavmi arab:
Nasli tutasin, agar tug'ilsa beadab!

* * *

Ey bo'ri, kuchingga bo'lma maftun,
Yuz bergusidir dodingnn bir kun.

* * *

Xudoni esla doim sog'u boyu shod yurganda,
Dilu jondan Xudo deysan, axir, baxt yuz o'girganda.

* * *

Kim kuchliyu qudratliyu ham pahlavon?
O'z nafsini yengolgan odam pahlavon!

* * *

Insofga kirib, kim xayr uchun bog'lar bel:
Topsin uni(ng) xayridan madad muhtoj el.

* * *

Boylik va amal - nokas uchun olamda,
Ov chog'ida it yaxshi, axir, odamdan.

* * *

Qilgan kishini ko'rmadim ishqing tummor,
Qulluq qilishar sening qoshingda nochor.

* * *

Ketmas davlatni bersa toat ila xush,
Naf qilsa musofir molu davlat ila xush.

* * *

Voiz netar el qilmasa pandini qabul?
Payg'omni etishsa rad, gunohkormi rasul?

* * *

Yor ko'yida qat' ayladik qancha manzil,
Men bergan emasman, o'zi oldi ko'ngil.

* * *

Kalxat, desa, lochin qushini kimdakim
Ko'zida uning bir aybi bordir balkim.

* * *

Yo'l yursang agar, yo'ldan iborat olam,
Choh ko'rgusi har qadamda qo'rqoq odam.

* * *

Olam eli yor bo'lishini istasa tab',
Muomala qil barchani(ng) fe'liga qarab.

* * *

Daryoga tushib, agar cho'kar bo'lsa kishi,
Oyog'u qo'liga zo'r berish bo'lgay ishi.

* * *

Tish bo'lmasa, burda nonga ham sabr etasan,
Nonning o'zi bo'lmasa agarda netasan?!

* * *

Sulton ishi shu: har kuni farmon chiqarar,
Xalqi bajarolmay uni sochi oqarar.

* * *

Bir-birni ayang, ko'ngilga bermang ozor,
Yaxshi gina-kudratdan ahillik ming bor.

* * *

Dedimki: umid qudug'idan suv chiqadi!
Afsuski, chelakni-da yutib ketgan edi...

* * *

Tinchingni buzuvchi haqiqatdan begumon,
Ko'nglingga yoquvchi yolg'on yaxshi, ishon!

* * *

Manzilidan o'tsa-da faqirlarniig shoh
Bir chetiga bo'yrasin o'tirmas hech goh.

* * *

Kimning ko'ziga ko'rinsa xalq xor,
Qolmaydi ulug'lik unda poydor.

Muruvvat qolmasa, aynisa ochun,
Chumoli rpzqiga ko'z tikar lochin.

* * *

Jo'mard yesa begonayu xesh tashvishini,
Nomard esa o'ilydi faqat o'z ishini.

* * *

Bu toifa kunni aysh ila tunga ular,
Farq etmasa och tun ila kunni, ne bilar?

* * *

Qudrat ila o'lchama odam mardini,
Kim zulm tpg'ini ushatsa, bil mard uni.

* * *

Bir kimsani(ng) ko'nglini olish maqsadida,
O'zga kishini ranjitish bema'ni juda.

* * *

Ko'r: bo'ri agarchi echkiyu qo'ylarni urar,
Sher bir kuni muttaxamni(ng) qornini yorar.

* * *

Takrorladi bir so'zni uluklar beadam:
Bu xalq azal bor edi, bo'lgay to abad!

* * *

Darvesh to'niga quyosh pinhon bo'lsa,
Hayrat joyimas, bulut xukmron bo'lsa.

* * *

Ishonma zohiriga, botini balki yomon bo'lgay,
Zahar ba'zan shirin halvoning ichinda nihon bo'lgay.

* * *

It bo'lsa kichikligida murdor,
Ulg'aysa, shu fe'l bo'lar namudor.

* * *

Dushman o'lganiga bo'lma mamnun,
Hech kim bu jahonga bo'lmas ustun.

* * *

Gar bo'lsa o'tinlar bari ud, tosh esa dur,
To'ymaydi ko'zi ochning ko'zi baribir.

* * *

Nokasga nasiba berma, kuchga to'ladi,
Bo'ri tishi tez bo'lsa, qon ko'p to'kadi.

* * *

Qaydan biladi uyquchi mastu xummor,

O'tkazganini bemor tunni bedor?

* * *

Ikki oshiq birga quvonsa yaxshi.
Ikki o'tin qo'shilib yonsa yaxshi.

* * *

Shukr et, uydasan, ahli ayoling qoshda,
Bechora musofirning ahvoli boshqa.

* * *

Yoritmas agar lutfi chirog'i yo'lini,
Topmas kishi o'z jahdi bilan manzilini.

* * *

Har kim yetuk olim, komil inson esa boq:
Kafshi uning eski-yu, to'ni qirqamoq.

* * *

Uch toifa dunyoda chiqargay donglar:
Payg'ambaru miskinulug' insonlar.

* * *

Tole' nuri ko'zlaringni etsin ravshan,
Do'st ko'rsa quvonsin, kuyib o'lsin dushman!

* * *

Sen uxlaganingda biz parishon bo'ldik,
Uyg'onding-u, biz tirildik - xandon bo'ldik.

* * *

Tortishadi asli xunuk yuzga niqob,
Sen to'sma go'zal yuzingni aslo, mohtob!

* * *

Sham'ning shu'lasi agar baland bo'lgaydir,
Xavfim shuki: bir kun uying o't olgaydir...

* * *

Yaxshilik yaxshi - kil qo'lingdan kelsa,
Ma'lumdir ajri kim yomonlik qilsa.

* * *

Gar zohidu rindu fosiqu pok bo'lish -
Imkoni qo'lingdamasmi, ma'zur bu ish.

* * *

Nafs orom olar xoh qasru xoh g'orda, rosti,
Joy tanlamas uyqu: taxtda yo devor osti.

* * *

Sen mazhabini kimning agar do'st tutasan,
Yo shartiga ko'nasan va yo tark etasan.

* * *

Afsusu nadomat bilan o'tkazma umr,
Har lahza aziz, vaqt misoli shamshir.

* * *

Bechora, faqirlarga qiling lutfu karam,
Bechoradir Olloh oldida barcha odam.

"Sohibiya" Dan
- Shoislom Shomuhamedov tarjimalari -

Minbarning poyida tursa ham eshak,
Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.
Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.
Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

* * *

Hovonchaga dedim: "Doding ko'p baland.
Ayt, kimdan chekasan bunchalik faryod?"
Dedi: "Ne til bilan aytay, ey Sa'diy,
Zarbni o'z yorimdan yeyman umrbod!"

* * *

Faqat xush ko'ngildan izla yaxshilik.
Tinchlik sarmoyasin izla avvalo.
Sust qo'lda tez qilich yaraqlay olmas,
Buzuq dildan chiqmas yaxshi so'z aslo.

* * *

Tinchlik mulki erur mevador daraxt,
Mevasiga aylang qanoat chandon.
Faqat bir martaba totar mevasin
Daraxtni ildizdan quritgan nodon.

* * *

Odam ersang, faqat yaxshilik ista,
Seni farq etsinlar toki hayvondan.
Hayvondan seni aql ajratib tursin,
Yo'qsa, u qudratda zo'r-ku insondan!

* * *

Beadablikda agar mashhur kishi,
Xayr kutma undan ortiq sen hecham.
Suv agar oshsa boshingdan - baribir:
Bir qarichmi, nayza bo'ymi, ming qadam.

* * *

Darvesh qoqib o'tsa eshiging bir bor,
Unga eshik ko'pdir, sen yemagil g'am.
Senga "sir" aytganga ishonaverma,
Senga aytgan aytar boshqalarga ham.

* * *

Aqlli ko'rsa gar nodondan jafo,
Qahri olovlanmas, dilga solmas g'am.
Arzon tosh sindirsa zar kosann gar,
Tosh narxi oshmaydi, oltpn bo'lmas kam.

* * *

Foyda bermas ulkan a'zolar hecham,
Aqlsiz, hunarsiz bo'lsa gar odam.
Biznikidan katta ho'kiz ko'zlari,
Uzunroqdir eshak quloqlari ham.

Hikmatlar

- Shoislom Shomuhamedov tarjimalari -

Ikki kishi o'rtasiga o't tashlar kezi,
Bu o'rtada aqlsizning kuyadi o'zi.

* * *

Dono kishi vujudi misoli zaru tillo,
Har qayerga borsa ham qimmatini tushmas aslo.

* * *

Chumoli yoz bo'yi yig'ar yemak-don,
Toki qishda uyi bo'lsin farovon.

* * *

Harakat bo'lmasa, bo'shab kishani,
Orzuga yetolmas polvonlar tani.

* * *

Har ishdakim, inson ko'rsatur himmat,
Tikan ham guldasta bo'lur oqibat.

* * *

Chin azmu harakat qilmay muttasil,
Hech kimsa murodi bo'lmadi hosil.

* * *

Erta kun arpaga zor bo'lmay desang.
Bu kun ek, shoyadki, bug'doy non esang.

* * *

Mashaqqat chekmagan topmas xazina,
Tun ortidan kunduz kelar hamisha.

* * *

Bo'lsa bir hunaring, agar yuz aybing.
Do'st nazdida hunar yopar yuz aybing.

* * *

Bir xunar egasi bo'lsa odam gar,
U emas, ko'rsatur o'zin shu hunar.

* * *

Bani odam ilmdan topmish kamol,
Bekor bunda mansabu boylik va mol.

* * *

Bor narsangni berib, bama'nilik ol,
Barchasi ketsa ham, shu abad qolur.

* * *

Istar etsang otangdan meros,
Bog'la otang ilmiga ixlos.

* * *

Ustod cuhbatl jon ozug'idir
* * *

Bilim mezonida so'zing o'lchab ol,
Ilmsiz gap bari shamoldir, shamol.

* * *

Xarchand o'qibsan - bilimdonsan,
Agar amal qilmading - nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak
Na olim va na donodir beshak.

* * *

Nodon qulog'iga pand xuddi qafasda shamol,
Olamning nasihati galvirdagi suv misol.

* * *

Qachon oxirga otam umri yetdi,
Nasihat so'zni menga ayta ketdi:
Dedikim, shahvat o'tdir, ayla parhez,
O'zingga do'zax o'tin aylama tez.
Ul o't kuydirsa, bo'lg'ay toqating toq,
Sabrdan suv urib, maxv ayla yosh choq.

* * *

Tushundim, padaring ekan ko'p fozil,
Otang kamolidan senga ne hosil?

* * *

Hamma insonlar ham odamga farzand,
Biri yaxshi, biri yomonlikka band.
Birisidan topmas chumoli ozor.
Birisida itdan kamroq nomus-or.

* * *

Birlashsa chumoli ittifoq bo'lib.
Arslon terisin olajak shilib.

* * *

Do'stlik, sadoqatga belingni bog'la,
Kina malomatdan tilingni bovla.

* * *

Bu bo'stonda do'stlar etmasa ko'mak,
Nasib bo'lmas maqsad gulini termak.

* * *

Do'sting bo'lsa dushman bilan hamnishin,
Undan qo'l yuvmoqni oqillik degin.

* * *

Do'st oldida bandda bo'lsa ham oyoq.
O'zga bilan gul sayridan yaxshiroq.

* * *

Piyodadan bo'lmas otliq xabari,
U ohista borar, piyoda chopib.

* * *

Tez tugalmaydir qadimiy oshnolar suhbatlari,
Suvni gar ming pora qilsap ham, qo'shilgay oqibat.

* * *

Tavoze'dan erur do'stlik moyasi.
Undan oliynishon bo'lur poyasi.

* * *

Gar dushman necha bor bo'lsa hamki do'st,
Do'stlar hisobiga qo'shmaydi oqil.

* * *

Do'st ko'nglin ovlash uchun birma-bir,
Otang bog'ini sotsang ham arzir.

* * *

Yaxshi do'st aybingni misoli ko'zgu
Yuzma-yuz o'zingga ochiq aytadi.
Yomon-chi, taroqdek ming tili bilan
Sochdan sochga ig'vo qilib qaytadi.

* * *

Yor uldir, ko'nsa gar yor jafosiga,
Orzusin ko'ndirsa yor rizosiga.

* * *

Dono dushman baland ko'tarar chandon,
Yerga urar seni do'st bo'lsa nodon.

* * *

Yo'lingda chuqurni ko'rsatgan inson,
Nazdimda hakiqiy do'sting, begumon.

* * *

Tinch bitar ishga ham qilaversa jang,
Demak, ul odamning aqlin bosmish zang.

* * *

Fildek zo'r bo'lsang-u, shsrdek urishqoq,
Nazdimda jangdan sulh ming bor afzalroq.

* * *

Sulh istar kishining ko'nglin sindirma,
Sulh eshigin qoqsa, sen jang qidirma.

* * *

Sen o'ldirmasang yovni jangda dadil,

Seni o'ldirar u, buni yaxshi bil.

* * *

Istasang darddan diling ozodligin,
O'yla o'zgalar dilin obodligin.

* * *

Mol-dunyo qo'lga kirgizmoq hunarmas,
Qo'lingdan kelsa gar bir dilni ovla.

* * *

Yomonga yaxshilik qilmoq yomondir,
Buni yaxshi bilar aqli rasolar.
Bo'riga yaxshilik - qo'ylar boshiga
Keturgay qanchadan-qancha balolar.

* * *

Gar ish bitsa lutfu yaxshilik bilan.
Na hojat janjalu ur-sur qilishdan.

* * *

Agar dur bo'lsaydi har qatra shabnam,
Durga to'lar edi munchoq bozor ham.
Yaxshilar ketidan agar choparsan,
Istaging, baxtingni shunda toparsan.

* * *

Muloyimlik bilan yurmasa ishi.
Nochor dag'allikka kirishar kishi.

* * *

Kimki kechirmasa o'zini o'zi,
Kechirmas o'zga ham kelganda kezi.

* * *

Yaxshiga yaxshi bo'l, yomonga yomon,
Gullarga gul bo'lgin, tikonga tikon.

* * *

Gar ko'rsang ko'r kishi oldinda choxdir.
Indamay o'tirsang, katta gunohdir.

* * *

Yomonlikni ko'rmasang o'zingga ravo,
Birovga ham uni qilma, birodar.
Agarda o'z onang izzatin qilsang.
Qil mening onamni so'kishdan hazar.

* * *

Har kimki sendan qo'rquvda bo'lsa,
Undan tinchlik kutib, bo'lmag'il g'ofil.
Chayon sanchar ekan odamga nishin,
Ko'pincha qo'rquvdan sanchar, yaxshi bil.

* * *

Har joyda yomonlik o'rgatar yomon,

Xas cho'pga yopishar g'arq bo'lgan inson.
Yomon kishilarga hamroh bo'lmagil,
Qorasin yuqtirar misoli qozon.

* * *

Bemuruvvat, xunuk ariga aytgil:
Asal-ku bermaysan, nishingni sanchma!

* * *

Yomon-la o'tirma, yomon suhbat
Tab'ingnn kir qilur, poklik ofati.

* * *

Yomon bilan o'tirgan inson,
Bir yaxshilik ko'rmas hech qachon.

* * *

Kim mehr ko'rgazdi yirtqich bo'riga,
Sitam-la sho'r qo'shdi qo'yning sho'riga.

* * *

Rostlikdan bosh tortmas hech dono inson,
Rostlikdan odamga kelur ardoq, shon.

* * *

Dil, agar rostlikni etsang ixtiyor,
Dunyo xalqi senga bo'lur do'stu yor.

* * *

Pokiza bo'lmasa kimning qilmishi,
Hikmat so'zi bilan tuzalmas ishi.
Nur yog'ar nasihat so'zlamasa ham,
Turishi ibratdir pokiza kishi.

Qoshning rostligi egriligidir

* * *

Jahonda to'g'rilikdan yaxshi ish yo'q,
To'g'rilik gulida tikanu nish yo'q.

* * *

Ey birodar, yolg'on gapirma zinhor,
Yolg'onchi bo'lur koru bee'tibor.

* * *

Yolg'on beviqor qilur odamni,
Yolg'on sharmisor qilur odamni.
Yolg'onchidan ordir oqillar ishi,
Yolg'onchini odam demas hech kishi.

* * *

Odam tani jon bilan sharaflidir yagona,
Zebo kiyim emasdir insonlikdan nishona.

* * *

Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,
Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.

* * *

Tiliga o'tkazolmas ersa hukmin,
O'tirsin gungu lol burchakda miskin.

* * *

Qanoat yaxshidir kecha-kunduzi,
Qanoatli zotning yorug' yulduzi.

* * *

Ayyom gardishidan ko'p bo'lma diqqat,
Sabr o'zi achchig'-u, mevasi lazzat.

* * *

Aqlli bo'ladi jahongashta xo'p,
U sovuq-issiqni tortib ko'rmish ko'p.

* * *

Do'konu uyingdai chiqolman bir on,
Xargiz, ey xom odam, bo'lmading nnson.
Chiqib endi sen ham kezigil jahonni,
Bo'shab qolmasidan sendan bu jahon.

* * *

Bir kun pochor yiqilmog'ingni bilsang,
O'tirma ko'p baland, pastroq o'gir sal.
Uchib otdan bo'yin, bel singanidan,
Piyoda yurganing afzal, ming afzal.

* * *

Manmanlik, kibru havo qilmasin boshingni band,
Baland bo'lmak istasang, tutmagin o'zni baland.

* * *

Gadoga bir diram kumush bo'lsa bas,
Sulaymon Ajamning mulkiga to'ymas.

* * *

Ochofat ahliga rahm etma zinhor,
Ochofatu mechkay odam doim xor.

* * *

Och ichakni to'yg'izar bitta nonning ovqati,
Och ko'zni to'ydirolmas butun olam ne'mati.

* * *

O'tirgil ochu bechora, yalang'och,
Vale nokasga aslo bo'lma muhtoj.

* * *

Boshqalar moliga ko'ngil qo'ymagil,
So'ngra ko'ngil uzmoq juda ham mushkil.

* * *

Tama' ahlin ko'zi dunyo moliga

To'ymas - to'lmagandek shabnamga quduq.

* * *

Vahshat bilan ko'krak kergan yo'lbars ham,
Sichqondek qopqonga tushar yem izlab.

* * *

Ey g'ofil, ko'p o'nlab foyda-yu mol,
Umring sarmoyasin aylama poymol.

* * *

Yer yuzining ne'mati och ko'zni to'ydirolmas,
Xirmon-xirmon don g'alvir ko'zlarin to'ldirolmas.

* * *

May ichishar yonoq bo'lsin deb zebo,
Oxiri u yuzni qilar kahrabo.

* * *

Asali arzimas nishi zahriga

Xalqqa tarki dunyo qil, deb o'rgatar,
Lekin o'zlari-chi, donu pul yig'ar.

Yarashgan ishni qil, qo'ldan kelganini emas

Tashna odam ko'zin gar bossa uyqu,
Tushiga kiradi butun olam suv.

* * *

Chopqir otlar ko'pi yo'lda o'lib ketdi.
Oqsoq eshak manziliga borib yetdi.

Ahmoqqa maqtov yoqadi

Nokasga yo'l ko'rgazmoq
Ko'rga chiroq tutmoqdir.

"Guliston"Dan
- Sayfi Saroyi tarjimalari -

Fitna yuzli rost so'zdan bo'l yiroq,
Maslahatli yolg'on andan yaxshiroq.
Oqil ul so'zni o'rinda so'zlagay,
Ham javobini munosib ko'zlagay.
Kim muxolif bo'lsa sulton so'zina,
Kelturur ul ko'b balolar o'zina.

* * *

Ey necha bekni, malikni o'yla yebtur bu jahon -
Kim, alardan yer yuzinda qolmadi zarra nishon.
Xayr qil, ey ne'mati ko'p xoja, sen andin burun -
Kim, yurub degan munodiy: "Qolmadi xoja falon!"

* * *

Sig'ar bir hujrag'a o'n ikki mehmon,
Bir iqlima sig'ishmas ikki sulton.

* * *

Bu zamona zohidin ko'r: Ka'bag'a ortin berib,

Yuz xaloyiqqa tutub, doyim qilur botil namoz.
Zohid uldurkim, tavakkulning maqominda turub,
Tunu kun qilg'ay ibodat, dam-badam uzru niyoz.

* * *

Qilib tavba qutulmoqqa bo'lur Tangri azobindan,
Va lekin bu xaloyiqning tilindan qurtulub bo'lmas.

* * *

Eshik bog'lab o'turma ul sababdan,
Ko'runmasun deyu bu mendagi ayb.
Eshikni bog'lab o'lturmoq ne xojat.
Bu holingni bilur ul olim ul-g'ayb.

* * *

Tilar bo'lsang nasib olmoq saodat kimyosindan,
Qanoat go'shasin tutqil, kechib dunyo safosindan.
Muhaqqiqlarning og'zindan necha navbat eshittim men:
Faqir er sabri ortuqdur g'aniylarning atosindan.

* * *

Yo'lungda dinu donish tark etibman,
Bu mehringni ko'ngulda berk etibman.
Men ul qushman - nechalardap qutulg'an,
Sening ishqing tuzog'ina tutulg'an.

* * *

Hojat tilama xasis erdan.
Bug'doy tama' etma sho'ra yerdan.
Jafolarg'a tahammul qil, tilasang -
Yuzung Tangri qatinda oq bo'lg'ay.
Bu ko'p tubroq bo'l, andan burunroq -
Kim erta gul tapping tubroq bo'lg'ay.

* * *

Chun andan o'zga foniydur bilursan,
Burung'ilarning ortincha yurursan.
Bu manzilga adamdan har ki yetti.
Kafandan o'zgasin qo'ydi-yu ketti.

* * *

Ayo, tashi riyo birlan bezanmish,
Ichinda zarracha yo'q mayli taqvo.
Alingda bor esa, ko'rguz valoyat,
Yo'q esa, ne kerak bu lofu da'vo?

* * *

Tushub bir kun otindan, bu masalni
Badiha nazm etti Xoja Ishoq,
Jahon sevgan kishining ko'zlarini
Qanoat to'ldurur yo o'lsa tubroq!

* * *

Kima zamona jafo qilmag'a tilar bo'lsa,
Berur xilofi murodin anga kelib ayyom.
Ko'garchin o'z vatanini yana qachon ko'rgay,
Qazo anga qilur esa nasib donai dom.

* * *

Ajalsiz odamiy o'lmas, deyib sen
Yilonni quyruqindan tutma zinhor.

* * *

Ko'zun bog'lar darohim oqil erning,
Tama' solur uchar qushni tuzoqqa.

* * *

Mag'rur bo'lub sen o'z-o'zungga qolma,
Dushmanni jarohat etting, emin bo'lma.

* * *

Dushman nazarinda qilmag'il qayg'ung yod,
"Lo havlu va lo..." degay, dag'i bo'lg'ay shod.

* * *

Har kimni ko'ngul tilasa, ko'rkli uldur,
Ishqina hamisha jon ichinda yo'ldur.

* * *

Aytti: "Oqar tengizni tiysa bo'lur va lekin
Har muddaiy tilini tiysa bo'lurmi? Bo'lmas..."

* * *

Orif bilan o'lturmoq johilga erur zindon,
Johil bila o'lturmoq orifga jahannamdur.

* * *

Gar kirib jannatg'a sen qilsang qaror,
O'zgalar qilg'ay tamug'ni ixtiyor.

* * *

Ko'ngulni bog'lama bir yerga znnhor,
Yana mushkuldur andan olmoq, ey yor.

* * *

Men kerak o'lgay edim, ey gulbadan, sendan burun,
To ko'zum sensiz jahonni ko'rماغay erdi bu kun.

* * *

Kuzatur o'zga aybin - sen ani ko'r.
Magar o'z aybina doyim ko'zi ko'r.

* * *

Jahon xopining alvon ne'matindan
Besh-olti luqma yedim, ayttilar: bas.

* * *

Bir kishining tishin chekib jarroh.
Chiqarur bo'lsa, bil nedur holi.
Kel, qiyos et, ne bo'lg'ay ul soat
Totli jon chiqsa, qolsa tan holi.

* * *

Vafo istamagil bulbuldan, ey yor -
Ki, har bir gul uza yuz turli sayror.

* * *

O'zungdan eygu birlan o'lturub-tur,
Yomon er birla qilma umr zoye'.

* * *

Qari bo'ldung - yigitlikdan aling yuv,
Bilarsankim, yana qaytmas oqar suv.
Yigitlikni yigitlarga quyub ket,
Bu kun tongda ujun ko'b eyguluk et.

* * *

Onasi injinib, Rustamga aytti:
"Ayo, ko'rgan o'zun haybatli arslon,
Agar bo'lsa edi yodingda ul kun -
Ki, alimda eding bir yashar o'g'lon.
Bu kun bo'yla menga javr etmas eding
Ki, sen bir pahlavon, men bir qari jon".

* * *

Yo vafo yo'qturur bu olamda,
Yo kishi qilmadi jahonda ani.
Mendan o'q ilmin o'tranib ketkan,
Oqibat qildi ul nishona mani.

* * *

Boshimiz ustunda bu xalqi jahon
Sayr etgaylar yer uzra ko'b zamon.
Aldin-alga keldi bizga mamlakat,
Ayla ham ketkay kelib aldan ravon.

* * *

Qaysi faqiri qone' taqvo bilan tirilsa,
Topsa ajab deguldur hazratga ul kuni yo'l.
Qo'rqa vazir Haqdan, qo'rqqan bikin malikdan,
Topub maqomi oliy bo'lgan malak sifat ul.

* * *

Yetganincha kuchung ko'ngul yobqil,
Kim xaloyiq senga duo qilg'ay.
Tushkap er hojatin ravo qilsang,
Haq sening xojating ravo qilgay.

* * *

Qachon fahm etmasa o'zni eshitkan,
So'z aytkan erking anda yozuqi yo'q.
Irodatning qulog'in so'zga tutqan
Kishi bu ma'rifatdan hazz olur cho'q.

* * *

Tilasang ma'rifat nurin ko'rarga,
Iching xoli kerak bo'lsa yemaktan.
Qachon bo'lg'ay munavvar botiningkim,
Yemakdan burnunga tegru to'lusan.

* * *

Bir itni yetti tengizda yuvs,
Chun bo'ldi o'sha palidraktur.
Iso eshakin Hijoz eltib
Ketursa, yana hamon eshaktur.

* * *

Shom elinda fitna qo'bti bir zamon,
O'ylakim, bo'ldi jahonda doston.
Xalqi ketti xonumonin tark etib,
Yettilar o'zga viloyatqa kelib.
Topti erdamli kishi anda sharaf,
Ey necha erdamsiz er bo'ldi talaf.
Bo'ldn erdamli faqir o'g'li vazir,
Qoldn erdamsiz vazir o'g'li faqir.
Erdam - erning davlatidur, bil yaqin -
Kim, tutanmas mol erur matlablayin.

* * *

Kichilikda adab o'granmagan er,
Ulu bo'lsa, bil, andin xayr kelmas.
Egulur yosh ag'och nechuk tilasang,
Quri zgri ag'och o'tsuz guzalmas.

* * *

Bir o'g'lin bir malik maktabga berdi,
Murassa' erdi oltun lavha naqshi.
Muni lavhinda yozdi kotib avval:
Ota mehridan ustod javri yaxshi!

* * *

Ey hazin ko'rgan o'zgadan ustod,
Ne edi avvaling, qil oxir yod.
Ilk bir qatra suv edi isming,
Bo'ldi qirq kunda surati jisming.
Emdi bo'ldung bu kun bahrdur er,
"Pahlavoni jahon", senga el der.

* * *

Har ki nafsin yengar - bahodur ul,
Pahlavon bo'lsang, aning beki bo'li!

* * *

Bo'lmasa qirq yasharda aqlu adab,
Degul inson desang ani, ne ajb.

* * *

Erlik ul ish degul, ko'ngul yoqqay,
Yo kishi aybini ko'rub chiqqay.

* * *

Saxiylarning alipda bir diram yo'q,
G'aniylarda darohim cho'q, karam yo'q.

* * *

Kishiga qilma shikoyat jahondan, ey darvesh,
Turub-yurub qiladur shukri ne'mati Mavlo.
Alingda, chunkim, ayo xoja, molu ne'mat ko'b,
Yedur, bag'ishla, tilasang saodati uqbo.

* * *

Ichirib elga qoshuq birla sho'rba,
Cho'much sopi bilan ko'zin chiqarma.

* * *

Yomonga eyguluk qilsang, sunub qo'l,
Alingdan davlating olmoq tilar ul.

* * *

Aling yuv ul munofiq do'stdankim.
Yurur dushmanlaring birlan bo'lub yor.

* * *

Odamiy ko'nglin yiqar so'z so'zlama,
Sulh eyasindan xusumat ko'zlama.

* * *

Dushmaningni ko'rub faqiri haqir.
Lof urub, burmag'il biyik zinhor.
Har so'ngakning bo'lur ichinda ilik.
Tekma, ko'nglak ichinda bir er bor.

* * *

Qil hazar dushman so'zindan, ey rafiq,
Nekim ul aytsa, aniig sen aksin et!
Ko'rguzursa sog' yona yo'l senga,
Sen aning so'zin zshitma, so'lga ket!

* * *

Yahudiy bir musulmon er bilan so'zga kelib bir kun,
Xilof uzra chekishtilar nechakim bor edi imkon.
Musulmon ont ichib, Tangrp kalomining uza aytti:
"Yahudiyman - bu qavlimning ichinda bor esa nuqson!"
Yahudiy er dag'i ontlar ichib Tavrot uza aytti:
"Musulmonman - agar bo'lsa so'zumda zarracha yolg'on!"
Agar bu aql dunyodan chiqib ketsa, yaqin bilkim,
Tasavvur etmagay hargiz o'zin bir odamiy nodon.

* * *

Ayo, kelgin jahonga, eyguluk et,
Yomon ishni yomonlarga qo'yub ket.

* * *

O'n kishi bir sufrada yemak yer, dag'i ortar,
Ikki it bir murdor uchun bir-birin yirtar.

* * *

G'aniydir ulki, qanoat ichinda sabri cho'q,
Jahonda sabru qanoat bikin maishat yo'q.
Haris yesa jahonni - hanuz ochu faqir,
Hamisha ahli qanoat bir o'tmagi bila to'q.

* * *

Qachon sendan bilikli er ochib og'zin so'za kelsa,
Necha yaxshi bilur bo'lsang, so'zina e'tiroz etma.

* * *

Kishining fazlu miqdori bo'lur ma'lum bir kunda
Va lekin nafsini boqib yillar bilib bo'lmas.

* * *

Sen seni doim ko'rarsan o'zgalardan ortuq er,
O'ylakim, ahval kishi birni boqib, ikki ko'rar.
Bosh urushmag'il urushchi pahlavon qo'chqor bilan.
Chun bilursankim, urushsang, ul senipg boshing yorar.

* * *

Ne turursan boqib, ayo yo'ldosh,
Tosh uzadur yilon, alingda tosh.

* * *

Xush aytti muni ul adibi zarif:
Malikka bo'lurmi qalandar qarif.
O'z ali bilan o'z qo'lun sindurur,
Qaviy birla panja tutushqan zaif.

* * *

Ey o'zun ko'rgan necha bir degasen -
Kim, falon alloma mufti o'g'liman!
Bor esa bu qavlungga keltur dalil,
Gul tikandan keldi, Ozardan Xalil.

* * *

Sen ani bir so'z bila sindurmag'il, ey yori chustъ”
Kim, piyola sinsa, mushkuldur yana qilmoq durust.

* * *

Ko'zung och uyqudan, ey odam o'g'li.
Senki kimdan kesib, kimga tuzubsan,
Xato so'zni eshitib dushmaningdan.
Kerakli do'st ahdini buzubsan.

* * *

Hasud erga balo keleup demakim.
Aning uzra hasad og'ir balodur.
Ne lozim sen anga dushman bo'lursan,
Uchungni chun hasad andan olodur.

* * *

Ne qadarkim beklar oshp totli bo'lsa, ey qo'noq.
Yorli yo'qsulg'a quru(q) o'tmagi andan yaxshiroq.

* * *

Munofpq suhbatingda ne'mating yer,
Chiqib dushmanlaringga g'iybating der.

* * *

Or ko'rma bilmaganni so'rmag'a,
So'rmayincha ilm o'granmas kishi.
Ilm o'qub, har kim amal qildi esa,
Jannat ichinda tafarrujdur ishi.

* * *

Eshitib, tutmasa har kim nasihat,
Bo'lur ul xalq aro doyim fazihat.

* * *

Ey nechalarni ko'rubtur bu jahon,
Ey nechalardan dag'i ortib qolur.
Sen alardan olmasang ibrat bu kun,
Tong bila sendan bular ibrat olur.

* * *

Faridun xaymasining tegrasinda
Nasihat yozmish oltun birla naqqosh:
Yomong'a eyguluk qil, ey saxiy er,
Saodat eygularga bo'ldi yo'ldosh.

* * *

Munda doyim eyguluk etkan kishi,
Jannat ichinda tamoshodur ishi.

Ogahiy tarjimalari
* * *

Eyki, sulton oldida so'zing topibdur e'tibor,
Yaxshi so'z ayturni pesha qil o'zingga zinhor.

* * *

Dedi bir vaqt bir oriq dono
Semuz ablahga nukta'i marg'ub:
Ki bedav ot agarchi log'ardur,
Lek bordur semuz eshakdin xo'b.

* * *

Men oningdek kimsa ermasmanki, yovdin qochg'omen,
Mardman andoqki, ko'rgungdur tanimni qon aro.
Kim urushg'a chiqq'usi - kechmak kerakdur jonidin,
Qonig'a qolg'ay cherikning, gar qochar maydon aro.

* * *

Bo'ri farzandi bo'ri bo'lg'usidur,
Nechakim odam ichra ulg'aysun.

* * *

Qilmading suratim haqir ko'rub,
Manda mundoq ulug' hunarni gumon.
Oriq ot ish kunida butkorur ish,
Bo'lmas ul ish semuz o'kuzdin ayon.

* * *

Nuh o'g'li bo'lub yamonlar ila,
Yedi nasli nubuvvata barham.
Yaxshilar izig'a igorg'on uchun
Bo'ldi ashobi Kahf iti odam.

* * *

Yaxshi qilichni kimsa temurdin nechuk yasar,
Nokas bo'lurmu tarbiyatu lutf birla kas.
Yomg'ur agarchi shahr ila sahrog'a teng yog'ar,
Gulshanda lola, sho'rada butgusi xoru xas.

* * *

Zamini sho'ra sumbul bar keturmas,
Nechukkim tuxm qilsang jonfishonlig'.
Yamong'a yaxshilig' qilmoq biaynih
Erur yaxshig'a qilmoqlig' yamonlig'.

* * *

Kimsaga gar do'st bo'lsa mehribon,
Dushmani ko'b bo'lsa, ondin ne ziyon.
Sipoh holidin qilg'il ogohlig',
Ki shah lashkar ila qilur shohlig'.

* * *

Podshoheki, zulm etar bunyod,
Qilg'ay o'z mulku davlatin barbod.

* * *

Qorning to'q esa, arpa noni yaxshi ko'runmas,
Gar och esang, oy qursi kibi xo'b erur va sof.
A'rof bihisht o'lg'usidur do'zax eliga,
Jannat eliga bo'lg'usi do'zax vale a'rof.

* * *

Darveshu g'aniydir bu eshikda tufroq,
Har kimki g'aniyroq, ehtiyoji ko'broq.

* * *

Bir-birga ulus erur a'zo,
Zoti birdur borig'a, ey dono.
Yetsa har a'zog'a agar ozor,
Qolmag'oy o'zga uzvlarga qaror.
O'zgalar dardidin esang beg'am,
Loyiq ermas seni demak odam.

* * *

Ey amir, o'lmag'il faqirozor,
Tokay o'lg'usi garm bu bozor.
Gar sanga javru zulm esa marg'ub,
O'lganingdur tirikligingdin xo'b.

* * *

Yo'qtur jahon ichra manga aslo bu damdin yaxshi dam,
Kim neku badning fikridin ko'nglumda yo'q bir zarra g'am.

* * *

Qaror tutmag'ay ozodalar qo'lida mol,
Nechukki, suv yo'lig'a mone' o'lmag'ay g'irbol.

* * *

Ablahekim, yoqg'oy ul isrof ila kunduz charog',
Tezdurkim, qolmag'oy oqshom charog'i ichra yog'.

* * *

Mumkin ermaski, tashna qolg'on el
Sho'r suvning labig'a kelgaylar.
Bo'lsa har yerda chashmai shirin,
Xalq onga xujum qilg'aylar.

* * *

Sipahdin agar zar tutulsa darig',
Sipah dog'i chekmas aduv sori tig'.

* * *

Olsa zar xizmat uchun ahli sipah bergay bosh.
Zar gar olmas esa, ketgay olib har sori bosh.

* * *

Sharif ondin erur barcha qutlar ichra Humo
Ki, yeb so'ngok, tilamas hech jonvarg'a izo.

* * *

Durri nofe' bahr arodur beshumor,
Gar salomat istasang, tutg'il kanor.

* * *

Do'st oni dema, ne'mat vaqtida
Gar urar har lahza lofi yorlig'.
Do'st uldur, tangdast o'lg'on chog'i
Dastgir o'lub, qilur dildorlig'.

* * *

Yurma beparvo amal ichra agar oqil esang,
Toki dutiman tonmag'ay hargiz shikastingg'a majol.
Sen libosing nok tut, andisha qilma kimsadin.
Yo'q esa gozur urub, tosh uzra aylar poymol.

* * *

Na jurm ko'rgan ekan mun'imi kamosor,
Ki bandani nazarida hamisha tutg'usi xor.
Ulug'ligu karam ul Tangrig'a musallamdur,
Ki non berur nechakim banda bo'lsa badkirdor.

* * *

Necha yil bu bayt fikrida edim -
Kim, o'qur erdi oni bir filbon:
Mo'rni ko'rsang oyoqing ostida,
Fil oyoqida o'zing qilg'il gumon.

* * *

Birov ikki kungina shoh xizmatiga kelur,
Uchipchi kun shoh anga lutf ila nigoh qilur.
Kimki, qilsa ibodat Xudog'a sidq bila,
Netong, yuziga agar maqsad eshiki ochilur.

* * *

Xazar qil ohidin darveshlarning,
Yonar bir uchqunidin jumla olam.

* * *

Vafo yo'q erdimu olamda hargiz
Va yoxud qilmadi ahli zamona.
Ki har kim otmoq o'q o'rgandi mendin,
Mani ul oqibat qildi nishona.

* * *

Jahonda gar umidu rohatu ranj o'lmasa erdi,
Falak boshidin o'tgay erdi faqr ahli oyoqi ham.
Vazirlar qo'rqsa erdi Xudodin, o'ylakim, shahdin,
Bo'lur erdi malak, balkim malakning yaxshirog'i ham.

* * *

Bu ne'matkim, qo'lungla yer tutubdur,
Yaqin bilkim, necha qo'ldin o'tubdur.

* * *

Gar aduv o'lsa, ango bo'lmasmen aslo shodmon -
Kim, o'zim dog'i jahonda qolmag'umdur jovidon.

* * *

Ko'polsa erdi donolik bila non,
Topa olmas edi bir luqma nodon.
Yetar nodonga andoq rizq har dam -
Ki, donolar ango hayron bo'lur ham.

* * *

O'zungdin o'zgaga ko'z solmog'ung hech -
Ki, to oldingda o'zluk pardasi bor.
Xudobin ko'z sango gar bersa Tangri,
O'zungni ko'rgung eldin ojizu zor.

* * *

Dalqu tayebehu muraqqa'din senga yo'q sud hech,
To yamon af'oldin pok o'lmayin beishtiboh.
Hojat ermas surating darveshlardek tuzmaking,
Siyratingni sof et-u, boshingg'a qo'y zarrin kuloh.

* * *

Sen o'zuigni yaxshi qil, to badsigol
Topmasun aybingni ayturg'a majol.

* * *

Sen agar yaxshi bo'lub, olam seni desa yamon,
Yaxshidur bo'lsang yamon-u, el seni yaxshi degoy.

* * *

Bo'lmasa dunyo - bo'lurmiz dardmand,
Bo'lsa - mehrig'a bo'lurmiz poyband.
Bu jahondin, ko'r, yamonroq yo'q balo,
Bo'lsa-yu-bo'lmasa tortamiz ano.

* * *

Dahr aro gar pir bo'lsun, gar murid,
Sofdil bo'lsun, nechukknm Boyazid.
Chunki dunyo sori mayl etti ayon,
So'ng xalos o'lmoq ango qilma gumon.

* * *

Kimki zohiddur, anga hojat emas dunyoyu zar,
Zohid ermas har kishikim, qilsa dunyoga nazar.

* * *

Elg'a dunyodin berurlar bimler,
O'zlari doim yig'arlar simlar.
Chun amal qilmas esa olim agar
O'z so'zig'a, aylag'ay kimga asar?
Olim uldurkim, asar qilg'ay so'zi,
Demag'ay ul so'znikim, qilmas o'zi.
Qaysi olimkim, badanparvar bo'lur,
O'zi gumrahdur, nechuk rahbar bo'lur.

* * *

Badro'y xotunning eri yaxshidur gar bo'lsa ko'r,
To aylasun oning bila ko'rmay yuzin zavqi surur.

* * *

Agar sulton g'aniy va komrondur,
Va gar darvesh hojatmandi nondur,

* * *

Ikkov ham elta olmas - jon berar hol:
Kafandin o'zga dahr amvolidin mol.
Chu- qilg'ung molu mulkingdin judoliq,
Erur shahliqdin avloroq gadoliq.

* * *

Eyki, ko'nglungda yo'qdurur taqvo,
Bermagil suvratingg'a ham oro.
Toki ostingda bo'ryo bordur,
Balki ko'ngling aro riyo bordur.

Sabr yo'q har kishida hikmat yo'q

Erurmen notavon ul nav'kim mo'r,
Emasmen nishzan andoqki zanbur.
Muning shukrin nechun qilg'um mani zor -
Ki, ermasmen qaviyu mardumozor.

* * *

Qilurman ko'hna hirqamga qanoat,
Vale chekmon knshidin bori minnat.

* * *

Sabr kunjin maskan aylab, ruq'a tikkan yaxshidur,
Xojalar oldig'a borib joma qilg'ondin talab.
Do'zax ichra ming uqubat tortg'on avlodurur,
Kirg'ali jannat aro hamsoya bo'lg'ondin sabab.

* * *

Bilkim, tirik yurmakdurur luqma yemaklikdin murod,
San jahlu g'aflatdin muning aksig'a qilding e'tiqod.

* * *

Kishig'a kam yemak bo'lsa tabiat,
Qotig'liq kelsa, bo'lg'ay anga oson.
Va gar xud ko'b yebon tanparvar o'lsa,
Tuza olmoy qotig'liqg'a, berur jon.

* * *

Yema ko'p, o'ylakim, bo'g'zingg'a yetgay,

Yegil oz, o'ylakim, jon rohat etgay.
Qorinni ul sifat to'ydurma har tun -
Ki kelturgay musibat topmog'on kun.

* * *

Nonim afzun bo'ldi, ammo obro'yim bo'ldi kam,
Benavolig' yaxshi ko'rgandin tama'ning zillatin.

* * *

Bori insonu hayvonu jamiki jonvarlarning
Kamoli benavolig'din falakka chiqti afg'oni.

* * *

Yemag'ay sher sarqutin itning
O'lsa gar ochlig'da xoru zor.
Och o'lub, o'lmagingga rozi bo'l,
Sifladin luqma istama zinhor.
Gar Faridundek o'lsa ne'matda,
Kishi deb behunarni qilma shumor.
Kiysa noahl egniga debo,
Bordurur zarhal aylagan devor.

* * *

Seningdek shohning qadridin aslo hech bo'lmas kam
Meningdek xor dexqon uyiga bo'lmoq bila mehmon.

* * *

Vale dehqon kulohi go'shasi aflokdin o'tg'ay,
Boshig'a soya solsa lutf aylab sen kibi sulton.

* * *

Qo'l uzotmoqlig' ulus oldida yorim non uchun,
Yaxshiroqdur qo'l kesilg'ondin yorim ibnon uchun.

* * *

Keldi dononing vujudi, o'ylakim, pokiza zar,
Borsa har yerg'a, bilurlar xalq qadru qiymatin.
Shahrdin chiqmas ulug'zoda ash'r nodon esa,
Ne uchunkim, o'zga yerda tutmag'aylar izzatin.

* * *

Bo'lmasa zar, zo'r ila daryodin o'tmak bo'lmagay,
Bir kishining zari yaxshi o'n kishining zo'ridan.

* * *

G'urbat ahli qadrini bilmas kishi.
Toki g'urbat birla tushmaydur ishi.

* * *

Emin o'lturmadim yilondin hsch,
Toki bildim, onga nedur xislat.
Ichida bor adovati zahri,
Gar muloyim erur onga surat.

* * *

Kim yuzig'a ochar savol eshikin,
O'lgucha ul niyozmand bo'lur,

Xirsni tashla, podshohlig' qil,
Betama' el boshi baland bo'lur.

* * *

Chu so'z nechakim sof shirin erur,
Sazovori ta'zimu tahsin erur.
Muqarrar oni aylamak xo'b emas,
Ki halvoni bir yegil-u, ayla bas.

* * *

Aqllig' kishi hech demas kalom,
Kalomin birov qilmaguncha tamom.

* * *

Na so'z eshitsa, oni demakmidur oqil ishi -
Ki, shoh sirrini deb, boshini berurmu kishi?

* * *

Qochormen, o'yla, noqis do'stdinkim,
Menga aybim hunar ko'rguzg'usidur.
Borurman, o'yla, dushmanning qoshig'a
Ki, deb aybimu qolim tuzgusidur.

* * *

Uning oningdek etar xalqg'a haroshi dil,
Ki gesha oncha yo'na olmog'usi toshdin gil.

* * *

Kingakim podshoh murid o'lsa,
Ko'runur pok agar palid o'lsa.
Kingakim podshoh nazar qilmas,
Ko'zig'a hech bir kishi ilmas.

* * *

Yigit har necha xo'bu xushnamodur
Va lekin yo'qdurur hargiz vafosi.
Vafo ummid etib bo'lmas yigitdin -
Ki, ko'bdur boshida turluk havosi.

* * *

Necha yil o'tgusi - urmassan
O'z otang go'ri tufrog'i sori yuz.
San otang haqqida na ish qilsang,
Tutg'il o'g'lungdin oni san dog'i ko'z.

* * *

Gadodin zohir o'lsa ming buzuq so'z,
Ulus mingdin birini bilmag'aylar.
Agar shoh aytsa bir bazla nogah,
Yoyardin dahr aro tortilmag'anlar.

* * *

Siymu zar chiqg'usidur toshdin,
Barcha toshdin chiqmag'usi siymu zar.
Chun quyosh yer yuzig'a partav solur,
Barcha yerda lola bo'lmas jilvagar.

* * *

Bo'g'oz xotun, oyo donoi hushyor,
Tug'ar vaqtida garchi mor tug'g'oy.
Base yaxshidur ul farzanddinkim,
Oni nodon va nohamvor tug'g'oy.

* * *

Karim el qo'llarida bir diram yo'q,
Diramlilik kimsalarda bir karam yo'q.

* * *

Degil hojjiyi badguharg'a mendin -
Ki, yirtib el to'nin yetkursin ozor.
Aning yo'q tevacha qadri, nedinkim,
Yobon ul xor doim tortadur bor.

* * *

Ohkim, topg'ay edi ko'nglum farah,
Sabzani qilsam tamosho har bahor.
Emdi tufroqim sori qilsang nazar,
Ko'rgasen ustimda turluk sabzavor.

* * *

To rostlig'in bilmas esang so'zning agar xo'b,
Ayturg'a hamul so'zni og'iz ochmag'il aslo.

* * *

Ilmdin har kishiki olmadi kom.
Bir mato' olmay etdi zarin tamom.

* * *

Goh qahr etmek kerakdur, goh lutf,
Goh mehr etmek kerakdur, goh itob.

* * *

Miskin haris olam aro tinmayin yurar:
Ul rizqning izidin, ajal oning izidin.

* * *

Eyki, minding yuguruk ot uza, ogoh bo'lg'il
Ki, yuk ostida eshaki ojiz bandi gildur.

* * *

Och qo'shnungning uyiga boribon o't tilama -
Ki, uyi tunglukidin chiqq'oni dudi dildur.

* * *

Kimki rohatda o'tkarur holin,
Na bilur ochlarning ahvolin.
Ochlar holin ul kishi bilg'ay
Boshig'a ochlik g'ami kelg'ay.

* * *

So'zungg'a g'arra bo'lma shirin deb,
Anga nodonlar aylasa tahsin.

* * *

Fazling ar yo'q esa, onn bilgil
Ki, so'z ayturg'a ochma hargiz til.
Odamini til etgusi rasvo,
Ochma og'zingni, bo'lma beparvo.

* * *

Birovkim, erur odati rost so'z,
Xatosin dog'i chin etarlar gumon.
Va agar yolg'on ayturda chiqsa oti,
Bilur chin so'zin yolg'on ahli jahon.

* * *

Har g'amekim, oxiri bo'lg'usi xurramlikg'a zam,
Yaxshidur ul shodlig'dinkim, so'ng'gida bor g'am.

- G'afur G'ulom tarjimalari -

* * *

Vafosiz dunyoga dil berma zinhor.
Hech kimga do'st bo'lmas charxi kajraftor.
O'ladi shubhasiz yaxshi ham yomon,
Baxtlidir yaxshi nom qoldirgan inson.

* * *

Tiriksan, go'ringga gullar ekib qol,
Keyin qo'zg'almoqqa qolmagay majol.
Davron oftob-u, umr xuddi qor,
Tiriksan, mag'rurlik qilmagin zinhor.

* * *

Puling yo'q, bozorda nima qilasan?
Qo'rqaman, sallangdan ajrab kelasan...

* * *

Kimki o'z hosilin xom yeb tugatar,
Kuz kuni xirmondan mashoqlar terar.

* * *

Bu kun so'zlamoqqa senda imkon bor,
Har qancha yaxshi so'z topsang, aytib qol.
Ertaga ajalning elchisi kelgach,
Tiling qimirlashga tonmagay majol.

* * *

Og'iz ichida gil, nedur, ey oqil?
Hunar xazinasin kalitidir - u.
Eshik yopiq ekan, bilib bo'lmagay
U yerda nnma bor - munchoqmi, inju?

* * *

Agarchi bilimdonlar xuzurida jim turish -
Odobdir. Ammo, payti kelganida so'zlab qol.
Ikki hol aqlsizlik: gap kelganda gapirmay,
Zarur chog'da jim turmay, bo'lib ketish so'zamol.

* * *

Dunyoni xo'b ko'rgan, so'z ustasi chol
So'zlashdan ilgari aniqlar ahvol.

Og'zingga kelganin valaqlay berma,
Keyinroq so'zlarsan, bundan g'am yema.

* * *

O'ylab ko'r, og'zingdan chiqarkan nafas,
Toki demasinlar: "Qil gapingni bas!"
Til bilan hayvondan ajralur inson,
Bema'ni gapirgan hayvondan yomon.

* * *

Nochor qolgan kishi zo'r berar tilga,
Mag'lub bo'lgan mushuk tashlanur itga.

* * *

Bu jahon hech kimga qolmas, birodar,
Dilingni Tangriga topshirsang yetar.

* * *

Tayanch deb bilmagil bu dunyo molin,
Ko'plarni o'stirib, berdi zavolin.
Jon berar ekansan, farqi yo'q sira:
Taxtda o'lasanmi yo, tuproq uzra.

* * *

Churq etib og'zini ochmasa kishi,
Bilinmas undagi fazilat, nuqson.
Bu o'rmon xoli deb gumon qilmagil,
Balki uxlab yotar shu yerda qoplon.

* * *

Jahondan Humo qush yitib ketsa ham.
Boyqush soyasini istamas odam.

* * *

Yarim noni bo'lgan ochiqqo'l kishi
Yarmini gadoylar yesin, deb o'lar.
Bir iqlim egallab to'ymas podshoh,
Yana bir iqlimni olmoqchi bo'lar.

* * *

Ko'chat endigina tomir qo'ygan on.
Bir odam sug'urib olishi oson.
Vaqt o'tib, ildizin otganida-chi,
Qo'pora olmaydi bo'ronlar kuchi!

* * *

Bulutdan chin hayot yomg'iri yog'sa,
Tol daraxt shoxida meva pishmaydi.
Urinma yomonni yaxshi qilishga,
Bo'yrabop qamishdan shakar chiqmaydi.

* * *

Bir kuni Zol dedi o'g'li Rustamga:
"Dushmanni o'ylama kuchsiz va kamtar.
Bir talay suv kelib kichik buloqdan,
Yukli tuyani ham oqizib ketar".

* * *

Qaro baxt kishilar baxtiyorlarning
Hamisha zavolin orzu qiladi.
Shanparak kunduzi ko'ra olmaydi,
Xo'sh, bunda quyoshnig aybi nimadi?
Minglarcha shapparak ko'r bo'lsa-bo'lsin,
Quyosh porlay bersin ko'kda abadiy.

* * *

O'z xalqiga javru zulm ravo ko'rgan podshohning
O'z do'stlari yov bo'lur qiyin dam kelgan kuni,
Fuqaroga shafqat qilsang dushmandan omondasan,
Adolatli shahanshohning xalqi bu - o'z qo'shini.

* * *

Har bitta gapning ham vaqti yetadi,
Behuda gapirsang, qadring ketadi.

* * *

Garchi yuz yil o'tparast o'tga xizmat etadi,
O'zi yoqqan olovga tushsa, kuyib ketadi.

* * *

Xudoning rizosi - to'g'rilik ishi,
Adashmas tuz yo'ldan ketguvchi kishi.

* * *

Ishing chappa ketganida diling og'rib, chekma g'am,
Chunki zulmat ichidadir obi hayot suvi ham.

* * *

Yomon kunga qolganingda tutma dilingni hazin,
Xudo berar marhamat ko'p, lekin ko'zdan yashirin.

* * *

Zamonaga o'pka qilma, yuzingni tirishtirma,
Chidam achchiq keladi-yu, mevasi g'oyat shirin.

* * *

Daryodan dur yig'asan siqqanicha quchoqqa,
Yo to'lqinlar o'laksangni uloqtirar qirg'oqqa.
Ko'rmadingmi, biror kishi ulug' martaba topsa,
Xushomadga keladilar ta'zim bilan qoshiga.
Toyilsa-yu, ishi chappa ketar bo'lsa, qaraysiz,
Hech tan tortmay oyoq qo'yib, chiqadilar boshiga.

* * *

Amiru vaziru podshohlarning
Yoniga besabab bormaslik kerak.

* * *

Qutida turganda burqimaydi ud,
Sen olov ustiga uni tashlagil.
Ulug'lik niyating bo'lsa, saxiy bo'l,
Urug' sochilmasa, unmaydi hosil.

* * *

Fuqaroning bog'chasidan sulton uzsa bir olma,
Navkarlari qo'poradi daraxtlarning ildizin.
Zo'rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,
Askarlari sixga tortur tovuqlardan besh yuzin.

* * *

Sultonning rizosin topa olmaysan,
Toki fuqaroning ko'nglin topmasang.
Xudo bandasiga yaxshilik qilg'il,
Xudo gunohimni kechirsin, desang.

* * *

Har kimning mansabi, quvvati bordir,
Xalq molin yemakka qudrati bordir.
Kattakon so'ngaklar halqumdan o'tar,
Lekin pastga tushib, qorinni yirtar.
Xalqqa zulm etsa har bir sitamkor,
Unga qarg'ish - la'nat qolur poydor.

* * *

Oqil kishi alam o'tsa, o'z xalqidan o'pkalamas,
Na aziyat, na rohatga xaloyiq sabab emas.
Birni birga do'stu dushman qilmak Xudoning ishi
Va Xudoning izmidadir hamma dilini yozmishi.
Agarchi otilganda kamondan otiladi,
Biror o'qchi otganini aqllilar biladi.

* * *

Nima balo, ilonmisan, ko'rganingni chaqasan,
Boyqushmisan, qaysi yerga qo'nsang, uni yiqasan.

* * *

Cho'lning shamolidek o'tajak davron,
O'tar achchiq-chuchuk, yaxshi-yu yomon.
Zolim bizga sitam qildim, deb o'ylar,
Chidadik, gunohi o'zida hamon.

* * *

Sultonning ra'yiga qarshi so'z aytmak,
O'z yurak qoningga qo'l yuvmak demak.
Kunduzni podsho kecha deb bilsa.
"Hay-hay, ana Hulkar!" - demaklik kerak.

* * *

Do'stlarning ko'nglini qo'lga olay deb,
Otameros bog'ni sotilsa yaxshi.
Yaxshilar qozonin qaynatish uchun
Bisotu buyumlar yoqilsa yaxshi.
Yomon niyatga ham sen yaxshilik qil
It og'zin non bilan tiyilsa yaxshi.

* * *

Qo'lda elab, xamir qilmak so'nmagan ohaktoshni,
Oson ishdir amirlarga egishdan aziz boshni.

* * *

Qimmatli umrimiz ko'p isrof bo'ldi,
Yozu qish nima yeb, ne kiyaman deb.
Sen, qorin qurg'ur ham bitta nonga ko'n,

Ikki bukulishni bizga ko'rma ep.

* * *

Baxtli va davlatli bo'lmas bilimdon,
Buning barchasiga sabab osmon.
Jahonda uchraydi takror va takror:
Ahmoqlar hurmatda, aqllilar xor.
Kimyogar qiynalib o'lib ketadi,
Ablahga xazina nasib etadi.

* * *

Yuzma-yuz kelganda quy kabi yuvosh
Orqadan bo'riday odamxo'r, bebosh.

* * *

Sirtimni maqtay berib, meni uyaltirmagil,
Ichimda qancha nuqson, uni o'zim bilaman.

* * *

Elatdan bittasi ahmoqlik qilsa,
Qishloqning obro'sin kulday to'zg'itar.
Ushbu maqolni ham eshitgandirsan:
"Yaramas bir buzoq poda bulg'atar".

* * *

Dilni og'ritarlik bir qo'pol kishi,
Bilimdon davrada nojo'ya ishi,
Kattakon quduqda limmo-lim gulob,
Bitta o'laksa it qilganday harob.

* * *

Qiyin kunga qolgan chog'da ruhing bo'lmasin tushkun,
Dushmanlarning terisidan do'stingga bichgil po'stin.

* * *

Bir kishi kasal uzra tun bo'yi yig'ladi zor,
Tongda yig'lagan o'ldi, sog'ayib turdi bemor.

* * *

O'g'rining omadi kelib turgan choq,
Karvonning dodiga solarmi quloq?

* * *

Zanglagan temirni ming ishqov berib,
Ko'zguday sayqallab, boqib bo'lmaydi.
Qora ko'ngillarga o'git foydasiz,
Toshga temir mixni qoqib bo'lmaydi.

* * *

Shod kunlaring g'amginlarning ko'nglin top,
Dil og'ritgan balolarga qoladi.
Bo'la turib tilanchiga bermasang,
Biror zolim sendan yulqib oladi.

* * *

Biror esli kishiga hatto hazil so'z aytsang,
U shundan ham o'ziga chiqaradi xulosa.

Ammo ahmoq kishiga yuzlab hikmat o'rgatsang,
Barchasi uning uchun tuyular hazil narsa.

* * *

O'zing yaxshi bo'lsang yurish-turishda,
Sendan ayb topolmas har bir yaramas.
Tanburning o'z sozi joyida bo'lsa,
Sozanda qulog'in burab o'tirmas.

* * *

Bildingmi, tong chog'ida nima der menga bulbul:
"Nechuk odam sanalg'ay sevgidan bexabar dil?
Arab she'rin eshitgan tuya zavqidan o'ynar,
Senda zavqdan asar yo'q, hayvon ekansan butkul".

* * *

Agar sen istasang boylik va davlat,
Eng katta boylikka tengdir qanoat.
Etaging to'ldirsa bir boy zar bilan,
Sen unga qarama shod nazar bilan.

* * *

Katta kishilardan eshitdim har gal:
Darveshlar chidami boylikdan afzal.

* * *

Mo'lu ko'l, kattakon amalga mingach,
Do'stini tanimas ko'zin bosib yog'.
Oshnolar yoniga hasrat-la borur.
Amaldan haydalib, ojiz qolgan chog'.

* * *

Do'stni-ku yo'qlamoq zarra ayb emas,
Ammo "Bas!" deguncha boravermagil.
Boshqalar tergashin yoqtirmas bo'lsang,
O'zingni avvalo o'zing tergagil.

* * *

Yaxshi erkak uyidagi yomon xotin misoli
Bu dunyoda erkak uchun jahannamning timsoli.
Yomon xotin suhbatidan qochib, qidir panohi,
Jahannamning olovidan o'zing saqla, ilohi!

* * *

Bola-chaqa qayg'usida band bo'lgap kishi
Juda qiyin tinch turmushni xayol qilishi.
Farzandlar qayg'usi: kiyimi, noni
Esingdan chiqarar sayri samoni.
Kunduzi ko'nglimda qilaman qaror,
Bu kecha Tangrini topay deb bir bor.
Qachonki xuftonning vaqti keladi -
Ro'zgorim tashvishi kela turadi.

* * *

Mayli, kim bo'lmasin: pirmi, muridmi,
Yoki zo'r shoirdir, yetuk shuhratga,
Bu tuban dunyoga kelishi bilan
Oyog'i asalga ilashgan pashsha.

* * *

Xonaqohdan madrasaga keldi yurakli kishi
Va tariqat ahli bilan ulfatchilikni buzdi.
Men so'radim: "Olim bilan xudojo'yni farqin ayt,
Nima uchun olimlarga tortimingni ko'rguzding?"
Dedi: "Obid to'fon qo'psa, sholchasin axtaradi,
Olim esa suv g'arq qilgan kishini qutqazadi".

* * *

Katta daryo bir tosh bilan loyqalanib qolmaydi,
Ranjish bilgan bilimdonni jildiragan ariq de.

* * *

Qarindoshing bo'la qolsa diyonatsiz, beadab,
Sen ham undan qarindoshlik ipin uzsang, yaxshi gap.

* * *

Bag'dodda bir quvnoq keksa bor erdi,
Qizini kavushdo'z yigitga berdi.
Ayovsiz davangi shunchalar so'rdi,
Qizning dudog'idan qonlar yugurdi.
Ertalab otasi buni ko'radi,
Kuyovi oldiga borib so'radi:
"Buncha chaynamasang, cho'zmasang, ahmoq,
Kavushlik terimas, bu nozik dudoq!"
Kulgi-chun aytmadim, menga quloq sol,
Xazilni tashla-yu, jiddiysini ol:
Birovning tab'ida yomonlik bo'lsa,
O'lgancha qoladi - bu turgan narsa.

* * *

Devorga yozilgan bo'lsa ham o'git,
Unga amal qilgay esi bor odam.

* * *

Eshitdim, bir sipoh kundan bir kuni
Bo'ri changalndan qutqardi qo'yni.
Oqshom qo'y bo'g'ziga pichoq ishqadi,
Shunda qo'y yalinib, unga yig'ladi:
"Avvali bo'ridan qutqargan sensan,
Bilsam, o'sha bo'ri o'zing ekansan!"

- Shoislom Shomuhamedov tarjimalari -

O'z mehnatidan non yegan kishi,
Hotam minnatidan ozod yosh-qishi.

* * *

"Hamyoni sof tilla to'la bo'lsa ham,
Och kishi sahroda qo'yolmas qadam.
Biyobonda qolgan och bechoraga,
Kumushdan yaxshidir qaynagan shalg'am".

* * *

Qovrilgan qush qadri to'qlar oldida
Dasturxonda piyoz, kashnich, o'tdan kam.
Och oldida o'tar tovuq o'rniga
Quruq suvda qaynab pishgan bir shalg'am.

* * *

Dil na qilsin past tabiat bo'lsa tan,
Har mahal esmas shamol xohish bilan.

* * *

Muhtoj banda iltijoda Xudoga qo'lin ochar,
To'qligida qo'llarini qo'litiqqa urib qochar.

* * *

Oltin-kumush bo'lsa, yedir barchaga.
O'zing ham rohat qil, yeb-ichib qolgin.
Sendan qolajakdir bu imoratlar,
G'ishtlar bo'lganda ham kumush yo oltin.

* * *

O'lgan agar tirilib kelsa,
Urug'lari bilan bo'lsa jam,
Og'ir edi meros qaytarmoq
Qarindoshin o'limidan ham.

* * *

Ye, ey badbaxt, hech nnma ayamasdan,
Badbaxt o'ldi yiqqanini yemasdan.

* * *

Agar ish ko'rsatmasa, bekordir fazlu hunar,
Ud olovga tushmasa, uyni qilmas muattar.

* * *

Badavlat g'aribmas tog'u cho'lda ham.
Qayga borsa, qurar yotog'u chodir.
O'z kulbasida ham g'aribu zabun
Orzuga yetmagan bechora faqir.
Agar kosib musofirlikka chiqsa,
Qiyinlik betini ko'rmaydi aslo.
Kschin och uxlamoqqa majbur o'lg'ay.
Gar o'z yurtida taxtdan tushsa podsho.

* * *

Rizq agar har kimg'a kelur begumon,
Aql der: "Qidirgil uni sen o'zing!"
Hech kishi ajalsiz o'lmaydi, ammo
Kim ajdar og'ziga uradi o'zin?

* * *

Aqlning ko'zi ham tama'dan bog'liq,
Tama'dan ilingay domga qush, baliq.
Zulm ko'rsang, kiygil chidam etigin,
Yumshoqlik yopadi urish eshigin.
Yumshoq muomala, shirinso'z odam
Bir qil bilan tortib ketar filni ham.
Yumshoq bo'lgil, yumshoq ipakni hatto
O'tkir qilichlar ham kesolmas aslo.

* * *

Rizqingdan ortiqni yeb bo'lmasa ham,
Talabda bo'lmag'il dangasa, beg'am.
G'avvos nahang og'zin o'ylasa agar,
Qo'lga kiritolmas hech durru gavhar.

* * *

Ilvasin keltirmas ovchi ham har kun,
Bir kun yo'lbars yirtib tashlashi mumkin.

* * *

Gohida ravshanfikir donolardan ham
Chiqmasligi mumkin durustroq tadbir.
Gohida aqlsiz go'dak bir bola
Yanglishib, nishonga o'q urar mohir.

* * *

Hunardan katta ayb yo'qdir adovat ko'ziga har dam,
O'zi gul bo'lsa hach, dushman ko'zinda bir tikan Sa'diy.

* * *

So'z demasang, senda kimning ishi bor,
Dedingmi, dalil ayt, isbotla takror.

* * *

O'z uyingdagini bilolmay zinhor,
Qaydan bilding - falak avjida ne bor?

* * *

Inkor ko'zi-la qaragan kishiga
Yusufning yuzi ko'rinar xunuk.
Agar chuhabbat-la qarasa devga,
Dev ko'rinar farishtadek tup-tuzuk.

* * *

Gar begona kelsa shamning yoniga,
Soya qilsa, o'ldir unday odamni.
Labi shirin, shakarxanda yor kelsa,
Yenging bilan shu on o'chirgil shamni.

* * *

Dengiz foydasi yaxshi, to'lqin solmasa dahshat,
Gul suhbatlari xush edi sanchilmaganda tikon.
Visol bog'ida tovu kabi qilardim xirom,
Bu kun yor hijronida to'lg'andich misli ilon.

* * *

O'zingdan yaxshiroqni izla, fursatni g'animat bil,
O'zingdeklar bilan mumkin qadar kamroq suhbat qil.

* * *

Er quchog'idan xotin tursa har subh norizo,
Bunday uyda dam-badam qo'zg'ar janjal, mojaro.

* * *

Nayrang bilan soching qilasan qora,
Ammo bukchaygan bel rost bo'lmas sira.

* * *

O'zi buyurmoqqa o'rgangan kishi
Qiyin boshqalarga quloq solishi.

Kim agar o'sibdi nozu ne'matda.
Holi og'ir bo'lar qolsa kulfatda.

* * *

Agarda muallim bo'lsa beozor,
Bolalar sinfni qilishar bozor.

* * *

Kiriming bo'lmasa, chiqimni to'xtat,
Qayiqchilar kuylar shunday bir qo'shiq:
"Agar toqqa yomg'ir yog'ib turmasa.
Bir yilda Dajla ham bo'lar qup-quruq".

* * *

Orzug'a yetishgan baxtiyor nechun
Qaro kun g'amida chekadi alam?
Shodlik-la yeb-ichib, yasha, ey dilkash,
Ertangi kunni deb bugun chekma g'am!

* * *

Past nodon mastlikda o'ylamas aslo
Ne kechar ahvoli yo'qlik kunida.
Bahorda bargi mo'l daraxtlar nochor -
Yalang'och qolar qish izg'irinida.

* * *

O'z eliga vafo qilmagan kishi
Na sevimli bo'lur va na donishmand".

* * *

Agar bo'lmas ekan fazlu hunar hech,
Bilib bo'lmas odammi, naqshi devor.
Bisot, mol qo'lga kirgizmoq hunarmas,
Qo'lingdan kelsa, bir dil ovla, ey yor!

* * *

Zulm ila xalq terisin shilgan o'shal hojiga
Mening nomimdan borib, ikki og'iz so'z degin:
"Sen hoji emas, balki hoji erur bu tuyang,
Chunki tikan ovqati, ko'tarar odam yukin".

* * *

Buyurmas aqllik kishi hech mahal
Tamizsiz kishiga muhimroq bir ish.
Bo'yra to'qigan ham to'quvchi, lekin
Qo'lidan kelarmi ipak ish to'qish.

* * *

Birovga sir aytib, saqla degandan,
Dil sirin hech kimga aytmagan ma'qul.
Ariq toshib ketsa, bog'lab bo'lmaydi,
Suvni eng boshidan qaytargan ma'qul.

* * *

Ikki kishi adovatin o't desak agar,
O'tni tashib turuvchidir badbaxt ig'vogar.
Qayta totuv bo'lishganda bu ikki ko'ngil,
U bo'ladi baxti qaro, sharmanda, xijil.

* * *

Do'st-la so'zlashsang ham bo'lgil ehtiyot,
Dushman qulog'iga yetishmasin boq.
Devor ichra har ne desang, hushyor bo'l,
Devor orqasida bo'lmasin quloq.

* * *

Qo'ldan kelgan hamma choradan keyin
Qo'lga qilich olsang, ravo bo'ladi.

* * *

Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo
Dilozor yarasiga qo'ymagil malham.
Aylama rahm-shafqat ilon-chayonga,
Bundan ozor topar farzandi odam.

* * *

Ishonmagil maddoh, so'zamollarga,
Zarracha naf' uchun seni madh etar.
Bir kuni murodin hosil etmasang,
Ikki yuzdan ortiq ayb sanab ketar.

* * *

Odamning tor ichagin bitta non to'ldirar, bas,
Butun olam ne'mati och ko'zni to'ydirolmas.

* * *

Bir ahmoq eshakni so'zga o'rgatmoq -
Bo'lib, sarf aylardi ko'p vaqtu ko'p kuch.
Bir donishmand dedi: "Ta'naga qolma,
Ey axmoq, behuda urinishdan kech.
Yaxshisi, sen undan sukutni o'rgan,
Hayvon gapirishga o'rganarmi hech?"

* * *

Kimki andishasiz so'zlasa javob,
So'zi e'tiborsiz, chekar iztnrob.
Yo o'ylab so'zlagil inson misoli,
Yo jim turaver hayvon misoli.

* * *

Zog' bilan bir bo'lsa bulbul qafasi,
Ne ajab, ichiga tushsa nafasi?

* * *

Dononi sharmanda qildim-ku, deya,
G'ururga berilmish maqtanchoq nodon.
Bilmaski, nog'ora ovozi doim
"Hijoz" kuyin bosib ketadi oson.

* * *

Donodan bir pandu nasihat so'rdim,
Dediki: "Nodonga qo'shilma hecham.
Agar dono bo'lsang, aqmoq bo'lasan,
Yo'qsa, nodonliging ortar yana ham".

* * *

Lutf etgan kishining xoki poyi bo'l,
Dag'allik qilsa, soch ko'ziga tuproq.
Dag'al kishilarga yumshoq gapirma,
Zang archolmas egov bo'lganda yumshoq.

* * *

Gaping chinligini yaxshi bilmasdan,
Og'zing ochib, aslo so'zga urma dam.

* * *

Yolg'on seni banddan qilsa ham xalos,
Rost gapirgil. agar bandda qolsang ham.

* * *

Qush tushmas pastdagi dona ustiga,
Tuzoq uzra ko'rsa o'zga bir qushni.
Boshqalarga ibrat bo'lmayin desang,
O'zing ibrat olib, yuritgil ishni.

* * *

Mening fe'lim agar bo'lsa yaramas,
Sen o'z fe'ling qo'ldan chiqarmasang bas.

* * *

Qozi besh bodiring yesa gar pora.
Yuz polnz hukmiga topadi chora.

* * *

O'z to'ningga solsang agar yuz yamoq.
O'zga to'nin so'ragandan yaxshiroq.

"Bo'ston"Dan
Chustiy tarjimalari

Eshit, ey hunarmand - dono kishi,
Emas ayb izlash hunarmand ishi.

* * *

Jahondan ketar paytda No'shiravon
Bu so'zlarni Hurmuzga etmish bayon:
"Xamisha g'ariblar dilin ovlagil,
Sen o'z rohating ko'zlagan bo'lmagil.
Agar rohatingni qilarsan havas,
Qo'l ostingdagilar sira tinchimas.
Aqllikka ma'qul emas hech qachon,
Yesa qo'yni bo'ri, yotib qo'ychivon.
Chiqor hojatin hamma muhtojni,
Shular qo'ydi shoh boshiga tojni.
Daraxt bo'lsa shoh, xalq ildiz erur,
Bil, o'g'lim, tomir-la daraxt ulg'ayur.
Eling qalbin og'ritma, berma zarar,
Qurur ildizing ranjisa el agar.
... U yurtda topolmaysap obodlik
Agar elda yo'q shohidan shodlik.
Tushida ko'rar yurt obodligin
Xarob aylagach yurtu elning dilin.
Yomonlik, haroblik zulmdan kelur,
Ulug'lar buning ma'nisin xo'b bilur.
Sitam birla qatl etmoq elni ziyon.
Shular mamlakatda mador, soyabon.

* * *

Eshitdimki, Sheruyaga ushbu xil
O'lim vaqti Husrav dedi: "Yaxshi bil,
Nechuk ishni qilmoqqa etsang niyat.
Mudom el ishin yaxshilashga qarat...
Agar bo'lsa o'tkir tig'ing qanchalik,
Emas tul xotinning dilin ohidek...
Yomon ham o'tar, yaxshi ham, yaxshi bil,
Seni yaxshi nom birla yod etsin el...
Sila yaxshi boshini - bermas ziyon,
Yomonga tarahhum - o'zingga yomon...
Tanish bo'lmagandan hazar yaxshidur,
Ki do'stlik niqobida yov ham bo'lur...
Saxiy bo'l-u, xush xulqu mardona bo'l,
G'ariblarga boqqilki, haq yo'li shul.
Qololmas jahon ichra mangu kishi,
Faqat qolgusi yaxshi nomu ishi.
Tirik ulki, undan keyin qolsa joy,
Hovuz, qil ko'prik-la karvonsaroy.
Agar qolmasa har kishidap nishon.
Udir mevasi yo'q daraxt begumon.

* * *

Badaxshonni(ng) la'lin ushatmoq oson.
Ushalgach, butun bo'lmagay hech qachon.

Hikoyat

Unutdimki, qaysi kitobda ekan,
Yo'liqmish birov tushda shayton bilan.
Qadi sarvu shamshod ekan, chehra hur,
Yuzida quyosh nurlari tovlanur.
Yaqin bordi-yu, dedi: "Shaytonmisan?
Farishta bu xilda go'zal bo'lmagan.
Shu xil to'lgan oydek yuzing, surating,
Jahonda nega eng yomon shuhrating?
Oyoq ostida surating ne uchun,
Chizilmish bahaybat, yomonu zabun?"
Bu so'zni eshitgach u baxti qaro
Kelib achchig'i, chekdi ohu navo.
Dedi: "Shaklim ermas u yanglig' xunuk,
Qalam dushman ilgidadir, ey buyuk!
Bihishtdanki, yuldim men ildizlarin,
Chizar suratim misli devi lain.
Bu yanglig' go'zalman va lekin hamon,
Mening suratimni chizarlar yomon".

* * *

Xatim beg'alat - to'g'ri yurgach qalam,
Xato izlagandan nedir menga g'am?

* * *

Ko'rarsan - bilarsanki, har kambag'al -
Boqar boyga hasrat bilan har mahal.

* * *

Shoshib har kishiki, qilich ushlagay,
Pushaymon bila o'z qo'lin tishlagay.
G'arazlik kishi so'zini so'z dema,
Ishonib, anga, so'ngra afsus yema.
Aqlli kishi sabr etar har nafas,
Jaholatga yengilgan oqil emas.

Aziz nomi qolgan yetuk kishilar
Kishi moliga bermadilar zarar.
Agar och qolib, bersa ham mard jon.
Yetimlar haqin yemagay hech qachon.

Hikoyat

Ulug'lararo bir ulug' ahli fan,
Dedi qissa Abdulaziz o'g'lidan.
Uzugin ko'zi bor ekan bebaho,
Xaridor kuchi yetmagan mutlaqo.
Yorutgaydi tunni ajoyib bu dur,
Quyoshdek sochardi jahon ichra nur.
Kelib elga ochlik yili nogahon,
Qadi yangi oydek egildi shu on.
Elin ko'rdikim, ochu darmoni yo'q,
Muruvvatdan ermas o'zi bo'lsa to'q.
Kishi ko'rsa xalq komi ichra zahar,
Tomog'idan o'tmaydi sharbat-shakar.
Buyurdi - uzuk ko'zini sotdilar,
Yetim, tulga rahmi kelib shul qadar,
U bir hafta bo'ylab ulashdi pulin,
Dilin onladi ochu qashshoq elin.
Biroq unga derdi malomatchilar:
"Topolmaysan endi bu yanglig' guhar!"
Eshittim, der erdi u dono kishi,
Yuziga tomib sham'dek ko'z yoshi:
"Yarashmaydi ziynatlanish pyuh uchun,
Agar bo'lsa el holi ochu zabun.
Qo'limda bu ko'zsiz uzuk bezarar,
Zarar - e, dili g'amda bo'lsa agar.
O'zidan burun har kim el rohatin
Agar ko'zlasa, unga ming ofarin!
Kishilar g'amini yegan mardlar,
Bo'lib qayg'uli, rohatidan kechar.
Agar yotsa shoh taxtida bohuzur,
Ishonmaki, el uxlab, orom olur.
Agar uxlamas shoh butun tun aro,
El uxlaydi orom olib doimo".

Hikoyat

Shahanshohlar axborida bor ekan,
Minib taxt uza, Tukla sardor ekan.
Zulm ko'rmadi davrida hech kishi,
Bo'lakka saboq erdi tutgan ishi.
Bir oqilga der erdi bir marta u:
"Hayotim butun behuda o'tdi-ku!
Dil istar ibodatni xilvat aro,
Tilakka yetay bo'lmay umrim ado.
Qolur mansabu taxtu mulku chaman.
Olib ketmadi go'rga hech qaysi tan".
Eshitdi buni oqili pokdil,
Chiqib jahli, aytdiki: "Ey Tukla, bil:
"Ibodati o'zi xalqqa xizmat qilish,
Na tasbehda, na joynamozda bu ish.
Umr bo'yi taxt uzra sen shoh bo'l,
Dili noku xushxulqu ogoh bo'l.
Sadoqat, irodat bilan bog'la bel,
Yomon lofu qofdan mudom saqla til.
Ulug'lar dilikim, musaffo edi,
Shu xislat ularda muhayyo edi.
Sira o'lmasam, deb kim ayta olur,
U kimdirki, dunyoda o'lmay qolur.
Agar har kishidan qolur mulku mol,
O'zidan keyin bo'lg'usi poymol.
Agar har kishi elga ehson etar,
Elidan mudom unga rahmat yetar.

Ulug' bo'lsa-yu, qolmasa yaxshi nom,
Nishonsiz o'lib ketdi u, vassalom!"

* * *

G'ariblarga berma azobu alam,
Seni mahv etar topsa paytin u ham.

* * *

Zulm birla yiqquncha oltin, axir,
Xazinangning bo'sh qolgani yaxshidir.

* * *

Chida zo'r zulmiga, ey notavon,
Bo'lay, desang, undan ko'ra pahlavon.
G'animlarni himmat-la yengmoq zarur
Ki, himmat qo'li barchadan zo'r erur.

Hikoyat

Damashq ichra keldi qahatlik yili,
Unutdi mehrni kishilar dili.
Baxil bo'ldi osmon chunon yer uchun,
Daraxtu ekin qaqshadi bus-butun.
Qadimiy buloqlar qolib qup quruq,
Yetim ko'z yoshidan bo'lak tomchi yo'q.
Faqat bevalar ohi birlan chiqar,
Xar uy tuynugidan tutun chiqsa gar.
Daraxtlar g'arib bir gadodek - shu hol,
Bahodirlar ahvoli tang, bemajol.
Na bog'u na sahroda ko'klam u yil,
Chigirtka ekin yeb, chigirtkani el.
Shu on keldi yonimga bir eski do'st,
Faqat unda qolmish suyak birla po'st.
Taajjubda qoldim - baquvvat edi,
Juda mo'tabar, ham badavlat edi.
Dedim unga: "Ey yori pokiza dil.
Boshingga na ish tushganini degil".
G'azab birla dediki: "Ey oshno,
O'zing xo'b bilursan, savoling xato.
Ko'rarsan mashaqqatli fursat bu dam.
Nihoyatga yetdi musibat bu dam.
Na yomg'ir yog'ar yerga ko'kdan bu on,
Na yerdan yetar ko'kka ohu fig'on".
Dedim: "Senga yo'q xavf, bul so'zni uq:
Zahar kor etar qayda taryok yo'q.
Bu ochlik bo'laklarni gar mahv etar,
Badavlat-san - o'rdakni to'fon netar?"
Qarab, ranjidi mendan olim shu on:
"Degaysanki, nodonga donosimon".
Dedi: "Chetda ham bo'lsa mardonalar,
Turolmas qarab, cho'ksa do'stlar agar.
Yuzim yo'qchilikdan emas za'faron,
Yalang'och, ochlarga o'rtandi jon.
Aqlli kishi xohlamas hech qachon
Elin, ham o'zin jismiga bir ziyon.
Shukurkim, tanim sog'u quvvatliman,
Dilim titragay o'zgalar dardidan.
Majolsiz kasal yonida bo'lsa gar,
Kishi soppa-sog' bo'lsa ham, nam bosar.
Ko'ringanda ochu g'arib, notavon,
Zahar bo'lgay og'zimda har luqma non.
Agar bandu zindonda do'sti yotar,
Kishi qayda gulzor sayrin etar".

Hikoyat

Tutab turgan el qalbi yondi butun,
Kuyib ketdi Bag'dod yarmi shu tun.
Birov shukr etib, derdi yong'in aro:
"Do'konim zarar ko'rmamish mutlaqo!"
Dedi bir kishi: "Ey xasis, aqlsiz,
Faqat o'z g'amingni yeding, betamiz!
Seninga do'koning omon qolsa bas,
Shahar kuysa, senga pisand ham emas!"
Baxildan bo'lak kim o'zin to'yg'azar.
Kishilar yomon holda, ochdir agar?
Ko'rarkim, g'ariblar yutar qon mudom,
Shu insofmi, boylar yesa gar taom?
Kasal boqqan odamni sen dema sog',
U ham qayg'u birlan kasaldir shu choq.
Borur garchi manzilga do'stlar yetib,
Yetolmas keyin qolguvchilarni deb.

* * *

Yomon jinsidan qolmadi yaxshi nom,
Yomonlar yomonlik-la bo'lg'ay tamom.

* * *

Ketib qolsa agar qo'ldan taxtu toj,
Yoqangdan olur ko'p yalang'ochu och.

* * *

Qulog'ingni tug, g'aflatingni qochur.
Eshitgil - o'liklar nasihat qilur:
Yomonlikka yurmaydi yaxshi kishi,
O'tar yaxshilik birla doim ishi.
Yomon yo'lga borar yomon har qachon,
Ko'pincha o'lur yo'lda misli chayon.
Birov foydasin ko'zlamaydi agar,
Qaro tosh bilan teng erur ul bashar.
Xato so'zladim man, ayo yaxshi yor,
Qaro toshu temirda ham foyda bor.
Ul odam uyat birla o'lsa tuzuk,
Gar undan qaro tosh bo'lsa tuzuk.
Na har kimsa yirtqichdan a'lo bo'lur,
Yomon kimsadan yirtqich afzal erur.
Aqlli kishini chin inson degil,
Agar qonxo'r erkanmi, hayvon degil.
Gar inson esa, uxlasa doimo,
Ne farqi bo'lur vaxshiydan el aro?
Agar yaxshilik tuxmini ekmadi,
Murod xirmanidan unga tegmadi.
Eshitgan emasman shu yoshga kirib:
"Yomonning jazosi bo'lur yaxshi!" - deb.

* * *

Dedi kimsa o'z o'g'liga bir zamon
(Unutma sen oqil so'zin hech qachon):
"Bil, o'g'lim, go'daklarga qilma sitam,
O'zingdan ulug' jabr etar senga ham.
Sen, ey beaql bo'ri, hech bilmading,
Meni sher yorar, deb xayol qilmading.
Edim yoshligimda ajab zo'ravon,
Kichiklarni ranjitgan erdim chunon.
Yedim bir zabardast mushtin chunon,
Kichikka musht urmasman shundan buyon".

* * *

Ajam mulkida bir qalandarsimon
Der erkan: "Ayo shoh No'shiravon!
Otangga vafo qilganida bu baxt,
Qachon senga tekkay edi toju taxt?
Sen oltinni Qoruncha yig'sang - bitar,
Qolur xayring-u, o'zgasin yer yutar".
Zamon nahsu nomardga davlat berur,
G'ariblarga qayg'u-mashaqqat berur.

* * *

Tug'ilsa tuzukdir xotindan ilon.
Tug'ilguncha devi laindek yomon.

* * *

It a'lo erur mardumozordan,
Kishilarni kiynovchi makkordan.

* * *

Butunlikcha dushmanga o'tmay yaroq,
Qo'lingda uni singani yaxshiroq.

* * *

Qalam boshiga kelsa o'tkir pichoq,
Tili bo'lgay o'tkir, yana yaxshiroq.

* * *

Eshit dushmaningdan xatoigni butun.
Ko'ringay go'zal har ishing do'st uchun.

* * *

Yo'ling ustida choh qazilsa agar.
Qilur do'st undan seni boxabar.
Yo'l ozganga, desang, so'ling to'g'ridur,
Bu unga jafoyu sitam, zulm erur.
Xatongni demaslar yuzingga agar,
Jaholat-la aybingni dersan hunar.

* * *

Shu xil bo'lki, olam desin ofarin,
Yomon demasin o'lganingdan keyin.
Yomonlik bilan umr o'tkazmagil,
Senga toki yog'dirmasin la'nat el.

* * *

Gar ish aqlu tadbir bilan ham bo'lur,
Yarash yov bilan jangdan afzal erur.
Yengish yovin zo'r birla bo'lsa qiyin,
Kerak zar-la yopmoq urush eshigin.
Agar xavf esa senga yov zarbidan,
Tilin bog'lagil lutfu ehson bilan.
Zarar o'rnida yovga soch siymu zar,
Yov o'tkir tishin lutf bo'lmas etar.
Bo'lur chalsa tadbir nog'orasini,
Qilur xiyla zo'rlarni chorasini.
Chunon aylagil dushmaning hurmatin,
Keyin po'stini shil, topib fursatin.

* * *

Agarchi esang qanchalik pahlavon,

Urushdan yarash yaxshidir har qachon.
Kuching yetmasa gar murosa bilan,
Ravodir ko'tarsang qilich unda san.
Bo'yin tovlama, yov yarash istagach,
Jilov tortma, dushman kurash istagach.

* * *

Temir qal'ani ag'darur sa'y etib,
Qari fikru yoshlar qilich ishlatib.

* * *

Agar yovdan ortiq esang qancha ham,
Tunab qolma yov yurtida hech dam.

* * *

Jahongashta er mardu oqil bo'lur,
Ko'p issiq-sovuqlarni ko'rgan erur.

* * *

Gar obod bo'lsin, desang, yurtu el,
Ulug' ishni har kimga topshirmagil...
Kichiklarga topshirmagil katta ish,
Ezolmaydi sandonni musht yoki tish...
Desangkim, harob bo'lmasin bu jahon,
Sinovsizga topshirma ish hech qachon.
Chopar ovchi it sherga payti bilan,
Urush ko'rmagan sher qochar tulkidan.

* * *

Turish beg'am ikki zaif yov aro
Emas mardlik, ushbu ishdur xato.
Agar til biriktirsalar har ikov,
Bo'lurlar jasoratli bir katta yov.
Birin makru nayrang-la ovora qil,
Birin yanchibon, mayli, yuz pora qil...
Yoving dushmani birla do'stlik zarur,
O'shanda jahon unga zindon bo'lur.
G'ajir bo'rilar bir-birini agar,
Shu fursat aro qo'ylar orom olar.

* * *

Qilich qo'lda-yu, jangda bo'lganda ham,
Unutma yarash yo'lini hech dam.
Bilimli, hunarmand, bahodir eli,
Qilur zohiran japg, yarashda dili.

* * *

Shirino'z g'arazgo'ydan etgil hazar,
Bo'lur, ehtimol, ul asalda zahar.

* * *

Agar bandi ichmoqchi bo'lganda qon,
Sitamgarning qonin so'rar beomon.

* * *

Kishilarga bildirmagil niyating,
Ko'pincha bo'lur gaptoshar ulfating.

* * *

Jahonni musaxxar qilurman desang,
Xaloyiqqa shafqat qil-u, qilma jang.
Agar lutfu shafqat-la ish bo'lsa hal,
Yomonlik kerak bo'lmagay hech mahal.

* * *

Tiriklikda g'am ye, sen o'lgan ko'noq,
O'g'il-qizda meros bo'lur ishtiyoq.
Butun boyliging elga bergil - yesin,
Seniki emas o'lganingdan keyin.

* * *

Tilanasliging shukrin et doimo,
Quruq qo'yma eshikka kelsa gado.

* * *

Yetimlar boshiga mudom soya sol.
Arit gardu changin tikan kirsal ol.
Yetim tursa oldingda ma'yusdil,
O'z o'g'lingni hatto o'pib suymagil.

Hikoyat

Dedi bir aqlikka bir hiylakor:
"Chuqur loyga botdim, ketibdir mador.
Bir ablahdan olgan edim o'n diram.
Yurak ichradir necha botmon bu nam.
Tunim doimo qayg'u birla o'tar,
U soyam kabi kunduzi ergashar.
Ko'ngil ranjitar har gasht har zamon,
Yurakni teshar so'zi xanjarsimon.
Xudo unga bermabdi go'yo ko'mak,
Butun umrida o'n diramdan bo'lak.
Qun o'tkazmayin doimo har sahar.
Kelib beibo eshigimni qoqar.
Surarman xayol: "Qaysi himmatli er.
Degayki: "Mana, ol-u, qarzingga ber!"
Bu so'zni eshitgach, u nuroniy chol
Berib ikki tilla, dedi: "Ola qol!"
U yolg'onchi pulni qo'liga olib,
Qadar ketdi zardek yuzi ochilib.
Birov cholga dediki: "Bilgil uni,
Kishi yig'lamaydi u o'lgan kuni.
Egarlab minar sherni ham ul gado,
Abu Zaydni ham mot etar mutlaqo".
U dam obid achchig'lanib dedi: "Bas!
Bu ishning siri menga ma'lum emas.
Agar to'g'ri bo'lsa, uni yoqladim,
Elu yurt aro hurmatin saqladim.
Agar so'zi yolg'onu hiyla erur,
O'zing o'yla, oxir pushaymon bo'lur.
Men o'z hurmatim saqladim zar bilan
U yolg'onchiyu hiylagar makridan.
Qil ehson yomon birla yaxshiga ham,
Ham ehson bo'lur, ham bo'lur dafi g'am".

Masal

Qiziga dedi yaxshi dehqon ayol:
"To'kinlikda ochlikni qilgil xayol.
Idishlarni suv birla to'lg'az tamom,
Ariqdan oqib turmagan suv mudom.
Butun davlating do'st uchun sochmagil,
Zarar berguvchi yovdan andisha qil.

Quruq qo'l qilolmaydi mushkulni hal,
Uzun qo'l o'yar dev ko'zin har mahal.
Boru yo'qni sarf etganingdan keyin,
Topilmas kerak vaqtida bir tiyin.
Gadolar-ku to'ymaydi xayring bilan,
O'zing och qolursanmi, deb qo'rqaman".

Hikoyat

Do'kondan olib Shibliy bir xalta don,
Ko'targancha kishloqqa yetdi shu on.
Chumolini ko'rdiki, sarson bo'lib,
Yurar doni ichra parishon bo'lib.
Butun tunda uyqusi kelmas edi.
Olib keldi o'z joyiga, so'ng dedi:
"Muruvvatdan emas chumolini man
Ayirsam, judo qilsam o'z joyidan".
Ezilgan kishilar dilin shod qil,
O'shanda diling nyud bo'lur muttasil.
Eshit nok Firdavsiydan sen buni,
(Xudo yorlaqab, raxmat etsin uni):
Chumolini ranjitma aslo dilin,
U ham jonlidir, hammaga jon shirin.
Bosib, ezma ojizni, ey pahlavon,
O'zing ham bo'lursan biroq notavon,
Yomon holga tushganni shod et dilin,
Unutma, yomon kun kelib qolmasin.
Qara: sham' parvonaga o't qo'yib,
O'zi ham el oldida bitdi kuyib.
Birov balki sendan ko'ra notavon,
Birov balki sendan ko'ra pahlavon.
Kerak, ey o'g'il, vahshiy oviga zo'r,
Ko'ngil ovlamoliikka ehson zarur.
Qilib yaxshilik, bog'la yov bo'ynidan,
Kesilmas bu zanjir sira tig' bilan.
Yomonga yomonlik qilur do'sti ham,
Ekib arpa, kim qildi bug'doy g'aram.
Solursan agar do'stga ranju alam,
U kelmaydi, boqmaydi rangingga ham.
Agar yovga kim shafqatin ko'rsatar,
U ham oxiri balki do'sti bo'lar.
Yomonlarga ham mehribon bo'l mudom,
Tuzing oqlagay itga bersang taom.

Hikoyat

Eshitdimki, bir mardi pokizadil,
Yurardi Rum atrofida muttasil.
Jahongashtalar-la edim hamsafar,
Ziyorat qilurmiz uni, dedilar.
Unib yuz-qo'lin har kishini u dam,
Qilib hurmat o'tqazdi, o'tirdi ham.
Badavlat ekan, bor ekan unda baxt
Va lekin o'zi msvasiz bir daraxt.
Yuzi issig'-u so'zda xo'b mehribon
Va lekin o'chog' muzda, suvda qozon.
U uyg'oq butun tunda toat bilan,
Biz uyg'oq - qorin och, qanoat bilan.
Tong otgach, eshik ochdi bel bog'labon,
O'shal kechagidek shirin, mehribon.
Bor edi shirin bir pigit - sho'xchan.
Musofir shu manzilda u biz bilan.
Dedi: "Bo'sa" harfin tuzat, so'ngra ber.
Gado bo'sadan to'shani yaxshi der.
Qilib ehtirom, kavshim artish nadur?
Berib menga non, mayni kavsh ila ur!"

Hikoyat

Eshitdimki, Hotamda bir timqaro
Oti bor ekan, uchquru bebaho.
Momoguldirakdek ekan kishnashi,
Chaqindan o'zar unga mingan kishi.
Chopar tog'u sahroga u ter sochib.
Bulut, derding, o'ttanda og'zin ochib.
U seldek borar cho'lda borgan sayin.
Qolar chang kabi yel ham undan keyin.
Shaharlarda Hotamni el maqtashar.
Uning madhi sultoni Rumga yetar.
Saxiylikda hech tengi yo'q derdilar,
Uchar otini maqtashar erdilar.
Oti - kema daryoda, cho'l ichra - sel,
U uchganda shunqor ucholmas dadil.
Dedi shunda dono vaziriga shoh:
"Uyatdir adovat qilish begunoh.
Tilay zotli tulporini bir safar,
Muruvvat-la topshirsa Hotam agar.
Bilurman, saxiydir, agar rad qilur,
Dovul bongidek shuhrati puch erur".
Ilmli bir oqilni Tayga shu on,
Qo'shib o'n kishi birla qildi ravon.
Bulut yosh to'kardi yer o'lgansimon,
Shamol qaytadan keltirar erdi jon.
Yurib yetdi Hotam uyiga alar,
Degil, suvga yetdi yurib tashnalar.
So'yib otu qandu shakar to'kdi u,
Etaklab to'la nuqra - zar to'kdi u.
Tunab ul kecha, ertasi ertalab
Ular etdilar otni undan talab.
Parishonlik o'rtardi Hotam dilin,
U hasrat tishi birla tishlab qo'lin,
Der erdi: "Ayo oqili zufunun,
Burunroq menga aytmding ne uchun?
Men ul uchqur otimni so'ygan edim,
Pishirgan edim, sizga qo'ygan edim.
Kecha bo'ldi-ku shuncha bo'ron-shamol,
Borish qo'raga bo'ldi amrimahol.
Qo'limda yo'q erdi shu otdan bo'lak,
Shuni poiloj kecha etdim gazak.
Menimcha, muruvvat emasdi shu on,
Qarab tursam-u, yotsa och mehmon.
Saxinlik-la dunyoda qolsin otim,
Agar ketsa ham, mayli, shunday otim".
Jo'natdi berib molu zar shul nafas,
Tabiiy erur xulqu, kasbiy emas.
Yetib Rumga Tay mardidan xushxabar,
Dedi shah: "Yasha! Ofarin! Top zafar!"
Shu birlan tug'al dema Hotam ishin.
Eshit yaxshiroq qissasin aytayin.

Hikoyat

Birov eshagi loyga botgan edi,
Bu ishdan dili qonga botgan edi.
Yog'ar erdi yomg'ir, edi cho'l sovuq.
Butun yer yuzida qorong'u quyuq.
Tong otguncha ahvoli og'ir edi,
So'kindi - tiliga ne kelsa dedi.
So'kar edi shohu gadolarni ham,
Bugun dushmanu oshnolarni ham.
Kelib qoldi shu lahzada podsho,
Biroq sezmadi u kishi mutlaqo.
Eshitgach uning ko'p haqoratlarin,
Biror so'z demoq shohga bo'ldi qiyin.
Uyaldi-yu, boqdi sipohlar tomon,
Dedi: "Nega so'kkay meni ko'p yomon?"

Biri aytdi: "Ey shoh, boshin kes shu dam,
Bu dard o'tmasin to bo'laklarga ham".
Nazar soldi shoh unga ushbu mahal:
Eshak loyda, kulfatdadir kambag'al.
Shu damda g'aribning gunohin o'tib,
Unutdi haqoratni - jahlin yutib.
Zaru otu to'n berdi ushbu mahal,
Qasos vaqtida mehr qanday go'zal!
Biroq dedi: "Ey beaql, sodda chol,
Tprik qolmog'ing erdi amrimahol".
Dedi: "Shikva menga muvofiq edi".
Shu qilgan ishi shohga loyiq edi.
Yomonlikka oson yomonlik qilish,
Yomonlik uchun yaxshilik - og'ir ish.

Hikoyat

Birov sarf etishga botinmas edi,
Puli ko'p-u, hech ko'zi qiymas edi.
Yemas erdi och yursa ham tunu kun,
Na bergay edi xayru ehson uchun.
O'zi - zar asiri kecha-kunduzi,
Kishan solgan oltinga ham shul o'zi.
Bilib oldi o'z o'g'li poylab sekin,
U nokas ko'p oltinlarin ko'mganin.
Eshitdim: zar o'rniga tosh berkitib,
Sovurmish butun zarni barbod etib.
Saxiy mardda u zar tura olmadi,
Sal o'tmay qo'lida sira qolmadi.
O'zini bo'g'ardi ota dod etib.
O'g'il bazm etardi dilin shod etib.
Ota uxlamay, tunda yig'lar edi,
O'g'il ertalab kuldi, unga dedi:
"Ota, zarni yig'mang-u, yeng, deydilar,
Zaru toshni ko'mganda teng, deydilar.
Qazib konlar, oltin olurlar nechun?
Maishat uchun, xayru ehson uchun!
Xasis ilgida bo'lsa oltin agar,
Hali ham u tosh bag'ri ichra yotar.
O'g'il-qiz bilan yemasang zar turib,
Sira nolima qarg'acha oh urib.
Baxil boyda har qancha ham bo'lsa zar,
Ilondek bu ganj uzra bosib yotar.
Ilondek zar ustida titrar baxil,
Shuning-chun turar oltini qancha yil.
Ajal topish-la yanchadirlar uni.
Zarin taqsim etgaylar o'lgan kuni.
Chumoliga o'xshab, tashib ye bu kun,
Seni go'rda qurtlar yemasdan burun".

* * *

Aql qancha zo'r bo'lsa-yu nomdor,
Uni ishq zo'ri qilur tor-mor.

* * *

Bo'lak yaxshi nom istama - shul yetar:
Seni yaxshi odam desa, el agar.

* * *

Aqlli ulug'lar jahonda sira,
G'ariblarga kulmas qilib masxara.
Ko'pincha ulug'lar tushib qoldilar,
G'ariblar ular o'rmini oldilar.

* * *

Agar mard esang, hech maqtanmagil,
Zafar topmadi maqtanib kimsa, bil.

* * *

Piyozi po'st erur - boshqa hech narsa yo'q,
U o'ylar o'zin pistadek mag'zi to'q.

* * *

Kishi pul bilan bo'lmagan muhtaram,
Eshakdir eshak gar ipak kiysa ham.

* * *

Shirin so'zli shilgay g'anim po'stini.
Dag'al so'zli dushman qilur do'stini.
Yuzin kimki sandon kabi aylamas,
Boshi bolg'adan hech zarba yemas.
Zafar topsa bo'lgay shirin so'z bilan,
Azobda yurar kim dag'also'z ekan.
Shirin so'zni urgan mudom Sa'diydan,
Dag'al so'zli odam o'tar g'ah bilan.

* * *

O'zingga yomonlikni ko'rma ravo,
Dag'al so'zli badbaxt bo'lur doimo.
Agar yo'q ekan senda molu puling,
Bu Sa'diycha ham yuqmi shirin tiling?

* * *

Ulug'lar jafosini ko'rmay kishi,
Kichiklar azob cheksa ham yo'q ishi.

* * *

Cho'pon yaxshilik birla qo'ygil qadam.
Yomonlashga so'z topmasin muttaham.
Og'ir botsa dushman so'zi, angla, bil.
Ne aybingni aytsa, shuni qilmagil.
Shu odam bo'lur menga chin do'stu yor -
Ki, aybim yuzimga desa oshkor.
El oldida bo'lg'ung aziz, mo'tabar,
O'zingni desang hammadan kam agar.

* * *

Zafarning kalidi senda yo'q ekan,
Ochilmaydi baxt eshigi zo'r bilan.

* * *

Dema har sadaf qornidan dur chiqar,
Va yo o'q nishonga tegar har safar.

* * *

O'ziga qarab ish qilur mardlar,
Uyalmas kishi lof urmas agar.

* * *

Qaroqchi erur yaxshiroq, ey jiyan,
O'zini pok ko'rsatgan iflosdan.
Riyo sirtiga bermagil e'tibor,

Bu suv ostida balchig'u loyqa bor.

* * *

Ko'ringay kiyim avrasi har qachon,
Shuning-chun u yaxshi-yu, astar yomon.

* * *

Kerak bo'lsa senga agar yaxshi nom,
Yasatma tashing, dilni pok et mudom.

* * *

Yesam arpa nonini mehnat bilan.
Shirindir birovlarining oq nonidan.

* * *

Qorin bandasi uxlamas tun bo'yi,
Birov jaz-juzida qulog'i, o'yi.

* * *

Bol izlab, yeguncha ari nashtarin.
Qanoat bilan shinni yesang shirin.

* * *

Dili g'amli shohdan jahonda, axir,
Dilida g'ami yo'q gado yaxshidir.

* * *

Diling kuymasin noumidlik bilan,
Yorug' kun tug'ilgay qaro kechadan.

* * *

Yetuk durshunoslar sadaf singari
Ocharlar og'iz kelsa so'z gavhari.
So'zi birla ovora sergap bari
Nasihat eshitmaydi kar singari.
Agar so'zlasang betinim, zo'r berib,
Qolursan birov so'zidan benasib.
Durust-nodurust so'zga sabr aylagan
Erur yaxshi hozirjavob laqmadan.
So'z inson kamolotidir, yaxshi bil,
Bilib so'zlagil, hurmating to'kmagil.
Yaqin bo'lma sergap kishilar bilan,
Aql ishlatib, ozu soz so'zla san.

* * *

Yuz o'q otding-u, hammasi ham xato,
Bir o'q birla ur - bo'lsa aqling raso.
Kishi yo'qda ham demas ul so'zni mard,
Agar fosh bo'lganda keltirsa dard.
Birov g'iybatin qilmagil zinhor,
Devordan pari ham eshitguvchi bor.
Diling shahru, sir - bandi bu shahraro,
Shaharni ochiq ko'rmasin mutlaqo.
Tilidan yonar sham' majlis aro,
Shuning-chun tilin yig'di aqli raso.

* * *

Ajab totlidir barahmanning so'zi:

"O'zin hurmatin saqlar odam o'zi".

* * *

Mabodo siring bo'lsa fosh el aro,
Yopish qayta mumkin emas mutlaqo.

* * *

Alangaki, boshdan-oyoq til erur,
Bir oz suv bilan o'chirilsa bo'lur.

* * *

Hunarmand kishi men hunarmand demas,
Uni ta'rif aylar hunar har nafas.

* * *

Agar senda mushk yo'q, jim o'ltir, axir.
Agar bo'lsa, hidning o'zi aytadir.

* * *

Yomon so'zga solma quloq hech qachon.
Ko'zing yum yalang'ochni ko'rgan hamon.

* * *

O'zini tutar yaxshi dono kishi,
Birovning ishi birla bo'lmas ishi.

Hikoyat

"Hazilmi?" - dedim, kimsa so'zlar edi,
O'g'irlikni g'iybatdan a'lo, dedi.
Dedim unga: "Ey fikri xom, beaql,
Ishonmaydi bu qissaga aqlu dil.
O'g'irlikda ne fazl ko'rgan eding,
O'g'irlikni g'iybatdan afzal deding?"
Dedi: "Chunki o'g'ri jasorat qilur.
U mardlik kuchi-la qorin to'yg'azur.
Ne orttirdi g'iybatchi g'iybat qilib?
Faqat qoldi o'zi xijolat bo'lib".

* * *

Vazifa yer erdim Nizomiyadan,
O'tardi kunim darsu takror bilan.
Mudarrisga bir kun ayoni dedim:
"Hasad qildi menga faloni, - dedim.
Qachonkim, so'zim ma'ni dodin berur,
Negadir, uning qorni tars yorilur".
Mudarris so'zimni eshitgan edi,
Kelib achchig'i, ancha afsus yedi.
Dedikim: "Seningcha hasad-ku xunuk,
Degil, senga kim aytdi - g'iybat tuzuk?"
Kishilarni har kimki, derkan yomon,
Seni ham u yaxshi demas hech qachon.
Yomonlaydi har joyda orqangdan u,
Birovlarni ham u yomonlardi-ku!

* * *

Demishlarki, uch shaxsga g'iybat ravo,
Oshib ketsa to'rtinchisiga - xato.
Biri podshohu jafokor erur,
El undan hama vaqt bezor erur.

Uning zulmin aytmoq halol dam-badam,
Bilib, ehtiyot bo'lgusi xalq ham.
Ikkinchi hayosiz - yashirma uni,
O'zin pardasin yirtadi har kuni.
Hovuzga tushishdan uni to'smagil,
Quduqda yiqilgay, axir, yaxshi bil.
Uchipchi - tarozuda aldoqchilar,
Yomon fe'lidan qancha bilsang - gapir.

Hikoyat

Eshitdimki, bir o'g'ri cho'ldan kelib,
Seyistonga kirdi sayohat qilib.
O'ziga kerakli yemak ichmakin.
Sotib oldi baqqoldan u qanchasin.
Tarojudan baqqol o'g'irlab edi,
Solib shovqin, ul o'tri shunday dedi:
"Agar tunda yo'lni to'sar o'g'rilar,
Seyistonlik kunduz kuni yo'l to'sar.
Yomon fe'l uchun tunda ham qo'rqaman,
Bu kunduz kunn qo'rqmagay kimsadan".

* * *

Kishilarki, dushman so'zin keltirur,
Ular dushmaningdan yomonroq erur.
Kishi eltsa do'stiga dushman so'zin,
Qilibdir u dushmanga chin do'st o'zin.
Turib yuzma-yuz so'z deyolmaydi yov,
Meni so'z bilan qo'rqitolmaydi yov.
Yov aytolmagan so'zni menga ayon
Degaysan, shuning-chun sen undan yomon.
Chaqimchi yana eski kek qo'zg'atar,
Yuvoshgan ko'ngilni g'azablantirar.
Sen unga yaqinlashma mumkin qadar -
Ki, o'lgan ilon boshini qo'zg'atar.
U zindon aro gar kishanda yotir,
Chaqib yurganidan shu ham yaxshidir.

* * *

Urush - ikki tan o'rtasida olov,
Chaqimchi o'tin toshiguvchi moxov.
Erur hammadan ham chaqimchi yomon,
Uningdek razil ko'rmadim qech qachon.
Buzuq fikru nodonligi birlan ul,
Buzar ikki do'st o'rtasini nuqul.
Bular do'stlashurlar bo'lib jonu dil,
Uyatga qolur o'rtada ul razil.
Ikki tan aro kimki o'tlar yoqar,
Aqldan emas bu, o'zi ham yonar.
Bu Sa'diycha xilvatda kim zavq olur,
Tilin ikki olamdan ul tortadur.

* * *

Xotin bo'lsa gar poku aqli raso,
Erin shoh etar garchi bo'lsa gado.
Ko'ngilga muvofiq esa yor agar,
Zafar sozini chalki, topding zafar.
Agar g'amgusor ersa yor tun bo'yi,
U g'amni dema g'am, yesang kun bo'yi.
Agar bo'lsa yoring inoqu go'zal.
Murodingga yetding - muroding o'shal.
U bo'lsa shirinso'zli-yu pokdil,
Uni yo xunuk, yo go'zal demagil.
Dili pok xotin agarchi xunuk,
Yomon xulqli xushnamodan tuzuk.

Eri sirka bersa, u halvo degay,
Na halpo yebon erga achchig'lagay.
Dil oromidir yaxshi bo'lsa xotin,
Yomon bo'lsa, undan Xudo saqlasin!
Esa to'ti bir zog' bilan hamqafas,
Qafasdan qochish istagan har nafas.
Boshingni olib ketgil overavor
Va yo bo'yning eg unga bechoravor.
Kovush tor esa, kiymagan yaxshidir,
Urush bo'lsa uy, turmagan yaxshidir.
Yomon xotini bo'lsa uyda agar,
Hayitdek bo'lur ul kishiga safar.
Ul uy ichra yop shodlik eshigin,
Urush birla shovqin chiqarsa xotin.
Xotin bo'lsa nodonu ham kiriyurak,
Xotinmas, boshingga balodan darak.
Xotinning yomoni og'ir bir azob,
Xotin yaxshisi yoru olijanob.

Hikoyat

Birov xotini birla nosoz edi,
Kelib keksa donoga nolib dedi:
"Yukim ko'p og'ir dushmanim dastidan,
Chunonki, tegirmon toshin ostiman".
U dono dedikim: "Kerakdir chidam,
Chidam bersa, er bo'lmagay bo'yni xam.
Tegirmon toshisan-ku kirganda tun.
Tong otganda bo'lmaysan osti nechun?
Uzib gulni, bo'lgan esang shodmon,
Tikan dardini tortasan begumon.
Yesang bir daraxt mevasin muttasil.
Tikan sanchilib qolsa, dod demagil!
Ko'cha sevgisi uyni barbod etar.
Uyingni xotin mehri obod etar".

* * *

Jahondan kechib, g'orda joy topsa ham,
Butun el yuziga eshik yopsa ham,
Qutulmas kishi ayb izlovchidan,
Tuzukmi, buzuqmi - yoshingan bilan.
Bo'lur kuch bilan to'ssa daryo yo'lin,
To'sish mumkin ermas chaqimchi tilin.
Va yo tulkilik, xoh sherlik bilan
Qutulmaysan aslo ular dastidan.
Agar kirsaxilvat aro har kishi,
Uning bo'lmasa kimsa birlan ishi.
Malomat qilurlarki, aylab riyo,
Qochar xalqdan dev kabi doimo.
Agar bo'lsa xushsuhbatu pokdil,
Demaslar bu pokiza yoki asil.
Qiyin kunga qolsa biror kambag'al.
Degaylar bu badbaxt erur har mahal.
Kuyib yig'lasa bir g'aribu gado,
Degaylar bu qashshoq bu baxti qaro.
Kelib qolsa bir boy va yo podshoh,
Degaylar buni bizga berdi Xudo.
Bu manmanlig-u kibr tokay bo'lur,
Bu shodlikni orqasidan g'am kelur.
Biror kambag'alga kelarkan agar,
Sharaf, omadu baxtu tole, zafar,
Adovat-la tish qayrashurlar hadeb -
Ki, dunyo boqar pastu nomardga deb.
Ishing o'ng kelibroq yurishsa agar,
Haris yoki dunyoparast deydilar.
Qo'l urmas esang ishga himmat qilib,
Tekinxo'r deyshigay malomat qilib.

Bu ezma, degaylar, gapirsang seni,
Bu - surat, degaylar, jim ersang sani.
Demaslar chpdamlini bu mard ekan,
Degaylar boshni egdi qo'rquv bilan.
Agar bo'lsa boshida mardonalik,
Qocharlar debon bu devonalik.
Agar kam yesa, ta'n etib deydilar:
"Bo'laklar uning molini yeydilar".
Agar u topib yesa yaxshi taom,
Qorin bandasi bo'ldi, derlar mudom.
Qilib balki ortiqcha ziynatdan or,
Kiyib yursa oddiy libos moldor,
O'zidan ayar pulni, badbaxt debon,
Qilurlar unga tilni xanjarsimon.
Uyini agar rang-barang naqsh etar,
Taniga agar toza shohi kiyar,
G'arazgo'ylari ta'n etib har kuni,
Yasangay xotinlarcha, derlar uni.
Safar qilmasa gar dili pok er,
Safar qilguvchi oni nomard der.
Degaykim, xotin oldidan chiqmagay.
O'zin aqlini to hanuz yig'magay.
Jahongashtaning ham shilib terisin,
Degaylar u sarsonu badbaxt, lain.
Uning bo'lsa baxtdan nasibi agar,
U bo'lmas edi darbadar, deydilar.
Xotinsiz yigitni g'ajib bir talay,
Degaylar: gunohiga yer titragay,
Xotin olsa, derlarki, nafsi uchun
Eshakdek botib qoldi loyga bu kun.
G'ajirlar ko'rimsizni ham har nafas,
Go'zallarni qanday ular chaynamas.
Agar chiqsa jahonga biror on seni.
Degaylar bu johil, parishon seni.
Birov birla qilsang murosa agar,
Buning g'ayrati asli yo'q, deydilar.
Degaylar saxiyga nasihat qilib:
"Puling qolmagay, sarf qilgil bilib".
Qanoat bila yursa, qo'ysa qadam.
Malomatga qolgay u bechora ham.
Degaylar u nokas otadek o'lar,
Ketar qayg'u tortib, bu dunyo qolar.
Kishidan kishi hech qutulmas ekan,
Asir o'z ilojni topar sabrdan.

Hikoyat

Bir oqil, hunarmand yigit bor edi,
Juda notiqu mardu hushyor edi.
Xudojo'yu pokizadil, xush qiliq.
Qaro mo'ylabi husnixatdan silliq.
Lug'atdon, bilimdonu ilmi yetuk.
Deyolmasdn "sh" harfin ammo tuzuk.
Bir oqil kishiga dedim bir kuni:
"Tishi yo'qmi oldin qatorda uni?"
Mening bu so'zimdan qizardi shu on,
Dedi: "Nu kabi so'zni aytmoq yomon.
Ko'zingni yumib bir talay fazlidan,
Ko'rib birgina aybini aytasan".

Hikoyat

Yiqitdi cho'chib oti shahzodani,
Taniga botib ketdi bo'yni ani.
Tanu bo'yni bir bo'ldi fildek shu dam,
Tan aylanman, aylanmagay kalla ham.
Tabiblar turar erdi hayratda jim,
Faqat shunda yunonlik dono hakim

Tomirlarni ishqab, boshin tikladi,
Yo'q ersa, u go'rga tiqilgay edi.
Eshitti - unutmish uning xizmatin,
Gapirmas emish hech uning qiymatin.
Shoh oldiga keldi yana bir mahal,
U pastkash nazar solmadi loaqal.
Uyaldi u donoyu, egdi boshin,
Eshitdim, o'zicha der erdi sekin:
"Burab bo'ynin ul kun iloj qilmasam,
Bu kun yuz o'tirmasdi mendan bu ham".
Qulidan yubordi u bir doruni,
Solib o'tga, hidlash kerak, deb uni.
Shoh oldiga yetkuzdi kul ham shu on,
Uning aytganin qildi shoh shul zamon.
U dam shohni chuchkurtdi hidli tutun,
Taniga yana botdi boshu bo'yin.
Hakimga uzr aytgali ul kuni,
Ko'p axtardilar - topmadilar uni.
Kishi yaxshi kun qadrini bilmagay,
Yomon kun agar boshiga kelmagay.
Sovuq yilda qishlash g'aribga og'ir,
Badavlat kishi qayda sezgay, axir.
Agar yo'lda chaqqonsan u dovyurak,
Shukr qil, yurolmasga bergil ko'mak.
Qarilarga yoshlar ko'mak aylasin,
G'ariblarni davlatlilar qo'llasin.
Suv qadrini sen kemachidan ko'ra,
Quruq cho'ldagi tashnalardan so'ra.
Kishi dard chekib to kasal bo'lmagay,
Tani sog'lik qadrini bilmagay.
Qorong'u kecha ko'p uzangan bilan.
Pa bplsnn uyida qotib uxlagap.
Isitma azobida o'tkarsa tun.
Shu odam bilurkim, tun ermish uzun.
Xo'ja endi turdi - chalingach dovul,
Na bilgayki, qanday tun o'tkazdi qul?

* * *

Yomon ketidan tushmagil avvalo,
Tushibsanni, mahv et uni mutlaqo.

* * *

Tili bo'lsa edi o'likda agar,
Der erdi qilib dodu faryodlar:
Umr o'tdi bizlarda g'aflat bilan,
Qo'lingdan bu fursatpi boy berma san!

* * *

Ming afsuski, shunday ajoyib hayot,
Yashindek o'tib ketdi tez, besabot.
Piyola sinib, unga tushsa qadoq.
Uning narxi tushgay o'shal ondayoq.

* * *

Umiding agar ersa xirmon qilish,
Ekinni qil o'z vaqtida parvarish.

* * *

Malomat bilan qilma umringni hayf,
Shu fursat g'animatdir, "Alvaqtu sayf!"

* * *

Bu bog' sarvi qancha baland bo'lsa ham,
Boshini ajal yeli qilguvsi xam.
Topar voya o'ttiz yil ichra nihol,
Yemirgusi bir zumda qattiq shamol.
Jigarni kabob etdi bu ikki bayt,
Rubobchi o'qirdi esimda u payt:
"Ming afsuski, bizsiz kelur ko'p bahor,
Ochilgay kulib, yashnagay lolazor.
Kelur fasllar qancha yillar, esiz,
U vaqtlarda biz g'ishtu tuproqmiz..."

Hikoyat

Topib oldi bir tillo g'isht bir kishi,
Xamisha xudojo'ylik erdi ishi.
To'sib aqlini, qildi tillo garang,
Bu savdo bilan qalbini bosdi zang.
Butun tun bo'yi o'yicha der edi,
Tuganmas umr bo'yicha der edi:
"Yalinmoq, tilanmoq bilan qomatim
Birovga egilmas, ketib hurmatim.
Solay osti marmar ajoyib bino,
To'sin, vassa, shamshodu ud, hokazo.
Solay bir go'zal hujra do'stlarga xos.
Ochay bog'dan eshik, yozay soz palos.
Zerikdim bu yirtiq-yamoq dastidan.
Uchoq taftida yondi-ku jonu tan.
Pishirsin taomlarni oshpaz kelib.
Qilay parvarish jonni rohat qilib.
Juda qiynadi jonni qattiq namat,
Yotay paru, shohida endi faqat".
Ketib aqli, bo'ldi o'zi telbatob.
Boshin mag'zi hirs panjasida harob.
Chiqib ketdi sahroga mag'rurlanib,
Na turdi, na o'ltirdi u aylanib.
Birov go'r o'yib, loy qilardi shu kun.
Bu go'r loyidan g'isht quymoq uchun.
Chuqur o'yga botdi o'shal damda chol.
Dedi nafsiga: "Ko'rgil-u, ibrat ol.
U g'ishtga diling berding, ey bexabar.
Seni loy qilib, bir kuni g'isht quyar.
Tama' og'zi ochiq erur doimo,
Yumilmaydi bir luqmadan mutlaqo.
Kech, ey himmati past, bu g'isht mehridan,
To'solg'ungmi daryoni bir g'isht bilan?
Pulu mol yig'ishni qilursan xayol,
Etib umr sarmoyasin poymol.
G'urur changi aqling ko'zini to'sar,
Kibr o'ti umr xirmoniga tushar.
G'urur surmasidan pok etgil ko'zing
Yetib go'raro surma bo'lgung o'zing".

* * *

Birov margidan bo'lmagil shodmon,
Seni ham tirik qo'ymagay bu jahon.
Bu bosh oxiri bo'lgusidir fano,
Degaysan ko'zi yo'q edi mutlaqo.
Chopardim baland tepani bir zamon,
Qulog'imga yetdi bu ohu fig'on:
"Hushing birla teshangni ohista ur,
Yuzu ko'zu boshu quloq shundadir.
U kun shoh edim - mulkim erdi jahon,
Qaro yerga tengman, qara, bu zamon".

Hikoyat

Bir ablah o'zi el haqin yer edi,

U har damda shayton lain der edi.
Ko'rib yo'lda, shayton unga dedikim:
"Seningdek razil dunyoda ko'rmadim.
Axir, dilda-ku ikkimiz do'stmiz,
Nega tig' ko'tarding menga, betamiz?!"

Shoislom Shomuhamedov tarjimalari

Yaxshilik qilgan hech ko'rmas yomonlik,
Yomon o'z joniga topmas omonlik.

* * *

Musofirga mehr ko'rguzsang agar,
Ular yaxshi noming olamga yoyar.

* * *

Ulug'lar z'zozlab g'arib odamni.
Shuhratlari tutdi butun olamni.
Ozor chekib ketsa g'arib xotiri.
Mamlakat shuhrati so'nar oxiri.

* * *

Begonadan bo'lmoq kerak ehtiyot,
Do'st qobig'i ichra uchrab turar yot.

* * *

Qattqlik, yumshoqlik yuz berar boham,
Tabib ham nish urar, ham qo'yar malham.

* * *

Mard bo'l-u, karamli, ham xushfe'l bo'l,
Haq senga, sen esa bandaga top yo'l.

* * *

Donolar so'zini yodingga olsang:
"Sinamay ish tutgan holi bo'lur tang".

* * *

O'ylab ko'r o'qini bo'shatmay kamon,
Bo'shatib, so'ng o'ylab, bo'lma pushaymon.

* * *

Ishim, so'zim to'g'ri bo'lsa, ne g'amim,
Nima desa-desin g'iybatchi g'anim.

Hikoyat

Eshitdim - adolatli bir podsho,
Kiyarkan astaru avra bo'z qabo.
Biri debdi: "Shohim, to'ning juda jo'n,
Xitoyi shohidan tikdir yaxshi to'n!"
Debdi: "Bul kiyimda tanga osoyish,
Bundan ortig'idir zebu oroyish...
Mening boshimda ham yuz-yuzlab havas,
Lekin g'azna tanho meniki emas.
Qo'shinlar haqidir boyligu gavhar,
Shoh ziynati uchun emas siymu zar.
Gar askar bo'lmasa shohidan rizo,
Vatan chegarasi qolur xavf aro.
Dehqon eshagini talab ketsa yov,

Nechuk soliq solar sulton beayov.
G'animlar talasa, shohi olsa boj,
Ne iqbol ko'radi unday taxtu toj.
Yiqilganga zo'rlik muruvvat emas,
A'lo qush chumoli donini yemas...
Kishvar olish mumkin soz xulqing bilan.
Qon to'kma jang qilib o'z xalqing bilan.
Qasam mardlik haqqi, butun keng jahon,
Sira arzimaydi yerga tomsa qon.
Eshitdim baxtiyor Jamshid podsho,
Buloq boshga yozmish shunday bir ma'no:
"Ko'plar ham bu chashma boshiga yetdi,
Suv ichdi, dunyodan ko'z yumib ketdi.
Qanchasi zulm ila olamni oldi.
Go'rga o'zi ketdi, olgani qoldi".

Hikoyat

Eshitdim, bir kuni ov qilib quvnoq.
Ulug' Doro ketmish lashkardan yiroq.
Qo'qqis ro'paradan chiqmish yilqibon.
Qo'rquvda dilidan o'tkazmish sulton:
"Boshlamasdan burun bu menga hujum,
Bir aniq o'q bilan gum qilayin, gum!"
Shunday, uni dushman etibon gumon.
O'q tortib, o'qtaldi kayoniy kamon.
Ul der: "Ey Eronu Turon podshohi.
Yurtingga tushmasin yomon nigohi.
Men shoh yilqilarin nigahboniman,
Bunda yuradirman shul xizmat bilan",
Shohning ko'ngli tushib joyiga shu choq,
Kulib unga dedi: "Ey aqli cho'loq,
Naq joningga ora kirdi farishta,
Kamonim taxt edi, o'qi sarishta".
Kulib shohga shunday debdi yilqibon:
"Vallomatdan so'zim tutmasmap nihon.
Yaxshilikka eltmas agar shahanshoh,
Ajratmasa do'stni dushmandan, e voh!
Ulug'lik shartidir, hokimlik naqshi:
Kichiklarni bir-bir bilmoqlik yaxshi.
Meni saroyingga chorlab necha bor,
Yilqilardan so'roq qilding, hukmdor!
Bu kun mehr bilan chiqqandim peshvoz,
Dushman hisob etding, boshlab tirandoz.
Mingta ot ichidan men, ey shahriyor,
Keragin taniyman adashmay zinhor.
Chunki yilqilarim bilan aqlim band,
Sen ham yilqilaring unutmaharchand".
Cho'pondan bu so'zni eshitib Doro,
Yaxshilik ko'rsatdi, ayladi duo.
Ketarkan o'zicha derdi ko'p xijil:
"Bu so'zni lavhaga yozib qo'ysin dil.
Taxtu mulk xatarda, kuchayar harif,
Shoh bo'lsa tadbirda cho'pondan zaif".

* * *

Qo'lingdan kelgancha mehnat qil, mehnat,
Mehnatdan yog'ilur boshingga rahmat.

Hikoyat

Bir itga duch keldi birov sahroda,
Tashnalikdan yotar jonsiz, aftoda.
Dastorin arqondek quduqqa soldi.
Uchiga qalpog'in boylab, suv oldi.
Xizmatga belini mahkam bog'lab u,
Majolsiz kuchukka qo'ldan berdi suv.

Uning bu ishidan tonibon xabar,
Qozidan gunohin so'rar payg'ambar.
Hushyor bo'l, zulmdan qilgil andisha,
Vafoyu karamni aylagil pesha.
Yaxshilik mukofot topdi itdan ham,
Gar odamga qilsang, bo'lmas undan kam.
Har kim o'z holicha yuk ko'tarar, bil,
Chigirtka oyog'i chumoliga zil.

Hikoyat

Shol tulkini ko'rib qoldi bir kishi,
Ko'p hayratga soldi Xudoning ishi:
"Tirikligi qanday o'tar bu ahvol,
Xo'ragi ne bo'lur - oyoq-qo'li shol?"
Shunday xayol bilan darvesh turar lol,
Bir sher chiqib qoldi tishida shag'ol.
Ovin yeb, yo'liga ravon bo'lar sher,
Qolgan sarqitini tulki to'yib yer...
Ertasiga ko'rsa, yana shu ahvol,
Tulki sarqit terib, yashar bemalol.
Buni ko'rib, yana fikr qildi u,
Yaragganga behad shukr qildi u.
Dedi: "Bundan keyin burchakka kirsam,
Kuch birla rizq topmas zo'ravon fil ham".
Mehriboning Xudo o'zi ermasmi?
Yaratgach, ul o'zi rizqing bermasmi?"
Na begona keldi uning qoshiga,
Na do'st yetib keldi g'arib boshiga.
G'oyibdan rizq kutib, yotardi yakka,
Oqibat yopishdi po'sti suyakka.
Oxir qimirlashga qolmadi majol,
Devordan bir ovoz keldi: "Quloq sol,
O'rningdan turib, sher bo'l, ey bedavo,
Shol tulki yo'lini tutma mutlaqo.
Sherdek topib ye-da, qolganin irg'it,
Odamsan, tulkidek yemagil sarqit.
Sher mag'rurligiga odamlilik payvast,
Tulkidek sudralgan sayoq itdan past.
O'zing topib yegil do'st birla boham,
O'zgalar sarqitin ko'zlama bir dam.
Bilak kuching bilan ishlabon xalol.
Himmat tarozusi o'lchaganin ol.
Mardlik ila topgil uz rohatingni.
Boshqadan ko'zlama farog'atingni.
Yoshlikda tuta bil keksalar qo'lin,
"Qo'limni tut!" debon tutmagil qo'lin.
Kimdan yengil bo'lar xalqning zahmati.
O'shanga yog'ilar Xudo rahmati.
Kimda himmat bo'lsa, unga aql yor.
Himmatsizda na hush va na aql bor.
Yaxshi ishga kelur yaxshilik javob,
Yaxshining boshiga yog'ilar savob.

* * *

O'zi kabi oddiy inson ishqidan
Oromin yo'qotar dilu qalbu tan.
Kunduz dilga fitna solur jamoli,
Kechasi band etar yana xayoli.
Ishqiga bir qadam qo'yganing zamon,
Unut bo'lar undan o'zga keng jahon.
Sevging oldida zar topolmas qadr.
Sening uchun zaru tuproq baribir.
O'zga hamdamligin diling istamas,
U bor joyga sig'mas boshqa biror kas.
Ko'zlaring ichidan berasan manzil,
Ko'zlar yumilganda manzildir ko'ngil.

Na rasvo bo'lishdan dilda musibat.
Na bir dam toqatga dilingda quvvat.
Jon istasa, labdan tutarsan jonni.
Tig'iga tutarsan bosh - sargardonni.

Hikoyat

Eshitdim sozanda soziga bir kun
Bir parivash tushib ketganmish o'yin.
Oshiqlar o'ltirar edi bo'yni xam,
O'yinchi etagi kuymish tegib sham.
Dod solib, har yoqni buzganda jonon,
"Nima bo'пти?" demish bir dili vayron.
Sening etagingga o't bo'lsa tutash,
Mening xonumonim kuydirmish otash.
Yor esang, o'zingni unut-chi, qani?
Bittadir yor ila oshiqning tani".

Hikoyat

Bir oshiq bor edi shahri Samarqand,
Shirin so'z, tilining har samari qand.
Jamoliga garov bo'lardi oftob,
Sho'xligidan taqvo asosi harob.
Husnda yakto u misoli oyat,
Go'yo parvardigor etmish saxovat.
O'tganda undan ko'z uzilmas aslo,
Do'stlari qilardi unga jon fido.
Ul esa ma'shuqa ketida soya,
Bir kuni ma'shuqa der bekinoya:
Ey xira, ketimdan yurmog'ing bejo,
Sening tuzog'ingbop qushmasman aslo.
Bilki, seni yana ko'rsam shu alfoz,
Boshingni uzayin misli qilichboz!"
Birov debdi: "Boshing olib qoch yiroq,
O'zingga yo'l tanla bundan osonroq.
Bunga erishmog'ing, nazdimda, dushvor,
Jonon, deb joningdan ayrilma zinhor!"
Bu so'zni eshitib oshiqi shaydo,
Dilidan ko'tarib ohu vovaylo.
Dedi: "Qo'y, bo'layin tig'idan halok,
Qonimga qip-qizil bo'yalsin bu xok!"
"Yor tig'idan o'ldi!" - desa do'st-dushman,
Men ulug' sharafiga yetgan bo'lamai.
Obro'yimni nohaq to'ksa ham behis,
Uning ko'chasidan ketmasman olis.
Menga "Tavba qilgil" degandan ko'ra,
Ey xudbin, sen o'zing kechirim so'ra!
Kechirgum - menga ul nima qilsa ham,
Qonimga qasd qilsa, ezgulikka jam.
Har kecha yodidan kul bo'lib, hayhot,
Tongda xush bo'yidan topurman hayot.
Bu kun yor ko'yida jon bersam oxir.
Mahsharda yonida quraman chodir".

* * *

Dilingda ishq bo'lsa, musiqa emas,
Tuya qadami ham uyg'otar havas.

* * *

Arab nolasiga cho'lda, qariya,
Raqs tushib ketar hattoki tuya.
Tuyaga kuy shuncha kor etsa, demak,
Zavqi yo'q kishi bir eshakdur, eshak.

* * *

Kimki o'z yovini do'st tutsa agar,
Uni oqil dema, u nodon ovsar.

* * *

Podshoh qizini so'ragan gado,
Ko'p tayoq yeydi-yu, ko'rar ko'p savdo.

* * *

Kim oshiqqa desa, ishqidan saqlan,
Oshiqning daliga sanchilur tikan.

* * *

Biror kimni chayon chaqsa nogahon,
Qay oqil unga der: "Tortmagil fig'on!"

* * *

Kimki nasihating tinglashdan yiroq,
Foydasizdir unga nasihat qilmoq.
Miqib ketmish kimning qo'lidan jilov,
Kor qilmas sekinroq yur, degan undov.

* * *

Ne xush so'zni aytmiş Sindbod - so'zamol:
"Ehtiros olovdir, nasihat - shamol!"
Shamoldan avj olib, gurillar olov,
Kaltak yegan yo'lbars yovroq bo'lur, yov.

Hikoyat

Yodimda - uyqusiz yotardim tuni.
Qulog'imga indi parvona uni.
Shamga der: "Men - oshiq, kuymak ravodir,
Sen yonib yig'laysan, bu ne balodir?"
"Ey mening haridor do'sti miskinim,
Asaldan ajradim, yori shirinim.
Mendan uzoqlashgach Shirin visoli,
Farhoddek boshimda otash xayoli".
Shunday deb yig'lardi jigar-bag'ri ob,
Kahrabo yuzidan oqardi selob.
Deyar: Ey da'vogar, ishq ermas koring,
Na sabru toqat bor va na qaroring.
Ketarsen shu'lamdan bir oz aylanib,
Turarman qimir etmay men o'tda yonib.
Ishq o'tida sening qanoting kuyar,
Mening bosh-oyog'im, hayotim kuyar.
Bazmni yoritgan nurimga boqma,
Dil so'xtam, ko'z yoshim ko'rgil, tutoqma".
Kamtarinlik odat aqlli erga,
Mevali shox boshi egilur yerga.
Ulug'lik chechan so'z, da'voda emas,
Balandlik xayoli havoda emas.
Tavoze' ko'tarar boshingni baland,
Takabbur tuproqqa tiqar berib pand.
Kosasi oqarmas - kimki dimog'dor,
Balandlik netaru oxir bo'lur xor.
Izzat-martabalar istasang agar,
Kishiga tashlama kibrli nazar.
Xushyor kishi xayol qilmaydi, axir,
G'urur bilan kishi topar, deb qadr.

* * *

Bilgil, to'rga loyiq emas har kim ham,
Qadrini fazlidan topar har odam.

* * *

Oddiy qamish qancha o'ssa - bo'sh ichi,
Hech qachon bo'lolmas shakar qamishi.

Hikoyat

Sotardi asal bir shirin so'z kishi,
Ko'ngilni olardi uning royishi.
Shakar qamishidek beli belboqdor,
Molinn pashshadek talar haridor.
Uning moli zahar bo'lsa ham tugal,
Talab ketishardi misoli asal.
Bir dag'al ko'z tashlab el g'avg'osiga,
Hasad bilan boqib bol savdosiga,
Ertasiga barvaqt bozorga keldi,
Asal sotmoq bo'lib, char yoqqa yeldi.
Kattakon qovoqda boshida asal,
Badburush bashara, so'zlari dag'al.
"Asal ketdi", deya qildi mashmasha,
Boliga qo'nmadi xattoki pashsha.
Kechgacha bir pullik qilolmay savdo,
Uyga qaytar yana buzilib avzo.
Burchakda o'ltirar serjahl diltang.
Hayit kun zindoni bo'lgandek tajang.
Xotini ustidan sho'x so'zlab kular:
"Badjahl qo'lida asal ham zaxar!"
Yomon xulq do'zaxga sudraydi oson,
Yaxshi xulq bixishtu jannatdan nishon.
Ariqda iliq suv bo'lsa, shuni ich,
Dag'al kishi yaxna sharbatidan kech.
Serzarda kishining manglayi tirish,
Haromdir undaylar nonini yeyish.
Badxulq qiyinlikka uchrar aksari,
Badxulqning doimo baxti teskari.
Dunyo tashvishidan kech Sa'diysifat,
Yig'ilgay senda ham ilmu ma'rifat.

* * *

Dag'al so'z eshitib kelsang hokimdan,
Tobelarni ezma qo'pollik bilan.

* * *

O'rtanma dushmaning yomonlasa gar,
Shamolga ber so'zi yolg'on esa gar.

* * *

Menga yaxshilikni istagan inson,
Ochiq aytar topsa xulqimda nuqson.

* * *

Tabib o'zi bo'lsa dardga muhtalo,
Nechuk qilgay o'zga dardiga davo.

Hikoyat

Onasiga yig'lar yo'lda bo'taloq:
"Shuncha yurdik, kerak bir oz dam olmoq".
Onasi der: "Jilov bo'lsaydi qo'lda,
Yuk bilan ko'rmasding meni bu cho'lda".
Mardliging pesh qilmoq odat bilmagil,

Mardliging ko'rsatib, nomard bo'lmagil.

* * *

Qanoat qudratli qilur insonni,
Ogohlantirib qo'y ochko'z nodonni.
Dilga xotirjamlik sol, ey besabot,
Gardon tosh tagida o'smas nabotot.
Aql yor bo'lsa, ko'p semirtma taning,
Tanni semirtirsang, bilki, o'lganing.
Aqlli kishilar boqqani hunar,
Tanasin boqqanlar hunarsiz qolar.
Odamlik xislatin kim qo'ysa ustun,
Avval o'z nafs itnn aylagay zabun.
Yeb-ichib, uxlamoq hayvonning ishi.
Shu tariq yashaydi aqlsiz kishi.
Xilvatda o'ltirib baxtiyor odam,
Ilmdan hissasini olur damodam.
Kim ajrata olmas zulmatni nurdan.
Demak, farq etmaydi u devni hurdan.
Gar ko'ra olmasang yo'l ustinda chox.
Yiqilsang, qusuri o'zingda, e voh.
Kim nafas bandasi - es-hushdan yiroq,
Hikmatdan bo'sh qolur ul to'la qursoq.
Qorin va ikki ko'z - hech to'ymas kovak.
Bo'sh yurgani yaxshi o'rama ichak.
Bilasanmi, erkin ul vahshiy hayvon,
Nafsi deb tuzoqqa tushar nogahon.
Yirtqichlikdan mag'rur qudratli yo'lbars,
Qopqopga sichqondek ilintirar nafs.
Sichqondek gar birov osh-nonin yersan,
Qopqoniga tushib, paykonin yersan.

* * *

Qanoatni odat qilsa nafs - balo,
Uning nazdida teng bo'lgur shoh-gado.
Tama' surib borar shoh tomon, zero,
Tama'dap qutulsang, o'zing podsho...
Kishini buzuq nafs etar xoru zor,
Aqling bo'lsa, nafeing qadr etma zinhor.

Hikoyat

Bir tama'gir barvaqt turib ketardi,
Xorazmshohga u sajda etardi.
Shohni ko'rib, yerga tashlar o'zini,
Qaddin bukib, yerga surtar yuzini...
Bir kun o'g'ilchasi debdi: "Otajon,
Mushkul savolnm bor - aylagil bayon:
Aytma biding qibla tomoni Hijoz,
Nechun bul tomonga o'qursan namoz?"
Qanoat birladir saraftor odam,
Tama'li kishining bo'yni doim xam.
Tama' deb to'kmagil obro'ying barin.
Bir arpaga sotma sharaf gavharin.
Kim tama'din kechar, bo'lmas sharmanda,
Na bironga tobe', na nafsga banda.
Tama' barcha do'stdan etar mosuvo,
Seni etmay rasvo, undan bo'l judo.

* * *

Nafsing murodining yo'lidan ketsang.
Ajabmas, hayotdan nomurod o'tsang.

* * *

Yo'qlikda ochlikka chidamoq uchun,
Me'yorida yegin to'kinchilik kun.

* * *

Ulug'lar - bulutli havoda quyosh,
Suvga botgan cho'g'dir hasadchi bebosh.
Ulug' yana balqib chiqar bulutdan,
Suvga cho'kkan olov yonmas kuch bilan.
Zulmatdan cho'chimas aqlli inson,
Zulmat ichida ham bor obi hayvon.

* * *

Xabaring bormi, bu suyaging - qafas,
Joning - bir qush, uning nomidir nafas.
Bu qush gar qafasdan chiqsa bir bora,
Qayta tutishga hech topilmas chora.
Xayot bir nafasdir, har dam g'animat,
Har bir damga bering olamcha qimmat.
Olamga hukmdor erdi Iskandar,
Olamni qoldirib ketdi ul qaysar.
Umrin cho'zolmadi bir nafas, bir dam,
Bir dam uchun butun olam berib ham.
Har kim ketar ekan, ekanin olar,
Undan yaxshi yoki yomon nom qolar.
Bizdan so'ng ham ko'p gul ochar bu bo'ston,
Do'stlar o'ltirishar gul terib shodon.

Sidqiy Xondayliqiy tarjimalari
Karamning madhini bayonida

Dilo, har kishi yozsa xoni karam,
Bo'lur nomdori jahoni karam.
Karam nomdori jahon aylagay,
Karam komgori zamon aylagay.
Karam moyai shodmoni bo'lur,
Karam hosili zindagoni bo'lur.
Karam ortida dunyoda kor yo'q
Va mundin issiq hech bozor yo'q.
Karamdin bori al dilin toza tut,
Jahonni saxodin purovoza tut.
Bag'ishlashda bo'l doimo mustaqim,
Ki jonni yaratquvchi bordur karim.

Saxovatning sifati bayonida

Saxovat qilur nekbaxt ixtiyor,
Ki kimsa saxodin bo'lur baxtiyor.
Qilib lutfu ehson, jahongir bo'li!
Saxovatning iqlimida mir bo'li!
Saxovatdur ahli basirat ishi,
Saxovat bo'lur yaxshining varzishi.
Saxovat emish aybga kimyo,
Saxovat bori dardlarg'a davo.
Chu qodir esang, aylag'aysan saxo,
Ki yetgay ulug'luq saxodin sango.

Baxilning mazammati bayonida

Baxil qasdig'a gar jahon aylanur
Va ar iqbol aning g'ulomi o'lur.
Va gar ilkida ganji Qorun esa,
Va gar tobe'i rub'i maskun esa.
Baxil arziyas ulki, tutqung otin.
Va gar ro'zgor etsa ham hidmatin.
Baxil molig'a qilma bir iltifot,
Baxil molining otin aytmoq ust.

Baxil ar esa zohidi bahravar,
Bihisht ahli yo'q dedi xayr ul-bashar.
Baxil archi moli bilan bo'lsa boy,
Chekar xorliq, o'yla pulsiz gadoy.
Karam ahli molin yegay hosilin,
Baxillar yegay oltunining g'amin.

Takaburning mazammati bayonida

Takabburdin albatta qil o'zni pok,
Ki, bir qo'lidin o'lursan halok.
Takabbur ulug'din o'lur nopisand,
Qilur kam muni kim esa hushmand.
Takabbur bo'lur odati johilon,
Ulug'lardin o'lmas takabbur ayon.
Takabbur Azozilni xor ayladi,
Ki la'nat chohig'a duchor ayladi.
Kishini takabbur esa xislati,
To'la bo'lg'usi boshida fikrati.
Takabbur yamonlarni(ng) bo'lg'ay ishi,
Takabbur bo'lur zoti nokas kishi.
Chu bilding, takabbur nega aylag'ung?
Xato aylag'ung va xato aylag'ung!

Ilmning fazilati bayonida

Topar ilmdin odam o'g'li kamol,
Na davlat bilan topilur bu xisol.
Tilab ilm, yonmoq kerak sham'vor,
Ki beilm topulmag'ay Kirdikor.
Bo'lur oqil odam talabgori ilm,
Ki doim qiziq keldi bozori ilm.
Kishig'a azalda esa baxt yor,
Qilur ul kimsa o'qush ixtiyor.
Talab aylamoq sanga ilm o'ldi farz,
Yana vojib istab etish qat' arz.
Yugur ilm etokig'a, mahkam qo'l ur,
Ki ilming murodingg'a qotishtirur.
Uqush aylamoq doim oqil ishi,
Ki beilm bo'lmoq bu - johil ishi.
Sanga ilm dunyou dinda tamom,
Ki koring topar ilm o'qusang nizom.

Johillar suhbatidan qochmoq bayonida

Dilo, gar esang oqilu hushyor,
Jaholat elig'a dame bo'lma yor.
Qochishlikda nodondin o'l tirdek,
Qovushmasda bo'l shakaru shirdek.
Sango ajdaho bo'lsa gar yori gor,
Yamon yordin yaxshidur sad hazor.
Agar dushmani joning oqil erur,
Go'zal do'stdinkim, johil erur.
Jahonda chu johil kishi xor yo'q,
Ki johil kabi bir yamon kor yo'q.
Yamondin yamon ishdin o'zga kelmas,
Go'zal so'zni andin kishi anglamas.
Saranjomi johil jahannam bo'lur,
Kim johil, go'zal oqibat kam bo'lur.
Sari dora johil osilg'oni xo'b,
Ki johil elin xor bo'lg'oni xo'b.
Yamondin hazar qilg'il, ey toza dil.
Ikki dunyoda bo'lg'ung andin xijpl.

Adolatning sifati bayonida

Chu Ezid sani ayladi podshoh,
Nechuk bo'lmag'aysen adolatpanoh?

Adolat erur zevari xisravi,
Nechuk adl uchun tutmag'ung dil qaviy?
Sanga mamlakat bo'lg'usi barqaror,
Adolat ishi bo'lsa gar dastyor.
Chu No'shiravon qildi adl ixtiyor
Go'zal nomi alhol erur barqaror.
Adolat nishonidur oromi mulk,
Ki hosil bo'lur adldin komi mulk.
Jahong'a adolatcha me'mor yo'q,
Biyikroq adolat kabi kor yo'q.
Sango yaxshi mundin ne hosil bo'lur,
Ki noming shaxanshoi odil bo'lur.
Saodatdin istar esang gar nishon.
Jafo eshigin bog'la elg'a, ayon.
Raiyat dilin saqlagil barqaror,
Sitamdidalarning murodin chiqor.

Zulmning mazammati bayonida

Xarob o'lg'usi zulm birla jahon.
Chu bo'stonki, ko'rg'ay xazondin ziyon.
Jafo sori mayl etma hech dar hol,
Ki mulkingni xurshidi topmas zavol.
Kishi yoqsa zulm otashin begumon,
Chiqarg'uvsi olam elidin fig'on.
Sitamdida gar cheksa bir o'tlug' oh,
Suvu loy ham bo'lg'ay andin taboh.
Qila ko'rmagil notavonlarg'a zo'r,
O'zing o'yla, oxir erur tor go'r.
Sitamdidag'a ko'rma zulming ravo,
Sani o'rtar el o'tlug' ohi bilo.
El ozorini qilma, ey tiyraroyh
Ki nogah yetar sanga qahri Xudoy.
Sitam birla bechoranp qilma tang,
Ki zolim tamusqa ketar bedarang.

Qanoatning sufati bayonida

Dilo, gar qanoatqa hamrohssen,
Farog'at jahoni aro shohssen.
Qatig'likdin, ey kambag'al, qilma dod,
Ki mol oqil olidadur, o'yla bod.
Faqirlikdin oqil nechuk qilg'ay or,
Payambarg'adur faqrdin iftixor.
G'aniyning esa oqcha oroyishi.
Vale yaxshi faqr ahli osoyishi.
Chu yo'qsan g'aniy, qilmag'il iztirob,
Shah olmas xiroj, o'lsa bir yer harob.
Qanoat hama vaqt aro xo'b erur,
Qanoat qilur kimki, mahbub erur.
Qaioatni nuridin et dilni sof,
Agar nekbaxt ersang, ey bexilof.

Hirsning mazammati bayonida

Bo'lan hirs domig'a, ey mubtalo,
Bu hirsing erur boshqa bitgan balo.
Ado qilma umringni yig'moqda mol,
Ki hamnarx guharg'a bo'lmas safol.
Kishi tushsakim hirs bandi aro,
Olur borcha umrini bodi fano.
Qilay farz amvoli Qorun sango,
Bori ne'mati rub'i maskun sango.
San oxir bo'lursan giriftori gur,
Bo'lub o'yla bechora, ey beshuur.
Nechuk kuygasen zar xayolotidan,
Chekarsen eshak kibi bori mihan.
Chekarsen nechuk ranjlar mol uchun,

Ki nogah bo'lur bir kuni sarnigun.
Chunon joy olibdur dilingda diram,
Ki zavqidan o'ldung nadimi nadam.
Bo'lubsen chunon oshiqi ro'yi zar,
Ki kezg'ung junun ahlidek darbadar.
Tillo saydig'a sanda qasd o'yla bor,
Ki hech etmag'ung yodi ro'zi shumor.
Ilohi, u nokas dilin tutma shod.
Ki dunyo uchun qilsa dinin fasod.

Shaytonning mazammati bayonida

Dilo, kimki mahkumi shayton erur,
Tunu kun gunoh ichra sarson erur.
Kishigaki, shayton esa peshvo,
Qachon yong'usidur Xudo yo'ligo?
Dilo, qilma qasdi gunah zinhor,
Ki Haq qoshida bo'lmag'ung sharmsor.
Gunaxdin qilur xushmand ehtiroz,
Ki bo'lg'uvsi suvdin shakarga gudoz.
Gunahdin qilur nekbaxt ijtinob,
Ki pinhon qilur kunni nurin sahob.
Yamon nafsingga bo'lma albatta yor,
Ki nogoh bo'lursan giriftori nor.
Gunoxdin agar yonmas ersa diling,
Bo'lur asfalasofilin manziling.
Tiriklik uyin qilmag'aysen harob.
Yamon fe'l selobidan, ey shabob!
San o'lsang agar fisqdin bir sori,
Bo'(l)massan bixisht gulshanidin nari.

Vafoning sifati bayonida

Dilo, bo'l vafo uzra sobitqadam,
Ki besikka hech yerda yurmas diram.
Vafo yo'lidin burmasang gar inon,
Aduv ko'nglida do'st bo'lg'ung chunon.
O'girma vafo ko'yidin ro'yi dil,
Ki yor olida bo'lmag'aysen xijil.
Vafo yo'lidin tashqari qo'yma po,
Ki ahhobdin arzimaydur jafo.
Bori do'stlardin judoliq xato,
Uzulmoq yorondin xilofi vafo.
Bo'lur bevafoqliq xotunlar ishi,
San o'rganma xotun ishin, ey kishi.

Shukrning fazilati bayonida

Kishiningkim, ko'ngli esa haqshunos,
Kerak yo'qki, bog'lar zaboni sipos.
Dam urma Xudo shukridin o'zgago,
Ki vojib erur shukri Ezid sango.
To'la bo'lg'usi shukrdin ne'mating,
Eshikdin kirar fath ila nusrating.
Xudo shukrini gar qiyomatg'acho
Mingidin birin qayda qilg'ung ado.
Vale shukrin aytmoq avlodurur,
Ki Haq shukri millatg'a zavar erur.
Chu band etmasang shukri Haqdin zabon,
Kelur ilkingga davlati jovidon.

Sabrning faslini bayonida

Sanga gar saburi esa dastyor,
Kelur ilkingga davlati poydor.
Saburi erur jumla mursal ishi,
O'gurmas yuzin mundin eslik kishi.
Ochar sabr maqsudi jon eshigin,

This is not registered version of TotalDocConverter

Ki qushlar qushlar qushlar qushlar,
Saburi chiqorg'ay murodi diling,
Ki ilm ahlidin yechilur mushkuling.
Saburi kalidi dari orzu,
Dag'i fotihi kishvari orzu.
Saburi ba har hol avlo erur,
Aning tahtida necha ma'no erur.
Saburi saning maqsadingni berur,
Balo va alamdin sani qutqarur.
Saburi qilursan sanga bo'lsa din,
Ki shoshmoq erur kori shayton lain.

Rostliqning sifati bayonida

Dilo, rostliq aylasang ixtiyor,
Bo'lur davlating hamdamu baxt - yor.
Boshin chulg'amas rostdin hushmand,
Ki nom o'lg'usi rostliqdin baland.
Daming rostdin ursang ar-subhvor,
Jaholat tunidin tutarsan kanor.
Dam urma bajuz rosti zinhor,
Ki so'ldin oshuqdur o'ng, ey nomdor!
Go'zal rostdin dunyoda kor yo'q,
Ki sadbargida rostning xor yo'q.

Yalg'onning mazammati bayonida

Kishigaki norasoliq bo'lsa kor,
Qachon ro'zi mahshar bo'lur rostgor.
Kishig'aki bo'lsa zaboni durug',
Charog'i dili oni bo'lmas yorug'.
Durug' odamiyni qilur sharmsor,
Durug' odamiyni qilur beviqor.
Xiradmand kazzobdin tutqay or,
Ki odam deb oni qilinmas shumor.
Durug', ey yigit, so'zlama zinhor,
Ki kozib bo'lur xoru bee'tibor.
Jahon ichra yalg'oncha yo'q ish batlar,
Yo'q andin bo'lur nomi nek, ey pisar.